

Алланазаров Муҳиддин

**TABOTABOIYNING IJTIMOIIY-FALSAFIY
QARASHLARIDA G'ARB FALSAFASIGA MUNOSABAT**

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. XIX ASR OXIRI VA XX ASRNING II YARMIDA ERONDAGI IJTIMOIIY MUHIT.....	12
1. XIX asr oxiri va XX asrning II yarmida Erondagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va madaniy hayot.....	12
2. Tabotaboyni hayot yo'li, dunyoqarashiga ta'sir etgan omillar va uning islom tafakkuri tarixida tutgan o'rni.....	17
3. Tabotaboii ma'naviy merosida ko'tarilgan muommalarning ahamiyati va asarlarining qisqacha tasnifi.....	26
I bob bo'yicha xulosa.....	35
II BOB. TABOTABOINING FALSAFIY DUNYOQARASHI.....	36
1. Tabotaboyni borliq, irfon masalalariga munosabati, ayollarning jamiyatdagi o'rni va vazifasi borasidagi qarashlari.....	36
2. "Al-Mezon" kitobida bilim va falsafa to'g'risidagi mulohazalar.....	46
II bob bo'yicha xulosa.....	54
III BOB. TABOTABOINING IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLARIDA G'ARB FALSAFASINING TAHLILI VA TANQIDI.....	56
1. Tabotaboyni g'arbda keng yoyilgan ilohiyotshunoslikka munosabati.....	56
2. Tabotaboyni bilish nazariyasida g'arb moddiyunchiligining tanqidi.....	69
III bob bo'yicha xulosa.....	83
XULOSA	84
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	88

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Globallashuv jarayoni jamiyatning barcha jabhalarida, shuningdek, ijtimoiy fikr rivojida ham ulkan ahamiyat kasb etgan bugungi vaziyatda g'arb va sharq falsafasining nomutonosib tomonlarini ochib berish muhim. Istiqlol sharofati bilan mamlakatimizda barcha jabhalar qatori ijtimoiy-gumanitar fanlarida ham o'ziga xos o'zgarishlar va yangilanishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ijtimoiy-gumanitar fanlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati ustida alohida to'xtalib, quyidagi fikrlarni aytgan edi: "Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat, deb tushunaman. Odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo'lmagan millatning kelajagi yo'qligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim"¹. Biz ushbu fikrlardan ham ozod va mustaqil xalq uchun falsafa va tarix sohalarining nechog'lik muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu sohalarining asl mohiyatini xalqimizga yetkazish tadqiqotchilar oldiga dolzarb vazifa sifatida yuklatiladi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, madaniy yodgorliklarini o'rganishda, ularni xalqimizga va butun dunyo ahliga tanishtirish imkonini yaratishda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ajdodlar xotirasini yod etish, ularning nomlarini qayta tiklash va avlodlarga ajdodlarimizning haqiqiy merosidan bahramand bo'lish imkoniyatlarini yaratib berish uchun turli xil bayramlar, yubileylar va jahon e'tiboriga molik ilmiy konferensiyalar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, Sharq va G'arb xalqlarining ham ilm-fan yutuqlari va ijtimoiy falsafiy ta'limotlari katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Shu o'rinda hurmatli yurtboshimiz Islom Karimovning ushbu izohlarini aytib o'tish joizdir:

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. –B. 62.

“...Biz butun mamlakatimiz qatori, xorij ahli bilan, tariximiz o'zaro uzviy bog'langan qo'shni davlatlarning xalqlari bilan, dunyodagi barcha tinchliksevar ellar bilan ilm, madaniyatning hamjihatlik sohalaridagi munosabatlarimizni yanada yaxshilash tarafdorimiz”².

Mamlakatimizda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar qatori falsafaga, xususan, Sharq falsafasiga katta ahamiyat berilmoqda. Arab dunyosi, Eron, Hindiston, Xitoy, Yaponiya va boshqa Sharq xalqlarining qadimgi va zamonaviy ma'naviy merosi, ijtimoiy fikr tarixi ilmiy tadqiq etilmoqda. Zero, “... Qadimdan Sharq xalqlari ilmiy-madaniy aloqalari kuchli edi. Bu hamkorlik yanada rivojlanib, xalqaro do'stlikni mustahkamlashga xizmat qilishga ishonchimiz komil”³.

Yuqorida ta'kidlangan konseptual fikrlarni inobatga olib, ushbu magistrlik dissertatsiyasida Eron xalqining zabardast farzandi, faylasuf va shoir, ilohiyotshunos va dinshunos olim Alloma Tabotaboyni ijtimoiy-falsafiy qarashlarida g'arb falsafasiga munosabatini tadqiq etish masalasining dolzarbligini quyidagilar bilan asoslash mumkin.

Birinchidan, ma'lumki, Eron qadimiy mamlakat bo'lib, bu diyorda ko'plab jahonga mashhur shoir-u faylasuflar, fiqhshunos va mantiqshunoslar, astranom va matematiklar yetishib chiqqan. Zakariyo ar-Roziy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Shayx Sa'diy, Xoja Hofiz Sheroziy kabi olim va shoirlar, Nasiriddin Tusiy, Jaloliddin Davvoni, Hoji Mullo Hodiy Sabzavoriy kabi yetuk faylasuflar nomi jahon ilm-fani va adabiyoti xazinasini boyitgan shaxslar sifatida e'tirof etiladi. Alloma Tabotaboiy ham o'z salafklarining eng yaxshi an'analari davom ettirib, ularning falsafiy g'oyalarini yangi mazmun-mohiyat bilan boyitdi. XX asrda Sharq dunyosida G'arbning ijtimoiy-madaniy ta'siri ortib borayotgan bir davrda, islomiy ilm-fan, ma'rifat pozitsiyasida turib, g'arb va sharq falsafasini qiyosiy o'rganib, ular o'rtasidagi qarama-qarshilik va tafovutlarning asl mohiyati va sabablarini ochib berdi. Mazkur

² Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2011. –B. 243.

³ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2011. –B. 244.

muammolarning mazmun-mohiyatini atroflicha tahlil qilish va ularni ilmiy asosda o'rganish zamonaviy sharq falsafasining yangi qirralarini ochish imkonini yaratadi. Shu sababdan ham ushbu masalani chuqur o'rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, g'arb va sharq falsafasini qiyosiy o'rganish bugungi kun falsafa fanining ham ajralmas qismiga aylangan. Ilmda bir xil narsa, yoki hodisadan qarama-qarshi bo'lgan ikki turdagi haqiqat mavjud bo'lmaydi. Har qanday davrda ilmiy haqiqat sharq-u, g'arbda o'z qadriga ega bo'lgan, zero, Tabotaboiiy ta'kidlaganidek, "agar ilm haqiqiy bo'lsa, uning o'rganadigan ob'yekti bitta bo'lsa, ulardan ikki xil turli xulosalar chiqishi mumkin emas"⁴. Shunday ekan, zamonaviy sharq faylasufining g'arb falsafasidagi muammolarni tadqiq etishini ilmiy-falsafiy o'rganish davr talabidir.

Uchinchidan, sharq va g'arb falsafasida, dunyoqarashlarida har doim biroz tafavvut bo'lib kelganligini hisobga oladigan bo'lsak, ular o'rtasidagi nomutanosibliklarni ochib berish dolzarb muammolardan biridir. Tabotaboiiyning bu borada qilgan ishlaridan ayniqsa, gnoseologik qarashlarida ilgari surgan g'oyalari diqqatga sazavordir. Undan tashqari, ilohiyotshunoslikka doir qarashlarida Tabotaboiiy g'arb ilohiyotshunosligidagi kamchilik va muommoli vaziyatlarni yaqqol oshkor etib tashlagan. Bu o'z navbatida, ikki qutb falsafasidagi o'rganilishi zarur bo'lgan yangi muammolarni yuzaga chiqaradi. Allomaning g'arb falsafasiga munosabati yuqoridagi muammolarga yechim topish va ularni kengroq tadqiq etish imkoniyatini yaratadi.

To'rtinchidan, bugungi globallashuv sharoitida mafkuraviy kurashlar avj olgan bir davrda mafkuraviy immunitetning mustahkam bo'lishini zamonning o'zi talab etadi. XX asrda Eron zaminida g'arblashish, ya'ni g'arb madaniyati keng tarqalishi va uning ommaviylashuvi kuchaygan bir paytda Tabotaboiiy g'arb tafakkurining ayrim salbiy jihatlarini anglab yetdi va buni bartaraf etish yo'llarini qidiradi. Mazkur jarayonni o'rganish va ilmiy jihatdan muhokama

⁴ "Nazariy be zendegi va barxi oro-e نظری به زندگی و آرای علامه طباطبائی"، مسعود امید، سروش، تهران ۱۳۸۴

Allome Tabotaboiiy", Mas'ud O'mid, So'rush, Tehron 1382.sahfe-e 6)

qilish fanda yangi qirralar ochish bilan bir qatorda, insoniyat oldida turgan global muammolarga ijobiy yechim topish imkonini berishi mavzuning aynan bugungi kun uchun dolzarbligini yanada oshiradi.

Shuningdek, Husayn Tabotaboyniing ijtimoiy-falsafiy fikrlari, ularda ilgari surilgan g'oyalarning ahamiyati mamlakatimizda o'rganilmaganligi ham mavzuning dolzarbligidan dalolatdir.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqot ishining maqsadi, Tabotaboyniing ijtimoiy-falsafiy qarashlariga doir masalalarni ilmiy-falsafiy, metodologik jihatdan tadqiq etish asosida uning g'arb falsafasiga bo'lgan munosabatini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldi:

- XIX asr oxiri va XX asrning II yarmida Erondagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va madaniy hayotni atroflicha yoritish;
- Tabotaboyniing hayot yo'li, dunyoqarashiga ta'sir etgan omillar va uning islom tafakkuri tarixida tutgan o'rnini o'rganish;
- Tabotaboiy ma'naviy merosida ko'tarilgan muommolarning ahamiyati va asarlarining qisqacha tasnifini tadqiq etish;
- Tabotaboyniing borliq, irfon masalalariga munosabati, ayollarning jamiyatdagi o'rnini va vazifasi borasidagi qarashlarini tahlil etish;
- “Al-Mezon” kitobida bilim va falsafa to'g'risidagi mulohazalarni tahlil qilish;
- Tabotaboyniing g'arbda keng yoyilgan ilohiyotshunoslikka munosabatini o'rganish;
- Tabotaboyniing bilish nazariyasida g'arb moddiyunchiligining tanqidini tahlil etish va asoslab berish.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti. Tadqiqot mavzusining ob'yekti Tabotaboyniing ijtimoiy-falsafiy, axloqiy, irfoniy, ontologik va gnoseologik qarashlari, ularda ilgari surilgan muommolar hisoblanadi. Tabotaboyniing

ijtimoiy-falsafiy qarashlarida g'arb falsafasiga munosabatni o'rganish tadqiqotning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Falsafada sharq va g'arb faylasuflarining dunyoqarashlarini ilmiy-falsafiy jihatdan o'rganish, ularni qiyosiy tahlil etish, fikrimizcha, ikki qutb falsafasidagi yutuq va kamchiliklarni ochib berish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, qiyosiy tahlil, ayniqsa, zamonaviy faylasuflarning bugungi jamiyat hayotidagi muammolarga qaratilgan fikrlarini hisobga olsak, hozirgi davr ijtimoiy tafakkuridagi ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy-ahloqiy manzarasini yaxlit tasavvur etishga yordam beradi. Sharq allomasining mistikasida g'arb ilohiyotshunosining teologiyasi tahlil etilishi dunyo dinlari o'rtasidagi fikriy tafavvutlarga aniqlik kiritishi mumkin. Dissertatsiyada taqdim etilgan ma'lumotlar zamonaviy falsafadagi g'arb va sharq dunyoqarashlarining nomutonosibliklarini bartaraf etishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin va sharq falsafasining ayrim masalalariga yechim topishda keng ko'lamda foydalanish mumkin bo'ladi.

Mavzuning o'rganilganligi. XX asr Eron faylasuflaridan biri bo'lgan Alloma Tabotaboyni qoldirgan ma'naviy merosi, falsafiy qarashlari mamlakatimizda deyarli o'rganilmagan mavzulardan biridir. Tabotaboii ijodi asosan Eron hududidagi va Yevropa mamlakatlari faylasuflari tomonidan tadqiq etilgan. Shu kabi ma'lumotlarga tayangan holda, biz mutafakkirning ijodini o'rganilganlik darajasiga ko'ra 2 qismga ajratdik:

1. Ushbu mavzuning dunyo miqyosida tadqiq etilishi (asosan ingliz tilida);
2. Eron va boshqa forsiy zabon faylasuflar tomonidan tadqiq etilishi;

Biz mavzuning dunyo miqyosida tadqiq etilishiga doir tadqiqotlarni asosan ingliz tilida topdik, jumladan, ularga alloma bilan bir paytda yashagan, Sarbon Universitetining professori Anri Karbonning⁵ "Dialogues with Allame Tabatabai" asarida mutafakkir bilan falsafiy mavzularda yozishmalar olib borganligini va ularning mazmunini yoritgan. Anri Karbon, Sayyid Husayn Nasr

⁵ Henri Carbon "Dialogues with Allame Tabatabai" // iranianstudies.org/Journal v5 n1 p-5.

va Tabotaboiiy birgalikda dunyodagi yirik dinlardagi falsafiy muommalarni o'rganganligini va bu ilmiy izlanishlarning natijasi o'laroq, bir nechta falsafiy maqolalar chop ettirilganligi fikrimiz dalilidir. J.L. Makiening⁶ "The Miracle of Theism" va Ali Quli Qara'ining⁷ "The Elements of Muslim Metaphysics" asarlarida allomaning asosan ilohiyotshunoslik va falsafaga, aynan islom metafizikasiga doir qarashlari tadqiq etilgan. Ramin Jahanbagluning⁸ "Below the skies of the world" maqolasi (Nashr Farzon, fors tilida ham chop etilgan), Ahmad Luqmoniyning⁹ "Stories from the life of Allama Tabatabai" (S.K. Yusufali fors tiliga tarjima qilgan, "Mezone Ma'rifat" nashri, Qum, 2006-y) va Muhammad Yazdining¹⁰ "Biography of Allama Tabatabai" kabi asar va maqolalarida mutafakirning hayoti va faoliyatiga to'xtalgan. R.C. Zaehner¹¹ "Mysticism: Sacred and Profane" va Robert Cummings Neville¹² "A Theory Primer" asarlarida ham uning ilohiyotshunoslik va falsafiy qarashlariga e'tibor qaratilgan. William Chettich¹³ "Shi'ae islam" deb nomlangan Said Husayn Nasrning tarjimasiga munosabatida ham alloma ijodi mukammal ochib berilgan. Shuningdek, bu kabi bir qancha asarlar, maqola va tarjimalarda mutafakir ijodi Yevropada keng ko'lamda o'rganilganini e'tirof etishimiz mumkin. Shuning bilan birga, uning asarlari¹⁴ va biografiyasiga¹⁵ oid ma'lumotlarni yoritishda internet sahifalaridan foydalanildi.

Tabotaboiiyning ilohiyotshunoslikka doir qarashlari rus tilida Muhammad Legengauzenning¹⁶ "Islam and Religion" asaridan olingan va internet sahifalarida nashr etilgan «Современные вопросы исламской мысли»¹⁷ maqolasida ham berib o'tilgan. Bundan tashqari, allomaning tafsir kitobidagi

⁶ J.L.Makie "The Miracle of Theism" Oxford. Clarendon Press,1982

⁷ Ali Quli Qara'i "The Elements of Muslim Metaphysics" Al-Tawhid. 1994

⁸ Ramin Jahanbaglu "Below the skies of the world" //Muhammad_Husayn_Tabotaboei#cite_re

⁹ Ahmad Luqmoniy "Stories from the life of Allama Tabatabai" //www.Islamicdigest.net/v7core/2007/09/29/.

¹⁰ Muhammad Yazdi "Biography of Allama Tabatabai" //www.jafarianews.com /june2k2/7tabatabai.htm

¹¹ R.C. Zaehner "Mysticism: Sacred and Profane" New York: Oxford University Press, 1961.

¹² Robert Cummings Neville "A Theory Primer" Albany. Suny Press, 1991,p.5-6

¹³ William Chittich translate "Shi'a islam" Colgate University Press 1988.

¹⁴ <http://english.turkcebilgi.com/list> of works allameh tabatabai

¹⁵ <http://english.turkcebilgi.com/biography-of> -allameh tabatabai

¹⁶ Muhammad Legengauzen "Islam and Religion" London, Al-Hoda, 1999

¹⁷ «Современные вопросы исламской мысли» //www.islamfond@gmail.com

falsafa “Знания и философия в книге Альмизана”¹⁸ rukni ostida rus tilida chop etilgan.

Forsiy zabon tadqiqotchilardan allomaning ijodini o'rganganlar orasida uning shogirdi Murtazo Mutaharriy alohida o'ringa ega bo'lib, uning ishlariga magistrlik dissertatsiyamizning asosiy qismida to'xtalganmiz. Bundan tashqari, Mas'ud O'mid o'zining “نظری به زندگی و آرای علامه طباطبائی” asarida alloma merosini batafsil tadqiq etgan¹⁹. Uning falsafiy ta'limotini bo'limlarga ajratib, ilmiy tarzda bayon etgan. Said Husayn Nasr²⁰ mutafakkirning “Shia dar islom” asarini ingliz tiliga o'giran va sharhlar yozgan. Said Husayn Nasr boshqa ko'plab maqola va asarlarini ham ingliz tiliga o'giran. Said Ahtar Rizviy²¹ “Al-Mezon” asarini ingliz tiliga tarjima qilgan.

Masboh Yazdi²² o'zining “آموزش فلسفه، سازمان تبلیغات اسلامی، سال ۶۸ (Omuzesh-e falsafe) asarida, Doktor Abdulkarim So'rush²³ mutafakkir haqida (qabz va baste قبض و بسط تئوریک شریعت، مؤسسه فرهنگی صراط، سال ۷۴) asarida falsafiy va shariat borasidagi qarashlarini o'rgangan. Ali Shirvoni²⁴ “ترجمه و شرح نهایی الحکمه، دفتر تبلیغات اسلامی، سال ۷۲ (Tarjo'me va sharh-e Nihayat-ul hikma) deb nomlangan Tabotaboyniing “Nihayat-ul hikma” asariga sharh yozgan. Mahmud Taqiy Ja'fariy²⁵ “تحقیق در فلسفه علم، دانشگاه (tahqiqiy dar falsafe-e elm) asarida, Mahdiy Dehboshiy²⁶ “فلسفه علم، پیمان، سال ۶۲ (falsafa-e elm) asarida allomaning falsafiy ta'limoti tadqiq etilgan. Va shuningdek, ya'na ko'plab tadqiqotchilar alloma ijodini fors tilida o'rgangan. Muhammad Husayn Tabotaboyniing ijodi hozirgi kunda Yevropa va Eronda mukammal darajada o'rganilgan.

Tadqiqotning uslubiyati va uslublari. Tadqiqotda birinchi manbalarning analizi va ushbu matnlarni tahlil etishda oddiydan murakkabga sistematik

¹⁸ <http://www.molych.ru/filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html>

¹⁹ “نظری به زندگی و آرای علامه طباطبائی”، مسعود امید، سروش، تهران ۱۳۸۳.

²⁰ “Shi'ite Islam”, trans. Seyyed Hossein Nasr, Houston: FILINC, 1979

²¹ Al-Mizan, trans. Sayyid Saeed Akhtar Rizvi, Tehran: WOFIS, 1982. Vol. 4.

²² آموزش فلسفه، سازمان تبلیغات اسلامی، سال ۶۸

²³ قبض و بسط تئوریک شریعت، مؤسسه فرهنگی صراط، سال ۷۴

²⁴ ترجمه و شرح نهایی الحکمه، دفتر تبلیغات اسلامی، سال ۷۲

²⁵ تحقیق در فلسفه علم، دانشگاه صنعتی شریف، سال ۷۲

²⁶ فلسفه علم، پیمان، سال ۶۲

ravishda ko'rib chiqish asosiy o'rinni egallaydi. Shuningdek, mavzuni yoritishda ilmiy bilishning tarixiylik, ob'yektivlik va mantiqiylik tamoyillaridan, hamda, germenivtik qiyosiy tahlil qilish ilmiy tadqiqot metodlaridan imkon darajada foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati unda bayon etilgan mulohazalar, ijtimoiy fikrlar va qarashlar, nazariy xulosalardan falsafiy tafakkurni kengaytirishga, mustaqil fikrni o'stirishda, ontologik va gnoseologik qarashlarni boyitishga o'ziga xos hissa qo'shishida, zamonaviy Sharq falsafasiga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda, hamda ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun muayyan nazariy manba bo'lib xizmat qilishda o'z ifodasini topadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, zamonaviy falsafiy ta'limotlarni o'rganib, atroflicha tahlil qilib, milliy mafkuramiz yo'lida to'g'ri foydalanib, to'g'ri xulosa chiqargan holda, undagi nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, sharq falsafasiga doir to'garaklarda, dars jarayonlarida "sharq falsafasi tarixi" kabi fanlarni o'qitishda va ushbu yo'nalishlardagi turli ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Shuningdek, tadqiqotning nazariy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning Sharq xalqlarining ma'naviy merosi, ijtimoiy fikr tarixini ilmiy tadqiq etish zarurligiga oid ilmiy xulosalari, ma'naviy qadriyatlarimizning Milliy G'oyani shakllantirishda, har tomonlama yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalashda tutgan o'rniga doir asarlari, nutqlarida aks ettirilgan fikr-mulohazalari tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, tadqiqotning nazariy asosi sifatida O'zbekiston va xorijda nashr etilgan mavzuga doir monografiya, risolalar, maqolalar, hamda hijriy-qamariy 1382-yil Eronda nashr etilgan Mas'ud O'midning

نظری به زندگی و آرای علامه طباطبایی، مسعود امید، سروش، تهران ۱۳۸۲
("Nazariy be zendegi va barxi oro-e Allome Tabotabo'iy", Mas'ud O'mid, So'rush, Tehron 1382.) asari asosiy manba qilib olindi. Shuningdek, Tabotabo'iyning falsafiy qarashlarini keltirishda uning نهاية الحكمه، علامه طباطبایی

٤٢ سال ٤٢ (Nehoyat-ul hekma, Alloma Tabotaboiiy, muassase-e nashr-e eslomiy, sol-e 1342),

اصول فلسفه و روش رئالیسم، علامه طباطبائی، با پاورقی استاد مطهری، دفتر انتشارات

(O'sul-e falsafe va raveshe-e realism, Allome Tabotaboiiy, bo povaraqi o'stod Mo'taharriy, daftar-e enteshorot-e eslomiy, sol-e ?,.),

٦٤ (Bedoyat-ul hekma, Alloma Tabotaboiiy, muassase-e nashr-e eslomiy, sol-e 64,) asarlaridan tarjimalar ketirildi. Shuningdek, chet tillarida yozilgan maqolalar, islom ensiklopediyasi va boshqa manbalardan foydalanildi. Internet saytlarida bayon qilingan maqolalardan ham yetarlicha foydalanildi. Bulardan chiqarilgan xulosalar ishning amaliy va nazariy ahamiyatini oshiradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- Magistrlik dissertatsiyamizda Husayn Tabotaboiiyning falsafiy qarashlarini asl manbalar asosida bayon etildi, shuningdek, imkon qadar sharhlandi, tahlil va izohlandi.

- Tadqiqot mavzusidan kelib chiqqan holda, Husayn Tabotaboiiyning falsafiy qarashlarida g'arb falsafasiga munosabat ob'yektiv tarzda, dunyoviy yondashgan holda tahlil qilindi.

- Alloma Tabotaboiiyning ilmiy ijodini o'rganish va tadqiq etish mobaynida Alloma Tabotaboiiyning hayoti va ma'naviy merosi o'rganildi va tahlil qilindi.

- Husayn Tabotaboiiyning bilish nazariyasi o'rganildi va unda moddiyunchilik g'oyalari tanqidi borasida ilmiy xulosalar chiqarildi.

- Alloma Tabotaboiiyning G'arb zamonaviy falsafiy ilohiyotshunosligiga munosabati tatqiq etildi.

- Bu yurtimizda Husayn Tabotaboiiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini o'rganishda kichik bir yangilik bo'ladi, deb umid qilamiz.

Ish tuzilishi va tarkibi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, yetti band, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat, hajmi 94 betni tashkil qiladi.

I BOB. XIX ASR OXIRI VA XX ASRNING II YARMIDA ERONDAGI IJTIMOIIY MUHIT

1. XIX asr oxiri va XX asrning II yarmida Erondagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va madaniy hayot

Umuman, XX asr Eron tarixiga nazar tashlasak, XX asrning boshlari va o'rtalaridagi ijtimoiy va siyosiy vaziyat ancha keskin bo'lib, Eron hududida Rossiya va Angliya manfaatlarini to'qnashgan davr edi. Alloma Tabotaboiyning dunyoqarashi ham shu davrlarda shakllanib bordi. Mamlakatda iqtisodiy qiyinchiliklar ham murakkab vaziyatlarni yuzaga keltirib chiqargan va aholining turmush darajasi ancha past bo'lgan. Tabotaboiyni voyaga yetkazgan sharoitdagi ijtimoiy ahvol juda og'ir bo'lib, mamlakatda mavjud bo'lgan shoh tuzumi va mustamlakachilik zulmi xalq ahvolini yanada og'irlashtirdi. Mamlakatda noroziliklar kuchaydi²⁷.

Erondagi mustabid hokimiyat feodal-byurokratik qatlamlar, ayniqsa mamlakat hududida yashovchi mayda elatlar — ozarbayjon, afg'on, turkman, kurd, arman va gruzinlarni shafqatsiz ezib kelayotgan viloyat hokimlari hamda urug'larning xonlariga tayanar edi. Eronda sanoatning rivoji sust kechdi. Yer dehqonlarni ekspluatatsiya qilib kelayotgan mulkdorlar qo'lida edi. Shaharlarda yashovchi hunarmandlar va mayda savdogarlar kabi dehqonlar ham sudxo'rlar tomonidan qarzga botirilgandi.

I jahon urushi arafasida Eron Angliyadan 9,6 million funt sterling qarz bo'lib qoldi. Eronni qaram qilishda Rossiya ham ishtirok etdi. Birinchi jahon yirik miqyosli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma'muriy islohotlarni amalga oshirdi. Biroq iqtisodiy o'sish xalqning ahvolini yaxshilamadi, faqat bir hovuch tijoratchilar va korrupsiya botqog'iga botgan amaldorlarnigina boyitdi, xolos. Shoh tuzumining agrar siyosatida ham maqsadlarga erishilmadi. Yarim feodal munosabatlarning tugatilishi, hissadorlik qishloq xo'jalik inqilobi va birinchi

²⁷ XX asrda Eron. <http://eduportal.uz/ebooks>.

urushi arafasida Eronning Rossiyadan qarzi 164 million rublni tashkil etdi. Eronning iqtisodiy qaramligi siyosiy qaramlikni ham kuchaytirdi. Ayniqsa, ruslarning shoh saroyiga ta'siri kuchli edi. Inglizlar esa boshqa yo'ldan bordilar. Ular Fors viloyati, baxtiyorlar (qabilalar), Huziston xonlarini markazga, shoh hukmronligiga qarshi gij-gijlab turdilar²⁸.

Bunday jarayonlar mamlakatda o'zgacha fikrlaydiganlar qatlamini vijudga keltirdi. Ular jamiyatda islohatlar qilishni, tuzumni o'zgartirishni ilgari surdilar. Bunday insonlar qatoriga Tabataboiyni ham kiritishimiz mumkin.

Ichki ijtimoiy ziddiyatlar, tashqi iqtisodiy va siyosiy siquvlar Eronda 1905-yili inqilobiy harakat boshlanishiga sabab bo'ldi. Mamlakatda umumiy ish tashlash yuz berdi. Shoh hukumati ish tashlovchilardan shafqatsiz o'ch olishga kirishdi. Bunga javoban xalq harakati boshlanib ketdi. Xalq masjid va qabristonlarda tinch o'tirib, passiv qarshilik ko'rsatish taktikasini qo'lladi. Bu best deb atalgandi. Bestda o'tirgan odamga jazo chorasi qo'llash mumkin emas edi.

1907—1911- yillar Eron inqilobining ikkinchi davri bo'ldi. Harakat endi asosan mustamlakachilarga qarshi qaratildi. Shahar kambag'al qatlamlari ham o'z talablari bilan chiqishdi. Ayniqsa, mujohidlar(vatanparvar tashkilot) tashkiloti katta ta'sirga ega bo'ldi. Ular hammaga teng, yashirin saylov huquqi, so'z, jamiyatlar tuzish, shaxs erkinligi, shoh yerlarini musodara qilish, ularni dehqonlarga taqsimlash, ish vaqtini 8 soat qilib cheklash, bepul va majburiy ta'lim joriy qilish kabi talablar bilan chiqdilar.

Bu kabi harakatlar natijasida qabul qilinayotgan qonunlarning shariatga muvofiqligi ustidan nazorat qilish uchun besh ulug' dindor (ulamo) tayinlanadigan bo'ldi. Eronda dindorlar sinfining nufuzi oshib bordi. Husayn Tabotaboiyning otasi ham nufuzli dindorlardan bo'lganligi bois u ham diniy ta'lim ola boshladi va nufuzi oshib boraverdi.

1907- yilning 31- avgustida Angliya-Rossiya bitimi imzolandi. Bitimga ko'ra, Eron uch qismga bo'linadi. Shimoliy Eronning Rossiya, Janubiy Eronning

²⁸ XX asrda Eron. <http://eduportal.uz/ebooks>

Angliya ta'sir zonasida bo'lishi tasdiqlandi. Eronning o'rta qismi esa, betaraf deb e'lon qilindi. Ayni paytda, bu davrda Shoh inglizlar va ruslar yordamida 1908- yil 23- iyunda aksilinqilobiy davlat to'ntarishi o'tkazdi. Rus kazak qo'shinlari Majlis binosini to'pga tutdi. Majlis va anjumanlar tarqatib yuborildi. Demokratik matbuot taqiqlandi. Bu voqelalarni o'z ko'zi bilan ko'rib turgan Tabotaboiiy Shohning bu ishlariga tanqidiy fikrlar bildirgan.

Erondagi 1905—1911- yillar inqilobi katta ijtimoiy hodisa, feodal-monarxiya tuzumidan konstitutsiyaviy monarxiyaga o'tish bosqichi bo'ldi.

XX asrning 40-50-yillarida esa, demokratik harakatlar avj olib borgan va xalq namoyishlari bo'lib turgan²⁹. 1945-yil yozida demokratik kuchlar Eron Ozarbayjoni va Shimoliy Kurdistonda radikal o'zgarishlar o'tkaza boshladi. Biroq ularning "Eron inqilobi" sifatida ma'lum bo'lgan xatti-harakatlariga zarba beriladi. 1941-yilda tuzilgan xalq partiyasi (Tude) esa tor-mor etiladi. Shuning bilan mamlakatda shoh Muhammad Rizo Pahlaviy va uning atrofidagi reaksiyon kuchlarning to'liq hukmronligi qaror topishiga olib keladi.

Eronda bu davrda ham umumxalq harakati keng quloch yoygan, unda keng xalq ommasi, milliy burjuaziya, ziyolilar, mansabdorlar va hatto, hukmron yuqori tabaqa vakillari yagona front bo'lib qatnashdi.

Shoh shuni tushunardiki, Eron uchun iqtisodiyotni rivojlantirish, madaniyatni ko'tarish, aholining turmush darajasini yaxshilashdan iborat bo'lgan tub modernizatsiyani amalga oshirish zarur. U 1963-yilda "oq inqilob" g'oyasi yoki, uning o'zi keyinchalik aytganidek, "shoh va xalq inqilobi"ni hayotga tatbiq eta boshladi. U yirik miqyosli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma'muriy islohotlarni amalga oshirdi. Biroq iqtisodiy o'sish xalqning ahvolini yaxshilamadi, faqat bir hovuch tijoratchilar va korrupsiya botqog'iga botgan amaldorlarnigina boyitdi, xolos. Shoh tuzumining agrar siyosatida ham maqsadlarga erishilmadi. Yarim feodal munosabatlarning tugatilishi, hissadorlik qishloq xo'jalik kompaniyalarining yaratilishi, agro-sanoat jamiyatlarining tuzilishi xo'jaliklarni

²⁹ 1951-yilda butun mamlakatda Angliya—Eron neft kompaniyasi (AENK) bilan tuzilgan bitimni tugatish talab qilingan namoyish va norozilik chiqishlari avj olgan. Neft konlarida ish tashlashlar ko'payib, butun mamlakatda ish tashlagan neftchilar bilan hamkorlik harakati keng quloch yoygan.

yiriklashtirib, dehqonlarni daromaddan mahrum etdi. Ular o'z yerlarini yangi qishloq quloqlariga sotib, shaharlarga qochib bordi va proletariat, shahar kambag'allari, mayda do'konchilar saflarini to'ldirdi, hamda bo'lg'usi islom inqilobi guruhlarini shakllantirdi.

Shoh islohotlari, uning g'arb davlatlari bilan aloqasi, mamlakatga g'arb madaniyatining kirib kelishi tufayli milliy qadriyatlarning buzilishi va xalq ma'naviyatiga berilgan zarbalar omma tomonidan norozilikka sabab bo'ldi. Xalq noroziliklari bilan kurashish uchun shoh maxfiy politsiyani (SAVAK) tashkil etdi. Uning devorlari ortida 380 ming eronliklar yo'q qilindi. Mamlakatda haqiqiy inqilob yetildi. Unga rahbarlikni mutaassib shialarga tayangan shia mazhabi ruhoniylari o'z bo'yniga oldi.

1978-yilning sentabri boshlarida Eronning qariyb barcha shaharlarida ommaviy namoyishlar bo'lib o'tdi. Tehron va boshqa 11 yirik shaharlarda harbiy holat joriy etildi. Noyabr boshlarida shohga qarshi norozilik chiqishlari yangi kuchga kirdi. 5 noyabrda butun Tehronni yong'inlar qoplab oldi. Shu kunlarda shohni faqat uncha katta bo'lmagan harbiy guruh va SAVAKgina qo'llab-quvvatlab turgani ma'lum bo'ldi.

Butun Eronni namoyishlar, ish tashlashlar qamrab oldi. Prezident Karter shohni AQSHga ta'tilga kelishga taklif etdi. 1979-yilning 16-yanvarida shoh Eronni umrbod tark etdi³⁰.

Alloma Shoh hukumatidan norozi kayfiyatda bo'lgan. Allomaning Eronda yuz bergan islom inqilobi borasidagi fikri ijobiy bo'lib, uning o'zi mavjud siyosiy masalalardan boxabar edi. Sobiq tuzum davrida (ya'ni, Eronda 1979 yilgi islom inqilobidan oldin mavjud bo'lgan shohlik tuzumi davrida) jamiyatdagi vaziyatdan o'ta norozi bo'lib, shoh va uning tuzumiga nisbatan nafratini yashirmagan³¹.

Erondagi barcha norozilik chiqishlariga shialar yo'lboshchisi Oyatullo Humayniy rahbarlik qildi. 1979-yil 11-fevralda Tehronda umumiy qurolli

³⁰ XX asr Eron tarixi. <http://www.msn.com>

³¹ Alloma Tabotabo'iy hayoti, faoliyati, ta'limoti. (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida) -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, -2006, -B..39-bet

qo'zg'olon boshlandi. U shoh jo'nab ketgandan so'ng omma ustidan nazoratini yo'qotgan diniy doiralar buyrug'i va ishtirokisiz boshlandi. Qo'zg'olonni so'l kuchlar yo'lboshchilari — Tude partiyasi qoldiqlari va Eronda respublika tuzumini qaror toptirishga intilgan turli partiyalar vakillari ko'tardi. 12-fevralda qo'zg'olonchilar tomoniga harbiy qismlar ham o'tdi. Inqilob g'alaba qozondi. Biroq qo'zg'olonchilar kurash olib borayotgan vaqtda shia yo'lboshchilari nafaqat shohga, balki so'l kuchlarga ham qarshi bo'lgan hukumatni shakllantirdi. 1979-yil 15-fevralda Tehronga Oyatulloh Humayniy yetib keldi, u "islom inqilobi"ning yo'lboshchisi, deb elon qilindi. U o'zini islom hokimiyatini o'rnatish uchun yuborilgan 12-imom (mahdi), deb e'lon qildi. Ruhoniyat hokimiyat organlarini to'liq o'ziga bo'ysundirdi. Mamlakatda siyosiy hayot, ijtimoy va oilaviy munosabatlar, ta'lim va boshqarishni, shuningdek, ma'naviyatni islomlashtirish dasturi amalga oshirila boshladi.

Mana shunday og'ir sharoit bag'ridan chiqib kelgan, o'z salaflarining eng yaxshi an'analarini davom ettirgan, ularning falsafiy g'oyalarini yangi mazmun-mohiyat bilan boyitgan olim, XX asrning zabardast mutafakkirlaridan biri, alloma Muhammad Husayn Tabotaboiydir.

2. Tabotaboiyning hayot yo'li, dunyoqarashiga ta'sir etgan omillar va uning islom tafakkuri tarixida tutgan o'rni

Muhammad Husayn Tabotaboiy islom dini shia mazhabi ilohiyotshunosi, "Qur'on" sharhlovchisi va faylasuf sifatida Alloma Tabotaboiy nomi bilan mashhurdir. U chuqur ilm va keng dunyoqarash egasi bo'lganligi uchun ham "Alloma" unvoniga loyiq deb topilgan.

Alloma Sayyid Muhammad Husayn Tabotaboiy 1892-yil(1321-yil qamariy, 1281-yil shamsiy) Zulhijja oyida Tabrizda Muhammad(s.a.v.) avlodidan bo'lgan shia ilohiyoti bilimdoni oilasida dunyoga kelgan va unga Muhammad Husayn, deb ism qo'yishadi. Allomaning xonadoni ahli nasl nasabi Tabriz shahrida boobro` xonadonlardan biri edi. Sirojiddin Abdulvahhob Hasan Husayn

allomaning dong'i ketgan ajdodlaridan bo'lib, Samarqandda tug'ilgan va keyinchalik Tabrizga ko'chib kelgan, Safaviylar davlati vujudga kelgunga qadar Ozarbayjon shayxulislomi bo'lgan. Hijriy qamariy 937 yilda hozirgi Turkiya hududida vafot etgan.

Alloma Tabotaboiy ustozlar yordamida islom falsafasi, matematika, astronomiya, fiqh, arab adabiyoti, notiqlik san'ati, shariyat nazariyasi, stilistika, usul ul-fiqh ilmi, axloq, tafsir, hadis, tasavvuf ilmlarini har tomonlama puxta o'zlashtirib, qomusiy olim bo'lib voyaga yetdi. Yuqoridagi fanlarga oid va o'z dunyoqarashidan kelib chiqib alloma 46 ta yirik asar yozib qoldirgani bu fikrimizga dalildir

Alloma Tabotaboiy o'z tadqiqotlarida o'tmishdoshlari qoldirgan boy falsafiy merosdan unumli foydalandi, Ibn Miskaveyh, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Nasiriddin Tusiy, Bahmanyor, Ibn Rushd, Mullo Sadro kabi musulmon sharqi falsafasining yirik vakillari dunyoqarashini chuqur o'rgandi, o'z tadqiqotlarida ularning ijodiga ehtirom bilan munosabatda bo'ldi. Mufakkir bundan tashqari, g'arb va sharq falsafasini qiyosiy o'rganib, ular o'rtasidagi qarama-qarshilik va tafovutlarning asl mohiyati va sabablarini ochib berishga qiziqdi. "Al-Mezon" , "Nihoyat ul-Hikmat" , "Bidoyat ul-Hikmat" , "Xulosai Ta'olimi Islomiy" , "Risolate Dar Burhon" kabi asarlari olimga katta shuhrat keltirdi.

Tabotaboiy ilm-fan bilan mashg'ul bo'lishdan tashqari, butun umri davomida madrasada mudarrislik qilib, ko'p shogirdlarini fan yo'liga rahnamolik qildi, iqtidorli mudarrislar tayyorladi.

Alloma o'z hayoti davomida boylikka qiziqmagan, oz narsaga qanoat qilib yashagan, kamtarona, xokisorlik bilan, oddiy turmush kechirgan, butun umrini ilm-fanga, yoshlar tarbiyasiga bag'ishlagan. Farzandlari va shogirdlarini islomiy axloq va xulq-odob qoidalariga amal qilishga, insonparvarlik va bunyodkorlikka da'vat etgan. Bu haqda Alloma Tabotaboiyning shogirdlaridan va hamkorlaridan biri– Murtazo Mutaharriy shunday xotirlaydi: "Ustoz alloma madrasada nafaqat ilm beruvchi ustoz edi, balki alloma o'z xulq-atvori va yurish-turishi bilan

talabalarga odob-axloq va bunyodkorlik sabog'i va tarbiyasini ham berardi. Ayrim paytlari ustoz allomaga "bizga nasihat bering" deb murojaat qilsak, ul zot o'ta kamtarlik bilan "ustozlaringizning o'zi ham nasihatga muhtoj" derdilar"³².

Allomaning hayot kechirishi haqida Oyatulloh Misbox Yazdiy hijriy-shamsiy 1361 yilning 21-obon oyida (melodiy 1982 yilning 12 noyabri) Tehronning "Vahdat" saroyida Alloma Tabotaboyni hayoti va faoliyatiga bag'ishlab o'tkazilgan seminarda so'zlagan nutqida shunday degandi: "Diniy ilmlar sohasiga kirib kelishi bilan falsafa, irfon va tafsirdan darslar bera boshlagan bu odam kim o'zi? Tabrizning Shohobod degan bir qishlog'idan shaharga kelgan, ustida oddiygina chononi va oddiygina sallasi bo'lgan bir ruhoniyni ko'z oldingizga keltirib ko'ring. Mana shunday oddiygina kiyingan va yurish-turishi o'ta oddiy bir kishi diniy ta'lim va tarbiya sohasida inqilob yasash masalalasini ko'tarib chiqdi.

Xo'sh, bu odamning moddiy ahvoli qanaqa o'zi? Uning yashash manzili oyiga sakson tuman ijara haqqi to'lab yashab turgan ikki xonali ijara uy ekanligini bilasizmi? Allomaning bugungi yig'ilishimizda qatnashib turgan farzandi qanaqa kichik va xarob uyda katta bo'lganligini yaxshi eslasa kerak.

Bir necha vaqt davomida allomaning tirikchiligi yozgan kitoblarning qalam haqqidan o'tardi. Allomaning yaqinlarining, hatto kuyovi Shahid Qudusiyni ham uning moddiy ahvoli va cheklangan imkoniyat va sharoitidan xabarleri yo'q edi"³³.

Alloma Tabotaboyni qizi shunday hikoya qiladi: "Avvaldan bizning hayotimiz oddiy va shoyad undan ham pastroq darajada edi. Otam uylanganlaridan bir yarim yil o'tgach Najafga ko'chib ketadilar. Najafda o'tgan o'n bir yillik hayotlari davrida oddiy bir talaba darajasida kun kechirardi. Bu davrda ularning sakkiz farzandi tug'ilishidan ko'p o'tmay nobud bo'laveradi.

³² Alloma Tabotaboyni hayoti, faoliyati, ta'limoti. (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida). –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. –B.78.

³³ Alloma Tabotaboyni hayoti, faoliyati, ta'limoti. (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida) –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, –2006. –B. 93-94.

Ammo otam onamni o'ylab biror marta bo'lsa-da bundan ezilganliklarini bildirmaydilar"³⁴.

Alloma Tabotaboiy 5 yoshida onasidan, 9 yoshida esa otasidan ayriladi va yolg'iz ukasi Sayyid Muhammad Hasan bilan qoladi. Tabotaboiy marhum otasi tomonidan tayinlangan vasiylar Karbaloi Quli nomli xodim va Saltanatxonum nomli xodimaning otaliq nazorati va tarbiyasida qoladi. Tabotaboiy Tabrizda boshlang'ich ta'limni oladi va xattotlik san'atini o'rganadi. Alloma Tabotaboiy bu haqda shunday xotirlaydi: "Ko'pincha ukam bilan Tabriz shahrining tashqarisiga tog'lar etagiga va ko'm-ko'k tepaliklar bag'riga chiqib ketardik, u yerda ertalabdan kechgacha xattotlik namunalari uslubida yozishni mashq qilar edik, keyinchalik har ikkalamiz birgalikda Najafi Ashraf shahriga borishga musharraf bo'ldik"³⁵.

Alloma Tabotaboiy Najafi Ashrafda 10 yil davomida fiqh, usul (metodika), falsafa, irfon va matematika darslaridan saboq oldi.

Yashash va o'qish uchun kerak bo'ladigan darajadagi mablag'ning yetishmasligi, Tabrizdagi dehqonchilik mulklaridan tushadigan daromaddan ajratiladigan nafaqaning kelmay qolishi aka-ukani Eronga qaytishga majbur qildi va Tabriz atrofidagi Shohobod qishlog'idagi o'zlariga tegishli dehqonchilik yerlarida dehqonchilik bilan mashg'ul bo'ldi. Shundan so'ng, Alloma Qum diniy madrasasini talabalar o'rtasidagi aqidaviy kelishmovchilik va hodisalardan asrash maqasadida Qum shahriga ravona bo'ladi. 1945-yil II jahon urushi ham uni Qum shahriga ko'chib ketishiga sabab bo'lgan. Qumda Tabotaboiy "Qur'on" sharhi – tafsirdan, irfon va an'anaviy islom falsafasidan dars bera boshlaydi. Ajablanarlisi shundaki, Alloma Tabotaboiy Qum madrasalari o'quv-dars jadvaliga Mullo Sadroning falsafiy tizimini, o'qitish kursini olib kirilishida muhim rol o'ynaydi. Uning an'anaviy-na'munaviy ta'lim sistemasi qolipidan chiqib, zamonaviy uslubda ta'lim berayotgan talabalari soni oshib boradi.

³⁴ O'sha joyda

³⁵ "Nazariy be zendegi va irfoni" (Nazariy be zendegi va irfoni), Mas'ud O'mid, so'rush, Tehron, sahife-e 13.)

Alloma Tabotaboiiy yoshligidan o'sha davrdagi madrasalarda keng tarqalgan kitoblar, jumladan, "Guliston", "Bo'ston", "Axloqi Musavvir", "Tarixi Mujaam", "Irshod ul-hisob", "Nisob us-sibyon" va boshqa kitoblarni o'qib o'rgandi. Shayx Muhammad Ali Sarobiiy huzurida arab tili gramatikasi va boshqa boshlang'ich ta'lim fanlarini o'rgandi. Fiqh, usul, falsafa va kalom fanlarini o'zi tug'ilgan joyda o'rgandi. Xattotlik borasida unga Og'o Mirzo Ali Nafi saboq bergan. Va xususan, usul ilmini "Ma'olim", "Qavonin", "Rasoil" va "Kifoya", mantiq ilmini "Risolai Kubro", "Mullo Abdulloh sharhlari" va "Sharhi Shamsiya", falsafa ilmini "Sharhi Ishorot", kalom ilmini esa "Kashul-murod" kitoblaridan o'rgandi.

Alloma Tabotaboiiyning bugungi Iroq davlati hududida joylashgan, Shia mazhabining yirik ta'lim maskani hisoblangan "Sinoi Asror" va "Mashhadi Shuhud" nomlari bilan mashhur bo'lgan Najafi Ashraf shahridagi ustozlari quyidagilar edi: Oyatulloh Noiniy 8 yil davomida fiqh va usuldan, Oyatulloh Shayx Muhammad Husayn Isfahoniy fiqhdan bir necha bob va usuldan bir kurs, Oyatulloh Og'o Said Abulhasan Isfahoniy bir necha yil davomida fiqhdan, Said Husayn Bodkubaiy 6 yil falsafa va hikmatdan, Said Abulqosim Xokisoriy Oliy matematikadan, Oyatulloh Xujjat Umumiy usuldan, Oyatulloh Hoji Mirzo Ali Irvoniy Fiqhdan dars bergan. An'anaviy islom fanlari va madrasa o'quv tartibini o'rganishdan tashqari, Tabotaboiiy islom gnoseologiyasi – irfon nazariyasi va amaliyoti asoslarini ham chuqur o'zlashtiradi. Bu yo'lda uning maslahatgo'yi taniqli irfon vakili Mirza Al-Qodiy edi³⁶.

Ushbu ustozlar orasida Said Muhammad Husayn Tabotaboiiyga falsafa va hikmatdan saboq bergan Said Husayn Bodkubaiy alohida o'rin to'tgan. U 6 yil davomida Sabzavoriyning "Manzuma" kitobi, Mullo Sadroning "Mashoir" kitobi, Abu Ali ibn Sinoning "Shifo" kitobi, Ibn Tarakaning irfonga oid "Usulujiya va tamhidul-qavoid", Ibn Miskaveyhning "Axloq" (etika) kitobi, hamda falsafaga oid "Asfor" kitobidan dars bergan. Alloma Tabotaboiiy 1935

³⁶ filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html [http:// www.molych.ru/](http://www.molych.ru/)

yilda Tabrizga qaytganidan so'ng, "Bahor ul-anvor" ni chuqur o'rganish va tadqiq qilish asosida "Al Mezon" tafsir kitobini yoza boshlaydi.

Alloma Tabotaboij o'zi tug'ilib-o'sgan shahri Tabrizda matematika fani bo'yicha "Irshodul-hisob" (arifmetikadan ko'rsatmalar), hamda falsafa va kalom fanlari bo'yicha "Ishorot" va "Kashful-murod" kitoblarini o'qib-o'rgangan bo'lsa-da, falsafaga bo'lgan katta qiziqish bu boradagi bilimlarini oshirishi va mukammallashtirishga undadi.

Najafi ashrafda Sayyid Husayn Bodkubaiy Tabotaboijga "Tahriri Uqlidus" kitobini o'qib-o'rganishni maslahat beradi. Alloma ikki yildan ortiqroq vaqt davomida Og'o Sayyid Abulqosim Xonsoriy huzurida ushbu kitobdan dars oladi va undan so'ng matematika kursini o'taydi.

Tabotaboijni nega alloma deb atashadi? Tabotaboijning katta farzandi nega uni alloma deb atashlari to'g'risida shunday degandi: "Otam individual shaxs sifatida ham mohir mergan, ham epchil chavandoz bo'lib, Tabriz shahrida bu borada yagona va tengsiz edi. Shuningdek, otam ham yetuk xattot, ham mohir rassom va chizmakash edi. Otam qalam ahlidan bo'lib, chuqur bilimga, tadqiqotchilik qobiliyatiga va yuksak shoirlik iste'dodiga ega edi, sof orifona (so'fiyona) she'rlar yozardilar. Ammo padari buzrukvorimiz ijtimoiy shaxs sifatida ham arab tili morfologiyasi va sintaksisida yetuk ustoz, ham arab tili semantikasi va stilistikasida mohir murabbiy, ham usul ilmi va kalom ilmida tengsiz, ham fiqh va falsafa va ham matematikada benazir, ham islomiy etika, ham astronomiyada iste'dodli olim, ham hadis va xabar, ham rivoyatda yetuk bilimdon edi. Balki ishonmasligingiz mumkin, lekin padari buzrukvorimiz qishloq xo'jaligi (dehqonchilik) va arxitektura masalalarida ham etuk bilimdon, tajribali va mohir mutaxassis edi. Xususan, otam Tabriz shahrida otalaridan dolgan yerda uzoq yillar dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Qum shahridagi "Hujjat" masjidining qurilishida esa otam loyihachi va bosh me'mor sifatida ishtirok etganlar. Bularning barchasi otamga xos bo'lgan bilimlar, tajribalar, xususiyatlar va fazilatlaridan bir qismigina bo'lib, xuddi mana shuning uchun

ham padari buzrukvorimizni "Alloma, ya'ni qomusiy bilimlar va tajribalar egasi" deb atashgan³⁷.

Amerikaliklar allomani AQShda Sharq falsafasidan dars berish uchun o'z yurtlariga olib ketmoqchi bo'lib, o'sha paytdagi Eron shohi Muhammad Rizo Pahlaviyga murojaat qiladi. Eron shohi Burujerdiydan bu to'g'rida alloma bilan gaplashib berishni so'raydi. Oyatulloh Burujerdiy ham o'z navbatida shohning so'rovini allomaga yetkazadi. Lekin alloma bunga ko'nmaydi.

Keyinchalik allomaga shoh "falsafa fanlari doktori" unvonini berishga qaror qilganida, ushbu taklifni qabul qilmaydi. Tehron Ilohiyot (teologiya) universitetining o'sha paytdagi rektori allomaning huzuriga kelib, shohning ushbu taklifini qabul qilishini so'raydi, lekin alloma qabul qilmaydi. Shoh tomonidan vakil qilib jo'natilgan va o'ziga yuklatilgan vazifani bajara olmagan Ilohiyot universiteti rektori allomani ko'ndira olmagach, oxiri "Siz bu taklifni qabul qilmasangiz shoh xafa bo'lib, jahli chiqadi", deydi. Ammo, Alloma: "Mening shohdan hech qanaqa qo'rqinchim yo'q va uning taklifini qabul qilishga tayyor emasman!" deydi.

Alloma Tabotaboyniing ilm, donishmandlik va tarbiya maktabida tarbiya olgan shogirdlaridan ayrimlari quyidagilardir: Shahid Murtazo Mutaharriy, Shahid Muhammad Husayniy Behishti, Imom Muso Sadr, Nosir Makorim Sheroziy, Shahid Muhammad Mufattih, Shayx Abbas Izadiy Sayyid Abdulkarim Musaviy Ardabiliy, Izaddin Zanjoni, Muhammad Taqiy Misboh Yazdiy, Ibrohim Amini, Yahyo Ansoriy, Sayyid Jaloliddin Oshtiyoni, Sayyid Muhammadboqir Abtahi, Sayyid Muhammadali Abtahi, Sayyid Muhammad Husayn Polazoriy, Nuriy Hamadoni, Hasan Hasanzoda Omuliy, Sayyid Mahdiy Ruhoni, Ali Ahmadiy Miyonji, Abdulhamid Sharbiyoni, Abdulloh Javodiy Omuliy, Abu Tolib Tajlil.

³⁷ Alloma Tabotaboii hayoti, faoliyati, ta'limoti. (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida). –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, –2006. –B. 27-28.

Alloma Tabotaboyni shogirdlari bugungi kunda Qum Oliy madrasasida va Eronning boshqa shahar va mintaqalarida ta'lim-tarbiya va tadqiqot ishlari bilan mashg'uldir.

Alloma Tabotaboyni sog'lig'i yomonlashib, so'ngi kunlarida dam olish uchun avval Mashhadga, so'ngra Tehron yaqinidagi Damovand shaharchasiga boradi va Tehrondagi shifoxonalarda davolanadi. Ammo kasallik ancha og'ir bo'lganligi sababli muolajalar ham foyda bermaydi. Oxiri allomani o'z yashash joyi bo'lgan Qum shahri yaqinidagi Toyiba qo'rg'oniga olib borishadi. Bemor alloma o'z uyida to'shakka yotqiziladi. Keyin yana kasalxonaga olib boriladi va bir haftadan so'ng vafot etadi (hijriy-qamariy 1407-yil muharram oyining o'n to'qqizinchi kuni (melodiy 1981-yil 15-noyabr)). Alloma Tabotaboyni umrining oxirida og'ir asab kasalligiga chalinib vafot etgan. Oyatulloh Imom Humayniy³⁸ allomaning o'limidan so'ng shunday deydi: "Diniy madrasalar va barcha musulmonlar uchun yo'qotish hisoblangan Alloma Tabotaboyni vafoti munosabati bilan taassuf izhor qilaman va siz Eron xalqiga, xususan, diniy madrasalar ahliga o'zimning hamdardligimni bildiraman".

Shundan so'ng, Imom Humayniy devoni (Rahbarlik devoni, Eronda barcha hokimiyat strukturalaridan yuqori turadigan organ) Alloma Tabotaboyni islom dunyosi, hamda ilm va adab olamining faxri, tafsir, falsafa, fiqh, usul va boshqa islomiy ilmlar sohasidagi kamdan-kam uchraydigan olim, deb e'lon qildi. Eron Islom Respublikasining o'sha paytdagi Prezidenti bo'lgan Oyatulloh Xomeneiy Tabotaboyni vafoti munosabati bilan hamdardlik bildirar ekan, shunday deydi: "Rahmatli Alloma Tabotaboyni o'z umrlarini islomga xizmat qilish, islom ma'rifatini yoyish va islomiy tadqiqotlar ishiga bag'ishladilar. Islomiy ilm, irfon va taqvo xazinasi bo'lmish bu alloma har biri islom olamida yetuk olim bo'lib yetishgan shogirdlar tarbiyalashda misli ko'rilmagan muvaffaqiyatlarga erishdilar. Islom dunyosining ushbu buyuk orif, faylasuf va mutafakkirining

³⁸ Izoh: Humayniy Ruhullo Musaviy (1898-1989)Eronda shoh tuzumini ag'darib tashlagan va islom respublikasini e'lon qilishga olib kelgan inqilobni boshqargan. 1979-yildan 1989-yil-gacha — Eron Islom Respublikasi rahbari va Oyatullo (shialarning oliy ruhoni unvoni).

vafoti katta yo'qotishdir va shubhasiz, ushbu yo'qotish ilm va tafakkur olami uchun katta motamdir"³⁹.

Alloma Tabotaboiy umrining oxirgi yillarida Sayyid Husayn Nasr va fransus faylasufi Anri Karbon bilan birgalikda bir qator ilmiy anjumanlar va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda tashabbus ko'rsatadi. Bu yo'lda ular irfoniy va mistikaga oid klassik(mumtoz) manbalarni muhokama etadilar. Sayyid Husayn Nasr bu tadqiqotlarga gnostikani(bilishni) qiyosiy o'rganish deb nom beradi, chunki ushbu izlanishlarda anjuman ishtirokchilaridan har biri dunyodagi katta-katta diniy ta'limotlardan birortasiga oid bo'lgan ilohiy marosimlarni o'rganganlar. Asosiy diqqat-e'tiborlarini mistika va irfoniy bilish(anglash) mazmuniga qaratgan. Misol uchun: Ioann Bogaslavning "Apokalipsis"i, "Upanishadlar" va "Dao de Szin" ilohiyotlarini muhokama qilgan va ushbu manbalarni islomdagi irfoniy ta'limotlar va so'fizm bilan taqqoslashgan.

Alloma Tabotaboiy an'anaviy islom falsafasi pozitsiyasida turib, dealektik materializm, kommunizm va marksizmni ilmiy tanqid qilishga katta e'tibor qaratadi. Jumladan, bu mavzularni Tabotaboiy o'zining asosiy asarlaridan biri bo'lgan "usul-e falsafe va raveshe-e realizm"(falsaf asoslari va realism uslubi)da keng yoritib bergan, unda dealektik tizimga qarama-qarshi realizmni himoya qilgan. Boshqa tomondan, Alloma Tabotaboiy o'zida Muhammad(s.a.v.) payg'ambar hadislarini, shia mazhabi tarixi va shia imomlarining tavihid – islom yakkaxudoligiga munosabati, hamda Imom Ali ibn Abu Tolib Malik Ashtoriyning nomasi va shia imomlarining iltijolari, ularning oldindan mavjud bo'lgan nutqlar to'plamining bir qismi, hukmdorlarga xalq va fuqarolar bilan munosabatda bo'lishda adolatlilikka amal qilishi zarurligi mazmunidagi bir qator yo'l-yo'riqlar va dasturlarni jamlagan murojaatlarni o'zida mujasam etgan – "Naxj al-bolog'a" iboralar va afarizmlar haqida batafsil ma'lumotlarni qamrab

³⁹Alloma Tabotaboiy hayoti, faoliyati, ta'limoti. (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida). –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, –2006. –B. 115-116.

olgan shiizmga oid 2 tomli “shia ontologiyasi” va 20 tomli “Al-Mezon” tafsir kitobi kabi bir qator benazir asarlarni ijod etgan⁴⁰.

Shunday qilib, XX asr boshlari va II yarmida Eronda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va madaniy hayotni gullab-yashnagan deb ayta olmaymiz, aksincha, mustamlakachilik zulmi va shoh hukumatining totalitar boshqaruvi xalq boshiga og'ir kunlarni solib turgan. Mamlakatdagi ishsizlik, oziq-ovqat mahsulotlarining tanqisligi aholi turmishini ancha qiyinlashtirgan. Mustamlakachilar tomonidan milliy qadriyatlarning qadrsizlantirilishi xalq ma'naviyatiga og'ir zarba bo'ldi. Alloma Tabotaboij ham shu xalq ichidan yetishib chiqdi va dunyoqarashi shakllanishida mana shu jamiyatning ta'siri katta bo'ldi. U ko'plab falsafiy ruhdagi asarlar yozib qoldirdi.

Muhammad Husayn Tabotaboij dunyoqarashining shakllanishida Sharqning buyuk faylasuflari Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Ibn Miskaveyh va islom dinining shia mazhabi dunyosida nasroniylik dinida Foma Akviniskiy egallagan mavqe kabi o'ringa ega bo'lgan Sadro kabi mutafakkirlarning ilmiy–ma'naviy merosi beqiyos ahamiyatga ega bo'ldi. U ham o'z navbatida bu faylasuflarni islom olamining birinchi raqamli faylasuflari deb hisobladi. Husayn Tabotaboij ustozlar izidan borib, Mutaharriy kabi o'nlab shogirdlar yetishtirdi va jamiyat ma'naviy qiyofasini shakllantirishda o'z hissasini qo'shdi.

3. Tabotaboij ma'naviy merosida ko'tarilgan muommalarning ahamiyati va asarlarining qisqacha tasnifi

Alloma Tabotaboij ma'naviy merosi zalvorli va ilm fanda o'ziga xos ahamiyatga ega. Aslida, hech bir faylasufning dunyoqarashi yoki falsafasi o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Unga yo muhit, yoki jamiyatdagi o'zgarishlar ta'sir ko'rsatadi. Alloma Tabotaboij ijodida ham shu jihatlarni ko'rishimiz mumkin.

⁴⁰ biogrophy-of-allameh tabatabai <http://english.turkcebilgi.com/>

U yashagan davr o'ta murakkab vaziyatlarga boy edi. Eronda Shoh hukumatiga qarshi inqilob shakllandi va u muaffaqiyat bilan amalga oshirildi. Alloma Tabotaboiy ijodiga bu voqealar qaysidir ma'noda tasir ko'rsatdi va bu jarayonlar borishida ham uning o'ziga xos o'rni bor albatta. Tabotaboiy ma'naviy merosi ham jamiyat hayoti, din va falsafa bilan chambarchas bog'liq. U falsafiy asarlarida borliq, jamiyat va bilish muammolarini ko'tarib chiqdi va ularga nisbatan o'z qarashlarini ilgari surdi.

Alloma Tabotaboiy 1920-yillarda Najafi ashrafdan Tabrizga keladi va 10 yil davomida Tabriz shahrida talabalarga dars berish, tadqiqotlar olib borish va asarlar yozish bilan shug'ullanadi. Bu davr Alloma ijodida muhim davr bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki allomaning "Tavhid", "Inson", "Vasoid" (vositalar) va "Viloyat" (ilohiy hukumat, xudo hokimligi) nomli kitob va risolalari aynan ana shu yerda yozildi⁴¹.

Alloma Tabotaboiyning rivoyatlar va hadislar, ularning "Qur'on"i karim tafsiridagi o'rni va ahamiyati to'g'risidagi fikr-mulohazalari "Bahsi Ravoii" (rivoyatlar masalasi) kitobidan joy olgan. Tabotaboiy Muhammad(s.a.v) payg'ambar avlodlari fiqhi bilan ham shug'ullangan.

Keyinchalik, Tabotaboiy Qum Oliy madrasasiga dars berish uchun boradi va ushbu o'quv yurti talabalari uchun falsafadan turli kurslar o'tar, jumladan, "Asfor" va "Shifo" asarlaridan dars beradi. Hatto, so'nggi yillarda madrasadan tashqarida, ba'zi talabalar uchun bir kurs falsafadan xususiy ravishda dars beradi va ushbu xususiy darslar natijasi o'laroq (ushbu darslarda bayon va muhokama qilingan mavzu va masalalarni to'plab) "Bidoyatul-hikmat" va "Nihoyatul-hikmat" nomli ikki kitobni tayyorlab, chop ettirdi.

Alloma tomonidan Qum oliy madrasasining dasturida topilgan kamchiliklardan biri "Qur'on" tafsiri ta'limi borasidagi kamchilik va falsafa ta'limida ham bir talay kamchiliklar edi. Tabotaboiy bu yerda falsafa va tafsirdan dars beradi. U davrlarda falsafa fani unchalik shuhrat topmagan bo'lib, Tabotaboiy falsafa fanini talabalarga o'rgatish borasida boshlagan harakatini

⁴¹ biography-of-allameh-tabatabai <http://english.turkcebilgi.com/>

to'xtatib qo'yishga qaratilgan bir necha urinishlar amalga oshadi. Bunga asosan diniy ulamolar boshchilik qilishgan. Ammo Tabotaboiy Oyatulloh Burujerdiyning(Qum oliy madrasasining boshlig'i) qo'llab-quvvatlashi bilan Qum madrasasida falsafa ta'limini saqlab qoladi.

Alloma Tabotaboiy sheriyat bobida ham istedadli shoirlardan bo'lgan. U Arab she'riyatida Ibn Forizning she'rlari, xususan uning "Nazmuz-suluk" (Suluk she'rlari) deb nomlanuvchi she'rlar to'plamiga qiziqqan, Forsiy she'riyatda Xoja Hofiz Sheroziy "Devon"ini ulug'lagan. Allomaning shoirlik iste'dodi ham bo'lib, zavq-shavq va rohatlanish bilan birga keladigan, hamda ishq va ishtiyoqqa to'la mazmunli irfoniy g'azallar yozgan. Na'muna sifatida she'rlaridan bir to'rtlik keltiramiz:

Mehr-e xubon del-o' din az hame beparvo bo'rd,
Ruh-e shatranj nabo'rd, onche ruh-e zibo bo'rd.
Tu mapandor-ke Majnun sar-e xo'd Majnun gasht,
Az Samak to be suhoyash keshesh-e Laylo bo'rd...

(Tarjimasi: Yaxshilarning mehri shaksiz barchaning qalbini zabt etib, din-u diyonatdan ayirdi; Go'zal bir yuz olib ketgan narsani shohmotning "ruh"i ham olib ketolmasdi, Sen Majnun o'z-o'zidan Majnun bo'lgan deb o'ylama; Uni yerdan osmonga Laylining ishqini olib ketdi...)⁴². Alloma Tabotaboiyning asarlari. Tabotaboiy "Al-Mezon" tafsir kitobidan tashqari ya'na ko'plab asarlar yozib qoldirgan. Allomaning muhim asarlaridan biri "Tavhid" ("Xudoning yagonaligi") kitobi bo'lib, u "Tavhid to'g'risida risola", "Xudoning ismlari to'g'risida risola" va "Xudoning sifatleri to'g'risida risola" deb nomlanuvchi uch risolani o'z ichiga olgan. Ushbu kitob "Vasoit" (Vositalar) risolasi, hamda "Al-inson qabl-ad-dunyo" (Inson to'g'risida, dunyoga kelishidan oldin), "Al-inson fid-dunyo" (Inson hayotlik chog'ida) va "Al-inson ba'd-ad-dunyo" (Inson o'limidan so'ng) deb nomlanuvchi uch risolani o'z ichiga olgan "Inson" kitobi

⁴²Alloma Tabotaboiy hayoti, faoliyati, ta'limoti. (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida). –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, –2006. –B.57.

bilan birgalikda bir butun asar sifatida jamlashtirilib, "Haft risola" (etti risola) nomi bilan mashhur bo'ldi.

Bundan tashqari, Alloma Tabotaboyni insonning bu dunyodan o'tganidan keyingi davriga bag'ishlangan "Al-viloyat", hamda payg'ambarlik va imomlikka bag'ishlangan "An-nabaviya val-imomat" risolalari ham mavjud. Lekin yuqorida eslatib o'tilgan ushbu to'qqiz risolaning barchasi arab tilida yozilgan bo'lib, ular haligacha chop etilmagan.

Allomaning "Islomda "Qur'on"", "Vahiy yoki sirli shuur" va "Islomda shialik" kitoblarida islom dini, "Qur'on"i karim va islomdagi shialik mazhabi to'g'risida umumiy ma'lumotlar berilgan.

Alloma Tabotaboiy qalamiga mansub asarlar sifatida chop etilgan "Shia kitobi" va "Shia mazhabi bugungi dunyoda" kitoblarida allomaning Sarbon universiteti professori Anri Karbon bilan amalga oshirgan suhbatlari jamlangan.

Bulardan tashqari, Tabotaboyni fors tilida yozilgan "Islomiy ibodatlar", "Islom va bugungi dunyo kishisi" va "Islomda hokimiyat" asarlari, hamda arab tilida yozilgan "Al-hukumat fil-islom" (Islomda hokimiyat), "I'joz" (Mo'jizalar to'g'risida risola) va "Aliyyu val-falsafatul-ilahiyyati" (Ali va ilohiyot falsafasi) kitoblari mashhurdir. Allomaning islom faylasuflaridan hisoblangan Mullo Sadro qalamiga mansub "Asfori arba'a" kitobiga, hamda "Kifoyatul-usul" nomli asarga yozgan sharhlari ham uning asarlari jumlasiga kiradi.

Alloma Tabotaboyni asarlaridan yana biri "Sunanun-nabiy" (Payg'ambar sunnatlari) bo'lib, zamona fozillaridan biri hisoblangan Hoji Shayx Hodi Faqihiy tomonidan to'ldirishlar va qo'shimchalar bilan chop etilgan.

Alloma Sayid Muhammad Husayn Tabotaboiy yozgan asarlarning mavzui quyidagicha:

1. "Al-Mezon" tafsir kitobi.

"Qur'on"i karim tafsiriga bag'ishlangan ushbu asar ensiklopedik qimmatga ega bo'lib, oyatlarni tafsir etishda falsafiy, ijtimoiy, tarixiy, hamda rivoyatlar va e'tiqodlarga oid masalalardan keng foydalanilgan. "Al-Mezon"dagi tafsir uslubi oyatlarni oyatlar bilan tafsir qilishdir.

2."Bidoyatul-hikma" (Boshlang'ich falsafa, falsafa asoslari, falsafaga kirish).

Bu kitob Shahid Qudusiyning iltimosiga ko'ra, Qum shahridagi "Haqqoniy" madrasasi talabalariga falsafadan umumiy, qisqacha bir kurs o'tish uchun o'quv qo'llanmasi sifatida yozilgan.

3."Nihoyatul-hikma" (To'liq falsafa kursi).

Bu kitob to'liq falsafa kursini o'tashni istovchilar uchun yozilgan bo'lib, unda falsafa masalalari keng va chuqur tarzda aks ettirilgan. Shu kungacha ushbu asarga o'nlab sharhlar va izohlar yozilgan bo'lib, u bir necha bor, bir qancha tillarga tarjima qilingan.

4."Usule falsafa va ravishe realism" (Falsafa asoslari va realizm uslubi).

Alloma Tabotaboiyning falsafiy qarashlari, hamda zamon va makon ehtiyojlaridan kelib chiqib yozilgan bu asar o'sha davrlarda Eronda tarqala boshlagan materializmning oldini olishga qaratilgandir. Ushbu kitobda realizm va idealizm, ilm va idrok, qadim va hudus (azaldan mavjud bo'lgan narsalar va keyinchalik yaratilgan narsalar), Xudoning birligi va ko'plik olami, Xudo va uning kamoloti, qazo va qadar va boshqa ko'plab masalalar tahlil qilingan.

5."Kifoya" asariga sharhlar.

6."Shia dar islom" (Islomda shialik).

Ushbu kitobda shialik nazariyasi va amaliyoti to'g'risida batafsil ma'lumotlar sodda tilda berilgan. Unda shialikning vujudga kelishi, uning turli oqimlari, o'n ikki imom borasidagi e'tiqodlar, yakkaxudolik, payg'ambarlik va boshqalar to'g'risida fikr-mulohaza yuritilgan. Bu kitob ingliz tiliga ham tarjima qilingan.

7."Majmuati muzokiroat bo pro'fesur Honri Karbo'n" (Professor Henri Karbon bilan suhbatlar to'plami).

Bu kitobda Alloma Tabotaboiyning Fransiyaning Sarbon universiteti professori, shialikni qabul qilgan olim Henri Karbon bilan amalga oshirgan suhbatlari matni jamlangan. Ushbu suhbatlarda shialikning vujudga kelish tarixi, kalom, tafsir va falsafa ilmlari, shialik va tasavvuf o'rtasidagi munosabat,

Xudoning birligi va sifatлари, qazo va qadar va boshqa masalalar to'g'risida fikr yuritilgan.

8."Xulosayi taolimi islomiy" (Islom ta'limoti borasida umumiy saboqlar).

Ushbu kitobda din, e'tiqod, axloq, Xudoni tanish, Xudoning sifatлари, payg'ambarlar, islom payg'ambari hayoti, din ahkomlari va farzlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

9."Ravobiti ijtimoi' dar islom" (Islomda ijtimoiy munosabatlar).

Inson va jamiyat, inson va uning ijtimoiy rivojlanishi, ijtimoiy hayot asosi, islomda erkinlik, islom olami chegaralari va shu kabilar ushbu kitobning asosiy mavzulari hisoblanadi.

10."Aqoyid va dasturhoyi diniy" (Diniy aqidalar va ko'rsatmalar).

Mazkur kitob musulmon kishisi bilishi va amal etishi lozim bo'lgan diniy e'tiqodlar va ko'rsatmalardan iborat. Din tushunchasi, Xudo bilan uning yaratganlari o'rtasidagi bog'liqlik, dinlar tarixi, payg'ambarlar, islom payg'ambarining hayoti va faoliyati, shialik imomlari, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan axloqiy masalalar, fiqhga oid masalalar va hokazolar ushbu kitobda ko'rib o'tilgan asosiy mavzulardan hisoblanadi.

11."Barrasihoyi islomiy" (Islomiy tadqiqotlar).

Alloma Tabotaboyniing islomning turli yo'nalish va mavzularida olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasida yuzaga kelgan maqolalar to'plamidan iborat bo'lib, uch jildda chop etilgan ushbu asar ensiklopedik qimmatga va ahamiyatga egadir. Bu to'plamning birinchi jildida "Qur'on" va yashash uchun kurash, islomda ijti hod va taqlid, Iso Masih va Injil qissasi, spirtli ichimliklar va sudxo'rlik, islomda ayolning o'rni va mavqei, shia tarixi, islom va boshqa dinlar, vahiy va din, payg'ambarlar va imomlar, mo'jiza va shuningdek, falsafaga oid bir qancha masalalarga aloqador maqolalar va risolalar joy olgan. To'plamning ikkinchi jildi islom va bugungi kun kishisining ehtiyojlari, nafs to'g'risida ilmiy va falsafiy mulohazalar, ko'zga ko'rinmas va qo'l bilan ushlab bo'lmas narsalar (arvoh)ning mavjudligiga dalil-isbotlar, azaliyat (azaldan mavjud bo'lgan, ya'ni Xudo) vujudining birligi (vahdati vujudi

azaliyat) va moddaning o'z zotiga ko'ra qanchalik qadimiyligi, inson shaxsiyati va qiyomat kuni, borliq, mavjudotni yaratishdan maqsad, ruhlarning tanosuxi (ko'chib yurishi) va qaytib kelishi, imomlik ilmi, mavjudlik va mohiyat, islomning ijtimoiy masalalari, mo'jiza va shu kabi masalalarga bag'ishlangan maqolalar va risolalar jamlanmasidan iborat. Mazkur to'planning uchinchi jildidan joy olgan maqolalar va risolalar zaruriy e'tiqodlar va materialistlar tomonidan bildirilgan shubhalarga javob berishga bag'ishlangan.

12. "Omuzishi din" (Din ta'limi).

O'rta maktab o'quvchilari uchun yozilgan va jami o'n yetti dars uchun tuzilgan materiallardan iborat bo'lgan ushbu qo'llanmada yakkaxudolik, payg'ambarlik, imomlik, adolat va narigi dunyo to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, mazkur qo'llanmada islom ahkomlari va islomiy odob-axloq qoidalari yosh bolalar uchun tushunarli tarzda bayon etilgan.

13. "Inson qabl az dunyo" (Inson dunyoga kelishidan oldin) risolasi.

14. "Inson dar dunyo" (Inson hayotlik paytida) risolasi.

15. "Inson ba'd az dunyo" (Inson dunyodan o'tganidan so'ng) risolasi.

Boshida arab tilida yozilib, uchta alohida-alohida risoladan iborat bo'lgan bu asar keyinchalik fors tiliga tarjima qilinib, "Inson boshlanishdan oxirga qadar" nomli yagona asar shaklida nashr etilgan. Bu asarda insonning uch olamdagi (tug'ilishdan oldin, hayotlik payti va dunyodan o'tganidan so'nggi) sayri bilan bog'liq masalalar keng yoritib berilgan. Jumladan, buyruq va aql, buyruq olamining qaror topishi, ruh va farishtalar, odamning tushishi, umumiy hidoyat, o'lim va ajal, barzax (o'lim va qiyomat kuni o'rtasidagi muddat), qilingan amallarni umumlashtirish, Isrofil farishta burg'usining chalinishi, tarozi va Sirot ko'prigi, jazo va hisob-kitob, shafolat, jannat va do'zax va shu kabi masalalar bayoni mazkur asar mavzusining asosini tashkil etadi.

16. "Risolayi quvva va fe'l" (Kuch va harakat to'g'risida risola).

17. "Risolae dar isboti zot" (Zotning isboti to'g'risida risola).

18. "Risolae dar sifot" (Xudoning sifatlari to'g'risida risola).

19. "Risolae dar af'oli Xudo ta'olo" (Xudo ta'olo fe'llari to'g'risida risola).

Bu kitobda Xudoning fe'l (xatti-harakat) jihatidan yagona ekanligi, taqdirga ishonish, qazo va qadar (Xudo tomonidan belgilangan taqdir) va shu kabi masalalar bayoni joy olgan.

20."Risolae dar vasoit" (Vositalar to'g'risida risola).

Ushbu kitobda Xudo va tabiatshunoslik fani o'rtasidagi mavjud vositalar va bog'lanishlar to'g'risida fikr-mulohaza yuritilgan.

21."Risolae dar nubuvvat" (Payg'ambarlik to'g'risida risola).

Umumiy payg'ambarlik va alohida payg'ambarlik turlari va shuningdek, Muhammad (s.a.v.) payg'ambarligi ushbu kitobning asosiy mavzusini tashkil etadi.

22."Risolae dar viloyat" (Xudoning eng oliy hukmdor ekanligi va bu dunyoning ilohiy hukumatdan iborat ekanligi to'g'risida risola).

23."Risolae dar mushtaqqot" (Hosilalar (biror bir manbadan vujudga kelgan, yaratilgan, hosil bo'lgan narsalar) to'g'risida risola).

24."Risolae dar burxon" (Dalil-isbotlar to'g'risida risola).

25."Risolae dar mug'olita" (Paralogizm to'g'risida risola).

26."Risolae dar tarkib" (O'zaro qo'shilish (singish) to'g'risida risola).

27."Risolae dar tahlil" (O'zaro ajralish (bo'linish) to'g'rida risola).

28."Risolae dar e'tiboriyyot" (Mo'tabarlik to'g'risida risola).

29."Risolayi "Qur'on" dar islom" (Islomda "Qur'on" to'g'risida risola).

30."Risolae dar hukumati islomiy" (Islom hukumati to'g'risida risola).

31."Muhokimot bayni du mukotibot" (Ikki o'zaro yozishma (xat yozishuv, xat almashuv) orasidagi muhokamalar).

Ushbu kitobda Alloma Tabotaboyni Sayyid Axmad Karbaloiy va faylasuf Muhammad Husayn Kamponiy o'rtasida amalga oshgan o'zaro yozishmalar to'g'risidagi fikr-mulohazalari joy olgan.

32."Ta'limoti diniy" (Diniy ta'limot).

33."Ma'naviyati tashayyu" (Shia ma'naviyati).

34."Risolae dar olami g'ayb" (G'ayb olami to'g'risida risola).

35."Vahiy yo shuuri marmuz" (Vahiy, yoxud sirli shuur).

- 36."Pursish va posux" (Savollar va javoblar).
- 37."Urjuzayi fin-nahv" (Arab tili sintaksisi to'g'risida she'riy risola).
- 38."Urjuzayi fis-sarf" (Arab tili morfologiyasi to'g'risida she'riy risola).
- 39."Urjuzayi fil-xatt" (Arab yozuvi to'g'risida she'riy risola).
- 40."Devoni she'ri forsiy" (Forscha she'rlar devoni).
- 41."Ali va falsafayi ilohiy" (Ali va ilohiy falsafa).
- 42."Sunanun-nabiy" (payg'ambar sunnatlari).
- 43."Lubbul-lubob" (Saylanma).

Bu kitobdan Alloma Tabotaboyni Qum oliy madrasasi ustozlari va olimlari uchun axloq (etika) faniga oid mavzularda o'qigan ma'ruzalari joy olgan.

- 44."Risolae dar tavhidi zotiy" (Zotning yagonaligi to'g'risida risola).
- 45."Risolae dar asmo'i Xudo ta'olo" (Xudo ta'oloning ismlari to'g'risida risola).
- 46."Hoshiya bar Asfor" ("Asfor" asariga sharhlar)⁴³.

Alloma "Al-Mezon" tafsir kitobini yozish davomida, bira to'la ushbu tafsir saboqlaridan Qum Oliy madrasasi talabalariga dars berib borgan. Ushbu tafsir kitobining eng birinchi va eng ustun tamoyili oyatlarni oyatlar bilan tafsir qilinganligidir. Ya'ni, bunda "Qur'on" "Qur'on"ning o'zi bilan tafsir qilinadi. Zero, rivoyatlarga ko'ra, "innal-Qur'ana yufassaru ba'zuhu ba'zan", demakki, "Qur'on"ning barcha oyatlari bir manbadan nozil etilgandirlar. Ular yagona bir kalom bo'lib, ayrim oyatlarning boshqa bir oyatlardan oldinroq nozil etilganligining oyatdan kelib chiqadigan umumiy ma'noga dahli yo'q. Shunga ko'ra, butun "Qur'on" yagona bir kalom va yagona bir xitob hukmida bo'lib, yagona mutakallim tomonidan aytilgandir.

Uning fikricha, "Qur'on"dagi har bir jumla undagi boshqa jumladan nishona va ularning tafsirlovchisi bo'la oladi. Shunga ko'ra, agar ayrim oyatlarning ma'nolari sirli va yashirin tuyulsa, ularni ana shu mavzuga oid

⁴³ Alloma Tabotaboyni hayoti, faoliyati, ta'limoti. (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida). –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, –2006. –B.42-44.

boshqa oyatlar bilan solishtirish va ularni birgalikda o'rganish orqali ma'nolardagi ushbu sirlilik va yashirinlikni ochish mumkin.

Umuman olib qaraganda, Tabotaboiiy o'zining ma'naviy merosida ilgari surgan g'oyalari o'sha paytda Eron hududida mavjud ijtimoiy jarayonlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Mustamlakachilarning bu hududda olib borgan siyosati xalqning ma'naviy qadriyatlariga jiddiy xavf solardi, shunday sharoitda mutafakkir jarayonlarni to'g'ri baholay ola bildi. Uning asarlarida diniy qadriyatlar bilan bir qatorda dunyoviy-falsafiy fikrlar va insonning oliy qadriyat ekanligi borasidagi gumanistik g'oyalar ham yetarlicha o'rin olgan.

I bob bo'yicha xulosa

-Tabotaboiiy yashagan davr jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayoti og'ir tanazzulga botgan, xalq harakatlari, hokimiyatga qarshi kurashlar davomiy sodir etib turilgan va ma'naviy olamda g'arblashish g'oyalari kuchaygan, ma'naviy qadriyatlarning qadrsizlanish jarayoni ortgan davr bo'lgan. Bunday muammoli vaziyatlarga to'g'ri baho bergan alloma jamiyatni qutqarishga harakat qilgan va bunga qisman erishgan ham. Biz buni uning ta'limini olgan shogirdi Mutaharriy faoliyatida misolida ko'rishimiz mumkin.

-Biz Husayn Tabotaboiiyning ma'naviy merosini umumiy 3 qismga bo'lib o'rganish mumkin degan xulosaga keldik, ular quyidagilar:

- Sof falsafiy mavzularga bag'ishlangan asarlari;
- Diniy-falsafiy va tarixiy ruhdagi asarlari;
- Tilshunoslik sohasiga mansub bo'lgan asarlar majmuasi.

-Ma'naviy merosida ilgari surilgan muammolarning katta qismi falsafiy ruhda bo'lib, mutafakkir bu kabi muammolarga nisbatan o'z nuqtai-nazarini ilmiy tarzda mukammal bayon etganligini kuzatamiz. Bu holat diniy tarbiya olgan alloma ijodi dunyoviy dunyoqarash yuqori ekanligidan dalolat beradi.

-Tabotaboiiy ma'naviy merosidan o'rin olgan muammolar yechimining ahamiyati shundaki, u dunyoqarashi shakllanayotgan jamiyatning muammolarini

ko'ra olgan, g'arb madaniyatining salbiy jihatlaridan o'z xalqini mudofaa etishga harakat qilganidadir. Asarlarida materializm ta'limotining salbiy jabhalarini ochib bera olgan. Muhammad Husayn Tabotabo'y dunyoqarashining shakllanishida Sharqning buyuk faylasuflari Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Ibn Miskaveyh va islom dinining shia mazhabi dunyosida nasroniylik dinida Foma Akviniskiy egallagan mavqe kabi o'ringa ega bo'lgan Sadro kabi mutafakkirlarning ilmiy–ma'naviy merosi beqiyos ahamiyatga ega bo'lganligiga guvoh bo'lamiz.

II BOB. TABOTABOIYNING FALSAFIY DUNYOQARASHI

1. Tabotaboiyning borliq, irfon masalalariga munosabati, ayollarning jamiyatdagi o'рни va vazifasi borasidagi qarashlari

Alloma Tabotaboiy Eronda aristokratlar hayotiga xos bo'lgan muhitga va ilmiy jamoat o'rtasidagi an'anaviy mistitsizmga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. U mamlakat jamoatchiligidagi ziyolilar vakillari qatlami ichidan yangi intellektual elitani yaratishga urindi, jumladan, u islom falsafasi va an'anaviy bilimlar bilan tanishtirdi, eng muhimi, islom falsafasi va an'anaviy bilimlarni 20- yuz yillikning eng nufuzli, eng ilg'or global g'oyalar, dunyoviy tafakkurlar bilan taqqosladi, qiyosiy tahlil etdi. Bu yo'lda unga shogirdlaridan Mashhad Universitetidan Sayyid Jaloliddin Ashtiyaniy va Tehron Universitetidan Murtazo Mutahhariylar hamfikrlik bilan ergashdilar.

Falsafani o'rganish, undagi borliq va irfon masalasida Tabotaboiy "Ilm oluvchilar din a'immai tohirin alayhumussallam (shialarning 12 imomi nazarda tutilmoqda) axbori va rivoyatlarini to'liq o'rganib, undan so'ng falsafani o'qisalar yaxshiroq" deb ta'kidlovchi ko'pchilikning ushbu fikriga qarshi bo'lgan va bu borada shunday deydi: "Bu so'zning ma'nosi o'sha "Kafono kitobullah" dir. Bizning rivoyatlarimiz chuqur va aniq aqliy (fikir mulohazaga asoslangan) masalalar bilan to'la bo'lib, falsafiy va aqliy dalillarga asoslangandir. Falsafa va mantiqni o'qimasdan aqliy rivojlanish (fikir-mulohaza, o'y fikir orqali haqiqatni bilishdagi rivojlanish), xuddi o'zi hisoblanuvchi dalil topish va qiyoslash usullarini idrok etmasdan turib inson qanday qilib rivoyatlarning ushbu bepoyon dengiziga sho'ng'iy oladi va taqlid (ergashish) va shak (shubhalanish) masalalaridan xabarsiz bo'la turib, qanday qilib e'tiqod masalalarida ularga (ya'ni, 12 imom axborlari va rivoyatlariga) nisbatan ishonch hosil qila oladi? A'immayi Mas'uminning turli shogirdlari bo'lgan va ular turli, bir-biridan farqlanuvchi bayonotlar berishgan. Ularning ba'zilari sodda va omma uchun tushunarlidir. Lekin ularning aqid asoslari va tavhid (xudoning yagonaligi) masalalari borasida bergan bayonotlari murakkab va tushunishi

qiyin bo'lib, munozara va dalillashtirish (borliqni bilish masalasida o'zaro fikr almashish, bahs-munozara yuritish va bu borada dalil isbotlar keltirish) sohasi mutaxassislari hisoblangan o'z yaqinlari, do'stlari bo'lgan alohida kishilar uchun aytilgandir. Ana o'sha shogirdlar dalil isbotlarga asoslangan sillogizmga tartib berish asosida ularning fikriga qarshi bo'lganlar bilan bahsga kirishadilar. Bunaqada qanday qilib aqlga, aql masalalariga va yaqinlashtiruvchi va istisno qiluvchi qiyoslarga tartib berishga tayanmasdan turib ishonch hosil qilish mumkin⁴⁴

Falsafa ilmiga oid mavzular yuzasidan fikrlashilganda dalillar doirasidan chiqib ketmagan, bu borada paralogistik (yolg'on xulosaga asoslangan), nasihatomez, safsatadan iborat bo'lgan, tortishuv va bahslarga asoslangan nuqtai-nazarlarni dalillarga asoslangan sillogizmdan yaxshigina farqlarga ajrata ola bilgan.

Alloma Tabotabo'iy falsafa, tafsir va axborni bir-biri bilan aralashtirib yuborish, dalil topa olmasdan masalani yechishga ojizlik qilib qolgan, nochor rivoyatlar va tafsirga suyanib, ularga asoslangan holda o'z dalillarini to'liqlashtirmoqchi bo'lgan kishilarni inkor etgan.

Alloma falsafiy qarashlarida Mullo Muhsin Fayz Koshoniy bilan bir yo'nalishda bo'lgan. U Mullo Muhsin Fayz Koshoniy to'g'risida shunday deydi: "Bu zot ilmda qomusiy bo'lib, islom dunyosida qomusiylikda bundaylar kam topiladi. Shu narsa kuzatiladi-ki, u kishi ilmga mustaqil ravishda kirib kelib, turli ilmlar va fanlarni bir-biri bilan aralashtirib yubormaganlar. Rivoyatlarga asoslangan tafsir usullaridan bo'lishi "sofiy", "asfo" va "musaffo" tafsirida hech vaqt falsafa, irfon va mushohada masalalarini aralashtirmas edi. Axbor bobida u kishining "Vofiy" kitobini oqigan odam bunda sof axbor bayon etilganligini ko'rar edi. Uning axbor masalasi bayonida falsafaga oid masalalardan birortasi ham eslatilmaganligini ko'rgan kishi uni umuman falsafa ilmi bilan tanish emas, deb o'ylashi mumkin edi. U garchi falsafada ustoz, hamda Sadrul-

⁴⁴ نظری به زندگی و آرای علامه طباطبائی "، مسعود امید ، سروش ، تهران ۱۳۸۲، ص ۳۴
("Nazariy be zendegi va barxi oro-e Allome Tabotabo'iy" , Mas'ud O'mid, so'rush, Tehron 1382, sahife-e 34.)

mutaallihinning(Mullo Sadroning) taniqli shogirdlaridan bo'lsada, irfon va estetika borasida yozgan kitoblarida ham xuddi ana shu uslub doirasidan chiqib ketmas va mavzudan uzoqlashmas edi"⁴⁵.

Alloma Abu Ali ibn Sinoni ulug'lagan va uni falsafaga oid dalillar keltirishda Sadrul-mutaallihindan kuchliroq deb bilgan. Lekin Sadrulmutaallihin va uning Yunon falsafasini o'zgartirishdagi falsafiy uslubi, falsafada yaratgan yangi uslublari, jumladan, "Asolatul-vujud", "vahdat va tashkik dar vujud" kabi yangi nazariyalari va uning tomonidan yaratilgan ushbu yangi nazariyalar asosida "imkoni sharif", "ittihodi oqil va ma'qul", "harakati javhariya", "hudusi zamoniyyi olam" kabi masalalarning vujudga kelishi, hamda u tomonidan yaratilgan "basitul-haqiqati qullul-ashyo" qoidasiga, shuningdek, uning nuqtai-nazarlariga o'ta yuksak baho bergan. Bu yerda shu narsani ham e'tiborga olish kerakki, Tabotaboiiy Mullo Sadroning falsafasiga ko'proq tayangan va ruhoniyy inson bo'lgan. Shuning uchun ham Sadroga ko'proq ergashishi tabiiy bir hol edi albatta.

Sadro o'z kitoblarida, jumladan, "Asfori arba'a" (to'rt safar), "Mabda' va maod" (tug'ilish va o'lish), "Arshiiyya" (Arsh to'g'risida risola) va juda ko'plab boshqa risolalarida shu narsani isbot qilgan ediki, voqelik aks etgan shariat (qonunlari) fikriy mulohaza(o'ylash, fikrlash orqali borliq to'g'risidagi haqiqatni izlash) va ichki mushohada (qalb ko'zi bilan kuzatish asosida borliq to'g'risidagi haqiqatni izlash) o'rtasida farq yo'q deb bilib, ushbu uch manba bir sarchashmadan boshlanadi (ya'ni, ushbu har uch uslubning kelib chiqish sarchashmasi bitta), biri boshqasini tasdiqlaydi va to'ldiradi. Ushbu faylasufning botin (o'y-mulohazalar orqali haqiqatni bilish ilmi) olamiga, falsafa olamiga va shariat olamiga ko'rsatgan eng katta xizmati ana shu edi. Ushbu nazariya poydevori va ildizlarini muallimus-soniy Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Shayx Ishroq, Xoja Nasiriddin Tusiy, Shamsiddin Taraka asarlarida kuzatish mumkin bo'lsa-da, ushbu muhim ishni poyoniga yetkazgan, badiiyy uslubda

⁴⁵Alloma Tabotaboiiy hayoti, faoliyati, ta'limoti. (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida). -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, -2006, -B.33-34.

bayon qilib bera olgan kishi ana shu shaxs bo'ladi, deb bilgan. Garchi alloma Sadrul-mutaallihinning ba'zi dalillari va fikrlarini bahsli deb bilsa-da, uni islom falsafasining Abu Ali ibn Sino va Abu Nasr Forobiy kabi birinchi darajali faylasuflari qatoriga qo'yadi. Alloma Tabotaboyni fikriga ko'ra, Xoja Nasiriddin, Bahmanyor, Ibn Rushd va Ibn Taraka islom falsafasining ikkinchi darajali faylasuflari sarasiga kiradilar.

Alloma Tabotaboiy G'arb va Sharq falsafasini birlashtirish yo'lida Sharq va G'arb falsafasini o'zaro qiyoslashtirish orqali ulardan umumiy bir xulosa chiqarishga uringan. Alloma bu borada shunga amin ediki, agar bu to'g'ridagi bahslar to'g'ri dalil va qiyoslarga asoslanadigan bo'lsa, ushbu ikki falsafadan ikki turli xil xulosa chiqishi mumkin emas. Shundan kelib chiqqan holda, alloma Sharq va G'arb falsafasi o'rtasidagi ixtilofning sababini aniqlash va bu boradagi bo'sh, hamda asoslanmagan o'rinlarni ko'rsatib berish lozimligini ta'kidlaydi.

Alloma Tabotaboyni fikricha, garchi amaliy fanlar aniq tajribaga asoslangan bo'lsada, ushbu tajribaning ildizi va asl natijasini tushunib etish, uning kelib chiqish o'ri va sabablarini aniqlash lozim. Masalan, quyidagilar aniqlanishi lozim: issiqlikda qanday sabab borki, quvvat va sintetik energiyani vujudga keltiradi va mexanik uskunani harakatga keltiradi? Yoki aksincha, sintetik energiyada qanday energiya borki, undan issiqlik hamda issiqlik energiyasi olish mumkin? Shuningdek, elektr energiyasida qanday sabab borki, uni ish-harakatga aylantirib, undan foydalanish, masalan, mashina g'ildiraklarini aylantirish mumkin? Yoki aksincha, mexanika energiyada qanday sabab borki, mashina g'ildiraklarini harakatga keltirib, dinamo-mashina vositasida undan elektr energiyani olish mumkin? Va nihoyat, yana quyidagilarni aniqlash kerak: Aniq formulalar asosida ularning ayrim miqdori ma'lum miqdordagi boshqa energiyaga aylanuvchi ushbu barcha energiyadan energiyaga aylanish holatlarida qanday manba va qanday asos mavjud? Ular o'rtasida qanday aloqa va qanday umumiylik mavjud. Yana shuningdek, shu holat ham aniqlanishi, unga aniqlik kiritilishi lozimki, amaliy masalalarni isbotlash tajriba-amaliyot asosida amalga oshadi va u aqliy tafakkur hamda, dalil-isbotga falsafiy

masalalar va aqliy dalillashtirishlarga zid emas. Ularning har biri o'z yo'lidan borib, bir-birlariga to'sqinlik qilmaydilar.

Alloma xuddi shu maqsadda maxsus dars-munozara yig'inlari uyushtirardi. Ushbu darslarda bir necha talaba qatnashardi. Mazkur dars-munozara yig'inlari bir qancha vaqt davom etdi va ularning natijasi o'laroq "Metafizika", deb nomlangan bir to'plam chiqarildi. Bu dars-munozara yig'inlarida qatnashuvchilarning soni kundan-kunga ortib borgan. Nihoyat, ushbu dars-munozaralarda irod etilgan ma'ruzalar va amalga oshgan bahs-munozaralarni o'zida jam etgan, juda ko'p axloqiy masalalar bilan bog'liq ilmiy muammolarni yechib bergan "Falsafa asoslari va realizm uslubi", deb nomlangan yirik bir kitob nashrga tayyorlanib, allomaning yaqin shogirdlaridan biri Murtazo Mutahharriy sharhi va izohi bilan to'rt jildda chop etildi⁴⁶.

Alloma Tabotaboyni irfoniy maslagi Oyatulloh Sayyidul-orifin Hoji Mirzo Ali Og'oyi Qozining maslagidan bo'lgan. Shuningdek, Qozi tarbiya uslubida ustoz Og'o Sayyid Ahmad Karbaloiy Tehroniyni, o'z navbatida u esa, o'zining ustoz Oxund Mullo Husaynquli Darjaziniy Hamadoniya Ajma'inining maslagidan bo'lib, bu maslak nafs ma'rifatidan iborat edi. Ushbu maslak visol va suvrat olamidan, nafs olamidan o'tgandan keyingi olam bo'lib, unda ma'rifat sultonining namoyon bo'lishi solihda nafsoniyat (nafs olami)dan hech bir asar qolmaganidan so'nggina yuz beradi. Ushbu ma'noning hosil bo'lish shartlaridan biri muroqaba bo'lib, har bir bosqich va har bir maqomda o'sha bosqich va maqom odoblari va shartlariga rioya qilmoq lozim.

Umumiy qilib aytganda, turli maqomlarda turlicha xususiyat va ko'rinishlarga ega bo'ladigan muroqaba quyidagi besh narsadan iborat:

Samtu ju'u sahr uzzlatu zikri badavom.

Notamomoni jahonro kunad in panji tamom.

(Mazmuni: samt (sukut), ju' (ochlik), sahr (bedorlik), uzlat va doimiy zikrdan iborat besh narsa bu dunyo kamchiliklarini bartaraf etgay). Alloma

⁴⁶ نظری به زندگی و آرای علامه طباطبائی "، مسعود امید ، سروش ، تهران ۱۳۸۲ ، ص ۳۹
barxi oro-e Allome Tabotaboiy", Mas'ud O'mid, so'rush, Tehron 1382, sahife-e 29.)

Tabotaboiiy Ibn Miskaveyhning "Tahoratul-a'roq", Hoji Mullo Mahdiy Naroqiyniing "Jomi'us-saodat" va Mullo Muhsin Fayz Koshoniyniing "Ihyoul-ihyo" kitoblarini axloq(etika)faniga mansub eng yaxshi asarlar, deb bilgan.

Alloma Tabotaboiiy Ibn Miskaveyhning "Tahoratul-a'roq" asarida keltirilgan fikrlar Hind olimlari asarlaridan olingan, degan da'voni rad etib, shunday degan edi: "Bu da'vo noto'g'ri. Chunki Ibn Miskaveyh Abu Ali ibn Sinoning zamondoshlaridan bo'lib, to'liq yunon falsafasiga asoslangan bir kitob ham yozgan, uning asarlarida oldinga surilgan qarashlarning hind falsafasiga umuman aloqasi yo'q. Uning axloq (etika) faniga oid "Taxoratul- a'roq" kitobida ham hech qanaqa hind manbasi ta'siri ko'zga tashlanmaydi". Bu fikrlardan allomaning sharq faylasuflari ijodini keng ko'lamda tadqiq etganini ko'rishimiz mumkin.

Alloma Tabotaboiiyniing shogirdlaridan biri bo'lmish Javodiy Omuliy allomaning irfoniyl maqomi to'g'risida shunday deydi: "Alloma Tabotaboiiy ham nazariy irfonda mutajalliyl va ham amaliy irfonda mutaxalliyl edilar"⁴⁷.

Nazariy irfon to'g'risida yozgan kishilar ushbu ilmni falsafadan yuqoriroq va oliyroq deb talqin qilishgan. Falsafaning mavzusi vujudiy bo'lib, tabiiyl ilmlar yoki matematikaga ixtisoslashmaslik sharti bilan mavjud bo'ladi, ya'ni "Vujud ba sharti lo"⁴⁸. Ammo irfonning mavzusi "Vujudi lo ba shart"⁴⁹bo'lib, "Vujudi lo ba shart" ning "Vujud ba sharti lo"dan kengroqligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, nazariy irfon ilohiy falsafadan alohida va undan oliyroqdir. Lekin amaliy bo'lgan axloq ilmi nazariy falsafa oldida qarzdordir. Axloq ilmi nafsni tarbiyalash xususiyatlarini muhokama qiladi va o'rganadi. Ilohiy falsafada nafsning mohiyati va nafsning alohidaligi isbotlanishi lozim. Shundan so'ng amaliy falsafa (axloq ilmi)da nafsni tarbiyalash borasida so'z yuritiladi. Shunga ko'ra, axloq ilohiy falsafa oldida qarzdordir. Irfon esa ana shu falsafadan yuqoriroqdir. Allomaning irfoniyl maqomini ana shu "mushohada orqali

⁴⁷Alloma Tabotaboiiy hayoti, faoliyati, ta'limoti. (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida). –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, –2006. –B. 70.

⁴⁸Izoh: Shartli bilan borlik, mavjudlik.

⁴⁹Izoh: Shartsiz borlik, mavjudlik

anglash"dan qidirmoq lozim. U vujudni "lo ba shart", ya'ni vojib, boshqa narsalarni esa sarob, deb biladi. Uning fikricha, u dunyoda ko'radigan barcha narsalar Xudo va uning mazohiri (ramzi, aksi, borliqdagi ko'rinishi)dir. U barcha narsada Xudoning oyatlari, ilohiy foydalar va haq tajalliysini ko'radi. Bu dunyodagi xech bir narsani mustaqil, deb bilmaydi va ana shu nazariy irfon qarashini izohlab beradi. Alloma amal maqomida o'sha qarash va amaliy aqlni ham parvozga keltiradi. Agar amaliy aql o'z avjiga yetsa, nazariy falsafadan keng izohlanadigan va tayinlanadigan axloq ham shunday insonda kurtak yozib, ochiladi. Allomaning irfoniy maqomi shunday ediki, g'ayri vojibni har ne bo'lsa oyatning o'zi deb bilardi va bu oyatda bo'lmoqlikda hech bir mustaqillikni ko'rmasdi. Ushbu oliy "mushohada orqali anglash" oliy intilishlarni o'z ichiga qamrab olardi.

Alloma Tabotaboiy shunday fikrda edi: "To'g'ri irfon va to'liq dalil-isbot Qur'on xizmatidadirlar. Irfon hech qachon Qur'ondan ayro emas. Qur'onga qarama-qarshi qo'yiladigan irfon botil mushohadalar va xom hayoldan boshqa narsa emas". Shuningdek, allomaning fikricha, Qur'onga xizmat qiladigan to'liq (to'la-to'kis) dalil-isbot va haqiqiy irfon tariqati solihlari, ko'ngil ahli, mutafakkirlar va ma'naviyat yo'lidan borayotganlarni so'nggi maqsadga yetkazadi, deb hisoblagan.

Alloma Tabotaboiy o'z risolalaridan birida Hazrat Alining quyidagi so'zlarini keltiradi: "Haqiqatdan ham Xudo nimadandir pinhon bo'lish, yoki nimadir undan yashirin bo'lishligi kabi narsalardan yuqoriroqdir".

Alloma Muso bin Ja'farning quyidagi so'zlarini ham shu o'rinda eslatib o'tadi: "Xudo va uning yaratgani o'rtasida yaratgandan boshqa parda yo'qdir. Xudo garchi ularning o'rtasida parda bo'lmasa-da pinhondir va shuningdek, Xudo uning biror-bir ishida yashirinlik bo'lmasa-da, o'zi ko'zga ko'rinmaydir"⁵⁰. Alloma Tabotaboiy shularga asoslanib yozadi: "Bu rivoyatda ikki narsaning jam bo'lganini ko'rish mumkin. Biri Xudoning narsalar

⁵⁰Alloma Tabotaboiy hayoti, faoliyati, ta'limoti. (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida). –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, –2006. –B. 71-72.

vositasida zuhuri va tajalliysi (ko'zga tashlanishi va jilolanishi, ko'rinishi va aks etishi), ikkinchisi esa, Xudoning o'sha narsalar vositasida yashirin bo'lishidir. Bu bir latif ma'no bo'lib, shu narsaga qaytishdirmek, uning (Xudoning) yashirinligi zuhur shiddati natijasida yuz beradi. Xudoning yagonaligi til bilan ta'riflash darajasidan ham yuqoriroq bir darajada bo'lib, bu to'g'rida shunday hadis keladi: "Xudoning yagonaligi to'g'risida savol beruvchi kishi nodondir, bunday savolga javob berguvchi kishi esa mushrikdir".

E'tiqod borasida Tabotaboiiy o'zining "Islom da'vati asosi" maqalasida shunday yozadi: "Inson Xudo tomonidan unga berilgan ob'ektivlik bilan o'zining Xudoga bog'liqligini o'zida mustaqillikning bo'lmaganligida kuzatmog'i, o'z hayotidagi vazifa va burchlarini yaratish dastgohi va borliq olam (ya'ni, Xudoning irodasi va u tomonidan yaratilgan borliq-olam ehtiyojlari va talablari)dan kelib chiqqan holda belgilamog'i, Xudo tomonidan uning uchun tayyorlangan yo'lni bosib o'tmog'i lozim. Dunyodagi barcha kishilar Xudo tomonidan parvarishga muxtoj bo'ladilar. Shuning uchun ular o'zlarini Xudoning bandasi deb bilmoqliklari, inson uchun Xudo tomonidan buyurilgan narsalarni bajarmoqliklari va ularga ergashmoqlari lozim".

Alloma "Xudoga yetishmoq kerak" deb nomlangan maqolasida shunday deydi: "Inson uning vujudga kelish sabablarini vujudga keltiruvchi, insonni yaratib, tarbiyalab, idora etuvchi yagona Xudoga ko'ngil bog'lamog'i, boshqa barcha narsalardan uzib-uzib, unga(Xudoga) bog'lanmog'i lozim. Bunday diniy ta'lim-tarbiya unda mavjud bo'lgan ob'yektivlikdan tashqari, bir qator axloqiy fazilatlarining insonda paydo bo'lishiga olib keladi. Bu axloqiy fazilatlar esa, aynan o'sha ob'yektivlik ustida barqaror va sobit turadi. Nekbinlik (optimizm), sabr-toqat, qalb quvvati, nafsni tiyish va nihoyat mag'lub va mahv bo'lmaydigan bir kuchga borib qo'shilishi ana shunday axloqiy fazilatlar jumlasidan bo'lib, ular o'z navbatida insondan yomon xulq-atvor, nomunosib va nomaqul sifatlar, hamda jaholat va nodonlikni uzoqlashtiradi"⁵¹.

⁵¹Alloma Tabotaboiiy hayoti, faoliyati, ta'limoti. (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida). –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, –2006. –B.98-99.

"E'tiqod va axloq aloqasi" maqolasida shunday deydi: "Axloq, umuman olganda, ilm va amal o'rtasida turadi. Boshqacharoq qilib aytganda, bir tomondan e'tiqod bilan, ikkinchi tomondan esa, amal va harakat bilan chegaradoshdir, qisqacha qilib aytganda, axloq o'zining vujudga kelish va boqiy qolishida bir tomondan imon va aqidaga, ikkinchi tomondan esa, amal(amaliy xatti-harakat)ga bog'liq va qaramdir. Shunga ko'ra ularning (imon, aqida va amalning) bo'lish-bo'lmasligi, boqiy qolishi yoki zavolga uchrashi bevosita axloqqa ham dahl qiladi".

Alloma nazarida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni katta bo'lgan. "Meni shu yergacha yetkazgan mana shu ayol bo'ladi. U hamisha mening hamrohim bo'lib keldi, men qancha kitob yozgan bo'lsam, ularning yarmi ana shu ayolnikidir"⁵², deb o'z ayoli haqida yozadi.

Alloma yana bir boshqa maqolasida shunday deydi: "Agar ayol yaxshi bo'lsa olamni guliston qiladi, agar yomon bo'lsa olamni jahannamga aylantiradi. Uydagi, oiladagi muhit ham ayol vositasida yo gulistonga, yo jahannamga aylanadi. Ayol erkakning hamrohidir. Ayol bola tarbiyasidan tashqari jamiyatdagi masalalardan ham xabardor bo'lmog'i, o'zi yashab turgan jamiyatini yaxshi bilmog'i kerak"⁵³. Tabotaboiiy ayollarga sabr-toqat va chidamlilik xos bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Allomaning fikricha, islomda ayol barcha ahkomlar va ijtimoiy huquqlar borasida erkakning sherigidir. Ayol ham erkaklar kabi mustaqil bo'la oladi va erkaklardan hech qanaqa farqi yo'q. Faqatgina ayrim holatlarda ayolning tabiatidan kelib chiqadigan ayrim farqlar mavjud bo'lib, bular hokimiyatga boshchilik qilish, qozilik ishlarini bajarish kabi vazifalarning erkakka tegishli ekanligi, shuningdek, ayolning hijobga o'ranishi, eriga itoat etishi kabi narsalarning lozimligi, ana shu farqlar sarasiga kiradi. Albatta, islomda ayollarga nisbatan belgilangan ayrim cheklovlar bilan birgalikda, ularga anchagina yengilliklar va erkinliklar ham berilgan.

⁵² Alloma Tabotaboiiy hayoti, faoliyati, ta'limoti. (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida).). –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, –2006. –B.101.

⁵³ "نظری به زندگی و آرای علامه طباطبائی"، مسعود امید، سروش، تهران ۱۳۸۲، ص ۲۰. ("Nazariy be zendegi va barxi oro-e Allome Tabotaboiiy", Mas'ud O'mid, so'rush, Tehron 1382, sahife-e 20.)

Allomaning fikricha, ayolning eriga itoat etishi uning shaxsiy irodasi va xohish-istagi, hamda shaxsiy xatti-harakati va amallaridagi mustaqilligiga hech qanaqa zarar yetkazmaydi va ularga monelik qilmaydi. Va, haqiqatda ham ayolning o'z eriga nisbatan itoati uning erkinligiga ta'sir qilmasligi, ushbu erkinlikni bekor qilmasligi kerak.

Ayollarning vazifalari uy ichidagi ishlarni boshqarish bo'lgani bilan, boshqalar bilan muomalada bo'lish, a'loqa o'rnatish, bordi-keldi qilish, vujudga kelgan muammolarni hal qilish ular uchun taqiqlanmagan. Alloma Tabotaboiy bir maqolasida yozadi: "Islom eng yaxshi usul va ko'rinishda ayolga erkinlik va mustaqillik ato qildi. Islom ayolga u (ayol) islomga qadar bo'lgan davrida ega bo'lmagan ko'p narsalarni berdi. Ayol ushbu ilohiy ne'mat tufayli xohish-iroda va amal (xatti-harakat)da istiqloлга erishdi".

Allomaning aytishicha, ayol man etilmagan har qanday ishni va turmush tarzini o'zi uchun o'zi tanlaydi va bunda erkindir. Ayolning amallari ijtimoiy xizmatga ega bo'lib, qadr-qimmatli hisoblanadi.

Shunday qilib, Tabotaboiy asarlarida ilgari surilgan fikrlar ichida ayollar maqomi alohida o'ringa egadir. Mutafakkir jamiyatda ayollarning mavqeyi muhim ekanligini ta'kidlab, bola tarbiyasi masalasida ayol jamiyat hayotidan to'g'ridan-to'g'ri xabardor bo'lishi kerakligini va uning erkaklar bilan jamiyatda bir xil huquqlarga ega ekanligini ta'kidlagan.

2. “Al-Mezon” kitobida bilim va falsafa to'g'risidagi mulohazalar

“Al-Mezon” tafsir kitobining yozilishi va uning sifati borasida gap ketganda, Alloma Tabotaboiyning tafsirdagi uslubi uning irfon va ilohiy botiniya ilmidagi ustoz Hoji Mirzo Ali Og'oyi Qozi uslubiga asoslangan bo'lib, oyatlarni oyatlar bilan tafsir qilishdan iborat bo'lganligini alohida ta'kidlash darkor. Ushbu uslubga ko'ra, “Qur'on” oyatining ma'no va mohiyati “Qur'on”ning o'zidan kelib chiqadi. Oyatulloh Qozi shu uslubda “Qur'on”ning boshlanishidan to "In'om" surasigacha tafsir qilgan bo'lib, ana shu yozilgan

tafsir kitobidan o'z o'quvchilariga dars bergan. Alloma Tabotaboiy ham bir necha bor ushbu uslubni ustoz Qozidan o'rganganini aytib o'tgan.

Alloma Tabotaboiy Tabrizda bo'lgan paytida, "Qur'on"ning boshidan "A'rof" surasigacha tafsir yozadi. Albatta, bu qisqacha tafsir edi. Alloma xuddi ana shu tafsir asosida talabalarga dars bergan. Keyinchalik talablarga to'la javob bera oladigan, tarixiy, falsafiy, ijtimoiy, estetik, hamda rivoyatlar bilan bog'liq barcha tomonlarni o'z ichiga qamrab oladigan bir yangicha uslubda yozilgan to'liq va batafsil bir tafsir tuzish zarurati tug'iladi.

Alloma Tabotaboiy yigirma jildidan iborat bo'lgan "Al-Mezon fi tafsiril-Qur'on" nomli tafsir kitobini yozadi. Alloma hijriy-qamariy 1374-yilda ushbu tafsirni yozishga kirishib, 1392-yilning qadr kechasida (ramazon oyining yigirma uchinchi sanasida) uni yozib tugatgan⁵⁴.

Jumladan, ushbu asardagi falsafiy fikrlarga ko'ra, "inson mohiyatiga "aql" singari, inson uchun muhim hayotiy ahamiyat kasb etadigan boshqa hech bir narsa tuhfa etilmagan. Chunki barcha muvoffaqqiyatlarga "aql va idrok" orqali erishiladi. Imom Boqir ta'biri bilan aytganda: "Haqiqatdan, har kim bu dunyoda o'zining idrok kuchi bilan erishgan muvoffaqqiyatlariga tayangan holda qiyomat kunida javob beradi". Tabotaboiy ushbu asarida, "Qur'on" ilmi va haqiqat ustida fikr yuritish va bu ilohiy tuhfadan foydalanish inson oldida jamiki bashariyatning baxt-saodat eshiklarini ochadi" va "Xudo "Qur'on"da keltirilgan oyatlardan foydalanishni istamagan, ularni tushunmaydigan insonlarni ayblaydi va ularga "qalbingga muhrla", deb tanbeh beradi", deb yozadi.

Alloma Tabotaboiy "aql"ni tahlil qilgan holda, uning asosiy metodlarini keltirib o'tadi. Uning fikricha, "aql va say-harakat"ni agarda ularning ilmiy va lug'aviy asosida haqiqat mavjud bo'lsa, qabul qilish kerak. Agar bu say-harakat ko'rsatilgan asosga tayanmasa, butunlay "xohish"ga bo'ysunish hodisasi sodir bo'ladi"⁵⁵.

⁵⁴ Alloma Tabotaboiy hayoti, faoliyati, ta'limoti. (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida).). –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, –2006. –B. 35

⁵⁵ [filosofija/znanija-i-filosofija-v-knige-almizana.html](http://www.molych.ru/filosofija/znanija-i-filosofija-v-knige-almizana.html) <http://www.molych.ru/>

Biz ham albatta Tabotaboyni ushbu fikrlariga to'liq qo'shilmiz, negaki, istak, xohish juda ko'p narsani qamrab oladi, ularning ichiga umuman amalga oshmaydigan, aql bovar qilmaydigan narsalar, his-tuyg'ular ham kirib ketadi. Aql o'z navbatida xohishga chegara o'rnatadi va u xohishni boshqara oladi.

Tabotaboiy mantiq borasida quyidagilarni qo'shimcha qiladi: "Xatoning vujudga kelishi aynan mantiqning o'zida emas, balki uni qanday qabul qilishdadir. Chunki mantiq yordamida har qanday mulohazaning xotolarini to'g'rilash mumkin. Bu qachonki, mantiqni to'g'ri qabul qilish yo'lidan borsagina sodir bo'ladi"⁵⁶.

"Al-Mezon" asarida yaxshi formadagi aqlning holatiga urg'u beradi. Va, aynan shuning uchun "lakonizm(fikrni qisqa ifodalash) tarafdorlari qarashlarini inkor etish, yoki qabul qilish, hamda ularni tadqiq etish tegishli tadqiqotlar o'tkazilib va kerakli dalillar to'plangandan so'ng sodir bo'ladi. Ba'zan, lo'nda ma'noli ifodani qabul qilish, yoki rad etishga har qanday so'z, oddiy bir ishora yetarli. O'qish bilan shug'ullanayotgan har qanday shaxs ham oyat oxirada aynan o'sha predmet bilan aloqadorligini, yoki muhokama qilinadigan mavzuni qiyoslash yordamida o'sha haqiqatni anglab yetishi mumkin"⁵⁷.

"Al-Mezon" asarida Alloma falsafasining asoslarini biz quyida ko'rib chiqishimiz mumkin, jumladan, "Al-Mezon" sharhi eng noyob falsafiy mulohozalarni qamrab oladi va Allomaning chuqur ilmiy va falsafiy salohiyatidan xabar beradi. Ushbu asar so'nggida falsafiy muhokamalar alohida formada taqdim etilgan bo'lib, buning sababi, ilm kishilari falsafa va intellektga tayangan holda, "Qur'on" oyatlari sharhi bilan tanishishlari mumkin.

Alloma Tabotaboyni "Al-Mezon" asaridagi asosiy metodlaridan biri bu aksariyat sharhlarida falsafiy muhokamalar alohida ta'kidlanib o'tilgan, yoki aralashgan falsafiy sharhlar izoh bilan berilgan. Shuning uchun, Tabotaboiy har bir mavzuning mavqe'ini saqlab qolgan va sharhlarni falsafa bilan aralashib ketishining oldini olgan.

⁵⁶ [filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html](http://www.molych.ru/filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html) [http:// www.molych.ru/](http://www.molych.ru/)

⁵⁷ [filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html](http://www.molych.ru/filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html) [http:// www.molych.ru/](http://www.molych.ru/)

Alloma shuningdek, o'zi falsafiy muhokamalarda aqliy metoddan ham foydalangan va ayrim ilmlarni falsafadan ajratgan. Chunki, u falsafaning murakkabligini saqlab qolmoqchi bo'lgan va uning o'zgarib ketishining oldini olishga uringan.

Shak-shubhasiz, Tabotaboyni falsafiy muhokamalari “Qur'on”ga asoslangan bo'lsada, hech qachon u falsafa yordamida oyatlarni sharhlamagan. Shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, “Al-Mezon”ning falsafiy mavzulari “Qur'on” oyatlaridan foyda olishni qo'llab-quvvatlagan, shunga qaramay, u sunna yoki “Qur'on”ga qarshi bo'lgan falsafiy mavzuni inkor etgan.

Tafsirning mazkur uslubi oyatlarni oyatlarning o'zi bilan tafsir qilish, “Qur'on”ning ma'nosini “Qur'on”ning o'zidan izlab topishga asoslangan. Shunga asoslanib, “Qur'on”dan boshqa manbalardan kelib chiqadigan ma'nolar yaxshilab o'rganiladi va ularning “Qur'on” ma'nolariga to'g'ri yoki zid kelishi aniqlanadi. Ya'ni, “avval fikrimizda bo'lgan ma'noni asos qilib olib, so'ngra uni “Qur'on” oyatlari bilan solishtirib ko'rishimiz, yoki boshqacha so'z bilan aytganda, oldindan ma'lum bir ma'no qolipi yasab, so'ngra “Qur'on”ni ana shu qolipga kirgizib, solishtirishimiz emas, balki “Qur'on”ning ma'nosini uning o'zidan topib, so'ngra tashqari manbalardan kelib chiqadigan ma'nolarni u bilan solishtirib ko'rishimiz lozim”⁵⁸, degan fikrlarni keltiradi. Ammo ko'pchilik tafsirlar xuddi ana shu aytib o'tganimiz oldin fikrda (“Qur'on”dan tashqari manbalardan kelib chiqadigan) muayyan bir ma'noni shakllantirib, so'ngra uni “Qur'on” ma'nolari bilan solishtirish uslubi asosida yozilgan bo'lib, ular fikrda bo'lgan ma'nolar va tashqi sezgi organlari orqali anglashilgan narsalar yoki falsafiy, ilmiy, ijtimoiy qarashlar va rivoyatlarga oid qarashlarni o'zaro solishtirishdir.

Alloma Tabotaboiy “Hamd” degan termindan ham foydalangan. Hamd so'zi “xudoga sig'inish”, degan ma'noni anglatadi. “Bu ma'no g'o'zal va ajoyib sajda etuvchilarga nisbatan ishlatiladi, qaysiki, u ruxsat etilgan formani tashkil

⁵⁸ Alloma Tabotaboiy hayoti, faoliyati, ta'limoti. (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida). -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, -2006, -B.64.

etadi. Bu “Qur’on”da keltirilgan va shunday deyiladi: “nimaki bo’lsa, hammasi xudo tomonidan yaratilgan. Yaratilgan narsalar yaxshi bo’lishi shart. Xudo har narsaga qodirdir”.

Shu jumladan, xudo kimlarningdir ehtiyojiga qarab biror narsani bunyod etmagan va xudoning biror narsani bunyod etishi ilmga asoslanib yaratuvchi tomonidan ruxsat etilgan narsadir⁵⁹, kabi fikrlarni keltiradi.

Alloma Tabotaboiy zamonaviy falsafiy qarashlarni va g’arb falsafiy qarashlarini “Qur’on” oyatlariga asoslangan holda, tanqid qilish bilan shug’ullangan. U oyatlarni sharhlash davomida, faylasuflar o’rtasida muhokamaga sabab bo’lgan falsafiy munozaralarni o’rtaga qo’ygan. Sababga oqibatning keragi bormi? Sababning paydo bo’lishi uchun oqibatning mavjud bo’lishi shartmi?, kabi muommalarni o’rtaga qo’yib va unga javob topadi.

Alloma Tabotaboiy ishlarining ya’na bir muhim jihati shundan iboratki, u falsafiy mavzularni “Qur’on” yordamida yanada kengaytirib, oyat sharhlarida keltirib o’tgan. Ehtimol bunga sabab deb, “Qur’on” ni yaratganning so’zlari hisoblab, falsafani esa, borliqni madh etadigan vosita sifatida qaralganidadir. Shuning uchun, uning fikricha, “falsafa asosiy kuch hisoblangan, qachonki u “Qur’on” oyatlari bilan qo’llab quvvatlanganda(mos kelganda)”⁶⁰.

Endi biz ba’zi bir falsafiy mavzularni asoslashga harakat qilamiz. “Al-Hamd” sharhida keltirilgan sabablarda, oyatlarni sharhlashda 5 ta dalil yordami bilan sajda qiluvchilar va hamdu-sanolar xudoga tegishliligi isbotlanadi.

Ilmning abstraktligining isboti:

Ilmning abstraktligi isboti haqida savolning paydo bo’lishi “Baqara” surasining ilk oyatlarida ilmning mavjudligi, uning muhimligi keltirilgan. Bu yerda 3 ta masala haqida gap ketadi:

- 1) Ilmli inson.
- 2) Insonning ilmga muhtojligi.
- 3) Inson ilmining nomoddoyligi.

⁵⁹ [filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html](http://www.molych.ru/filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html) [http:// www.molych.ru/](http://www.molych.ru/)

⁶⁰ [filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html](http://www.molych.ru/filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html) [http:// www.molych.ru/](http://www.molych.ru/)

Tabotaboiiy isbotlanmagan va nisbiy bilimlar haqidagi materialistlarning fikrini ham inkor etadi.

Hissiy bilishga asoslanmagan bilimlarning qarama-qarshiligi:

“Baqara” surasining ilk sharhi vaqtida asosiy urg’u qabr hayotiga va narigi dunyoga ishonchga tushadi, so’ngra, u “faylasuflar, ularning bilishning hissiy emasligi haqidagi nuqtai-nazarlari hech qanday qimmatga ega emas, shu qatorda aqliy bilish ham ilmning o’zlashtirilishida hech qanday rol o’ynamaydi” kabi g’arb olimlari o’rtasida muammoli sabablarga olib kelgan fikrlar haqida so’z yuritadi. Bu yerda Alloma Tabotaboiiy o’zining 5 ta javobi orqali barcha tanqidlarni olib tashlaydi va bilishning nomoddiyligini isbotlab beradi.

Rahmdillikni sharhlash vaqtida, aqliy bosqich bilan munosabatlarida shubha vujudga keladi. Bu yerda “Baqara” surasining 48 oyati asosida rahmdillikning falsafiy mohiyati borasida muhokama bo’lib o’tadi. Ushbu muhokama davomida keyingi dolzarb mavzular ochilib, isbotlanadi.

“Insoniyat rivojlanishida uning ichki dunyosida qandaydir harakatlar paydo bo’ladi, ushbu jamiki mukammal harakatlar farishtaning mavjudligidan darak beradi. Farishta baxtga ijodkor sifatida ta’sir etadi va xuddi shunday baxtsizlik farishtasi zulm yaratuvchi hisoblanadi. Bu ikki bosqich o’rtasida, ya’ni baxt va baxtsizlik keyingi bosqichlarda paydo bo’ladi.

Birinchidan, baxt insonning o’ziga bog’liq, baxtsizlik esa uning qilayotgan ishiga bog’liq;

Ikkinchidan, baxtsizlik shaxsning o’ziga bog’liq, baxt esa uning qiladigan ishiga bog’liq;

Uchinchidan, baxtli va baxtsiz insonlar aslida, ularning shaxsi, ularning qiladigan ishlariga ham bog’liq emas”⁶¹.

Biz birinchi va ikkinchi guruhda majburiy tartib va aqlning o’rnini ko’rishimiz mumkin, chunki bu hodisalar shaxs uchun vaqtinchalik hisoblanadi va doimiy bo’la olmaydi. Ammo uchinchi guruh kuchsizlardan tashkil topgan.

⁶¹ [filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html](http://www.molych.ru/filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html) [http:// www.molych.ru/](http://www.molych.ru/)

Aqlning o'zgarib turishi hozir keltirilgan, ya'ni uchinchi guruh odamlarga tegishli, xuddi ularning ba'zilar esa kuchsizdir.

“Al-Mezon”da ilmga e'tibor qaratilgan bo'lib, unga diqqat bilan nazar tashlagandan so'ng shu narsa ayon bo'ladiki, Alloma ba'zi o'rinlarda oyatlarga tayanib, unda bayon qilingan bilimlarga suyanadi. Tabotaboiiy donishmandlar qatorida bo'lganligi e'titof etiladi.

Alloma Tabotaboiiyning ushbu metodi islom ilmi va “Qur'on”ga asoslangan. Hasonzoda Ammoliyning aytishicha: “Nimaiki, uning qalamiga mansub bo'lsa, u ilmdir. Tabotaboiiy tomonidan “Al-Mezon”gacha yozilgan ba'zi bir ilm, sevgi, mantiq, aql, fan, “Qur'on” va tadqiqotlar haqidagi ilmiy maqolalar borasida nimaki aytilgan bo'lsa, u ilmdir”⁶². Tabotaboiiy quyidagi fikrlarni shaxsan ta'kidlab o'tadi: “shariatning farmoni haqiqatga asoslanishi kerak, bunga shubha bo'lishi mumkin emas. Ya'na shu narsa ma'lumki, inson haqiqatga erishmay turib qobilikka ega bo'lmaydi, to'g'ri yo'l esa, dinning tashqi amrlardan so'zsiz foydalanishdan iboratdir. Tashqi shakl tabiiy bo'lib, mohiyatga olib boruvchi yo'ldir. Ichki mohiyat komil bo'lmasligi mumkin emas, uning ichki shakli esa u bilan muvofiq bo'lmasligi ham mumkin emas”⁶³.

Magar, “Qur'on”da tashqi va ichki ma'nolar bo'lishiga qaramasdan, bu ma'nolar bir-birini to'ldiradi, ya'ni ichki va tashqi ma'nolar o'rtasida qandaydir qarama-qarshiliklar yo'q. Misol uchun Yusuf haqidagi mashhur rivoyatda keltirilishicha, Misr firavnining xotini Yusufga yoqish uchun upa, lak-bo'yoqlar kabi go'zallik vositalaridan foydalanadi, unga xushomadlar qiladi. Yusuf o'zining chiroyi bilan uning qalbini rom etgan edi. Ammo Yusuf bularga etibor ham bermaydi. Natijada uning sabri tugab, umidlari so'nib boradi. Chunki, Yusuf unga hech qanday ilinj bermaydi. Oxir-oqibat, malika o'zining his-tuyg'ulari bilan abadiy yolg'iz qoladi. Malikaning rejasi bo'yicha, Yusuf uning istaklarini rad eta olmasligi kerak edi, lekin shu paytgacha unga itoat etmasligini bilmasdi. Endi malika uchun eng so'nggi chora, Yusuf bilan birga, bir xonada

⁶² [filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html](http://www.molych.ru/filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html) [http:// www.molych.ru/](http://www.molych.ru/)

⁶³ [filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html](http://www.molych.ru/filosofija/znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana.html) [http:// www.molych.ru/](http://www.molych.ru/)

yolg'iz qolish edi, u yerda ikkisidan boshqa hech kim yo'q edi. Malika eshikni yopadi va buyruq ohangida o'z oldiga chorlaydi, Yusufning qadrini yerga urmasdan turib uning vasliga erishmoqchi bo'ladi. Bir tarafdin Misr malikasi yosh Yusufni o'z sevgisi orqali rom eta oladigan darajada go'zal emas edi, boshqa tarafdin, Yusufning qalbi xudo muhabbati bilan to'lgan bo'lib, boshqa sevgiga esa joy yo'q edi. Hattoki, shu holatda ham Yusuf xudo bilan yolg'iz qolib, ilohiy go'zallikka oshiq bo'ladi. Lekin, Zulayho Yusufdan rad javobini oladi va uning barcha umidlari chilparchin bo'ladi. Biroq, Yusuf shu vaziyatda ham unga firavnga xiyonat qila olmasligini, hukmdordan hayiqishini, o'zining or-nomusi haqida gapirmaydi, u hattoki ilohiy jazodan qo'rqishi, yoki o'z ruhini poklash haqida ham gapirmaydi. U shu yerda bir og'iz gap gapiradi: “men xudoga ishonaman”. U shu yerda ham xudoga ishondi. Demak, Yusufning qalbi xudo ishqini bilan to'lganligi va uning nigohlari faqatgina xudoga qadalganligi aniq. Yusufning bu – “men xudoga ishonaman”, degan so'zi bu dunyoda xudoning yagonaligi va nafaqat barchaning qalbi xudo muhabbati bilan to'lishi kerakligi, balki haqiqat yo'lini ham ko'rsatib berdi” deb hisoblaydi.

Nega sen o'zingni xudoga bag'ishlading degan savolga Yusuf shunday javob beradi: “Xudo menga zolimlar hayotda hech qachon erisha olmaydigan baxtni berdi va o'zi haqida so'zlab berdi”.

Yusufning aytgan gaplarini talqin qilishda Tabotaboii shuni alohida ko'rsatmoqchi bo'ladiki, “buni tushuntirish uchun yagona sabab mavjud, yuqoridagi jumalardan ma'lumki, olamda xudo yagonaligi haqiqatdir. Malika sening menga bo'lgan munosabatingda menga in'om etgan xudoning haqiqiiy muruvvatiga binoan Misr firavnlarning barcha buyruqlariga itoatda bo'lishing kerakligi kabi bo'lishi zarur demoqchi bo'lgan. Demak, senga bo'lgan munosabatlarim haqiqiiy, go'yo xudoning menga bo'lgan munosabatlaridek, men qanday bo'lsam shunday qabul qilgani kabi”⁶⁴.

Tabotaboii shu narsani alohida ta'kidlaydi, “Donishmand anglash bosqichining oxirgi bosqichiga yetib borganda o'z mohiyati bilan xudoga

⁶⁴ [filosofija/znanija-i-filosofija-v-knige-almizana.html](http://www.molych.ru/filosofija/znanija-i-filosofija-v-knige-almizana.html) [http:// www.molych.ru/](http://www.molych.ru/)

birlashib ketadi. Bu esa, xohish bilan kurashish yo'lidir. Ayni shu gapning o'zi esa, "Qur'on" yordami bilan egallangan ilmni ifodalaydi"⁶⁵.

Alloma Tabotabo'y 105 ta oyat sharhiga asoslanib shuni ta'kidlaydiki, "Insonlar o'z-o'zingizni toping" degan savolni o'rta qo'yishlari lozim, lekin biz ularni umumiy tarzda maqsadga muvofiqligini ta'kidlaymiz, negaki, ularning bizning mavzuimizga hech qanday a'loqasi yo'q.

Shunday qilib, ushbu tafsir asarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, unda "Qur'on"iy bayonlardan tashqari rivoyatlar, ijtimoiy, tarixiy, falsafiy va ilmiy masalalar kabi boshqa turli mavzularda ham so'z yuritilgan. "Al-Mezon"da ushbu masalalar va mavzular yuzasidan fikr- mulohazalar yuritishga bag'ishlangan qismlar alohida-alohida tarzda, bir-biri bilan aralashtirilib yuborilmagan holda keltirilgan. Va xuddi shu asosda jahonning bugungi xalqaro masalalari, jahondagi mavjud (hozirgi zamonda mavjud bo'lgan) qarashlar, maktablar va g'oyalar to'g'risida ham yetarli darajada so'z yuritilib, ular islom qonunlari bilan solishtirilgan va ularning islomga qanchalik darajada to'g'ri kelish-kelmasligi ochib berilgan. Shuning bilan birga, Sharq va G'arbdagi turli qarashlar va g'oyalarga asoslanadigan turli xil maktab va oqimlar tomonidan, xususan, ateizm maktablari tomonidan islomga nisbatan tanqidlarga to'liq, asosli va munosib javob berilgan. Bundan tashqari, oyatlar asosida haqiqat, asllik va voqeiylik mezoni boshqa qarashlar va dinlar bilan solishtirilib, ular qiyoslab ko'rilgan, hamda mazkur qarashlar, g'oyalarning xato tomonlari yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu tafsir kitobida hozirgi zamonda yozilgan boshqa tafsir kitoblarining kamchilik tomonlari, ularning mualliflari eslatilmagan holda ko'rsatib o'tilgan va isbotlab berilgan.

II bob bo'yicha xulosa

-Alloma borliq va irfon masalalarda transendental falsafaga yaqin bo'lib, xudo va olamni bir butunlikda ko'radi. Irfoniy qarashlarida axloqning rolini yuqori baholaydi va axloq ilmi nafsni tarbiyalash xususiyatlarini muhokama

⁶⁵ filosofija/znanija-i-filosofija-v-knige-almizana.html [http:// www.molych.ru/](http://www.molych.ru/)

qiladi, uni o'rganadi deb hisoblaydi. Uning axloq borasidagi ushbu fikrlari diqqatga sazavordir.

- Allomaning irfoniy maqomida mushohada orqali anglash yuqori o'rinda turadi. Irfonda mushohadaga katta e'tibor berish bu unda falsafiy tafakkurning yuqori ekanligidan dalolat beradi, deb o'ylaymiz.

-Mutafakkir jamiyatda ayollarning mavqei muhim ekanligini ta'kidlab, bola tarbiyasi masalasida ayol jamiyatda yuz berayotgan hodisalardan to'g'ridan-to'g'ri xabardor bo'lishi kerakligini va uning erkaklar bilan jamiyatda bir xil huquqlarga ega ekanligini ta'kidlashi, u yashagan bid'atkorona ruhoniylar mavqei yuqori bo'lgan jamiyatni hisobga olsak, insonparvarlikda olg'a katta qadam tashlagan deb hisoblaymiz. Shu o'rinda ta'kidlamoqchimizki, bugungi kunda bizning jamiyatimizda ham bola tarbiyasiga yuksak darajada e'tibor qaratilmoqda. Bunda onaning, ya'ni ayolning mavqei yuqori o'rinni egallaydi albatta.

-Tabotaboiiy "Al-Mezon" asarida ilm va falsafaga diqqat-e'tiborini qaratadi va "aql"ga yuksak baho berib, "inson mohiyatiga "aql" singari, inson uchun muhim hayotiy ahamiyat kasb etadigan boshqa hech bir narsa tuhfa etilmagan, chunki barcha muvoffaqqiyatlarga "aql va idrok" orqali erishiladi" deb ta'riflashi ratsionalizmning yuqoriligidan dalolatdir.

-Alloma "aql va say-harakat"ni ularning ilmiy va lug'aviy asosida haqiqat mavjud bo'lsa qabul qilish kerak. Agar bu say-harakat ko'rsatilgan asosga tayanmasa, butunlay "xohish"ga bo'ysunish hodisasi sodir bo'ladi"deb ta'kidlaydi. Biz ham albatta Tabotaboiiyning ushbu fikrlariga to'liq qo'shilamiz, negaki, istak, xohish juda ko'p narsani qamrab oladi, bularning ichiga umuman amalga oshmaydigan, aql bovar qilmaydigan narsalar, his-tuyg'ular ham kirib ketadi. Aql o'z navbatida xohishga chegara o'rnatadi va u xohishni boshqara oladi.

-Alloma Tabotaboiiyning "Al-Mezon" asaridagi asosiy metodlaridan biri, bu aksariyat sharhlarida falsafiy muhokamalar alohida ta'kidlanib o'tilgan, yoki aralashgan falsafiy sharhlar izoh bilan berilgan. Shuning uchun Tabotaboiiy har

bir mavzuning mavqe'ini saqlab qolgan va sharhlarni falsafa bilan aralashib ketishining oldini olgan. Bu albatta, muhim omil, chunki diniy mavzudagi asarlarni o'qiydiganlarning hammasi ham falsafadan boxabar bo'lavermaydi. Aslida u falsafaning murakkabligini saqlab qolmoqchi bo'lgan va uning ma'nolari o'zgarib ketishining oldini olishga uringan.

III BOB. TABOTABOIYNING IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLARIDA G'ARB FALSAFASINING TAHLILI VA TANQIDI

1.Tabotaboiyning g'arbda keng yoyilgan ilohiyotshunoslikka munosabati

Falsafiy ilohiyotshunoslik – keyingi yillarda G'arb faylasuflari va ilohiyotshunoslari tomonidan ilohiyot masalalariga o'ziga xos falsafiy yondashuvni izohlash uchun kiritilgan atama hisoblanadi. XX asr davomida falsafiy ilohiyotshunoslik faylasuflar tomonidan ham, ilohiyotshunoslar tomonidan ham jiddiy qabul qilinmadi. Faylasuflar falsafiy ilohiyotshunoslikni uning ta'limotida falsafiy jihatlar yetishmasligi uchun tanqid qilishdi. Diniy tafakkurning hozirgi zamon ijtimoiy hayotiga integratsiyasi masalasi bilan bog'liq muhim muammolarni g'oyat aniqlik asosida dalillash va tahlil qilish bilan band bo'lgan ilohiyotshunoslar falsafiy ilohiyotshunoslikka e'tibor qaratmadilar. XX asrning oxirgi choragida vaziyat o'zgardi. Metodologik malakasi keng tan olingan faylasuflar ilohiyotshunoslik masalalari bo'yicha falsafiy xarakterdagi tadqiqotlarni boshlab yubordilar.

G'arb dunyosida dinning inkor qilinishi quyidagi ikki sabab bilan izohlanadi: birinchisi, din va fan o'rtasidagi soxta qarama-qarshilik bo'lsa, ikkinchi sabab, muayyan ijtimoiy, siyosiy va axloqiy qarashlarga borib taqaladi. Keyingi yillarda ilm-fan vakillarining yuqorida qayd etilgan jabhalarga munosabati o'zgarishi kuzatilmoqda. Pozitivizm rivojlanishi cho'qqiga chiqqan kunlardan farqli ravishda, hozirgi kunda fanning dinga qarshi emasligini ilgari suruvchi ta'limotlar keng e'tirof qilinmoqda. Hozirgi kunda ilmiy konsepsiyalar qatori diniy e'tiqodlarni ratsional tasdiqlashni qo'llab quvvatlovchi epistemologik nazariyalar rivojlanmoqda. XX asr 70-yillarida hukmron bo'lgan ijtimoiy, siyosiy va axloqiy yondashuvlar so'l liberal qarashlarga tanqidiy munosabatda bo'lgan yondashuvlarga o'z o'rnini bo'shatib bermoqda. Bugungi kunda falsafiy ilohiyotshunoslikning tiklanishi, yondashuvlarda ro'y berayotgan

o'zgarishlarning har ikkala turidan ham foyda oladi va bilvosita ularni rag'batlantiradi.

Bu o'zgarishlar bo'layotgan bir vaqtda, ilohiyotshunoslar g'ayri nasroniy ilohiyotshunoslikning nasroniy tafakkuri uchun ahamiyati bo'yicha jiddiy munozaralarni boshlab yubordilar. Jon Xik, Kentvel Smit va Garri Kyush kabi ilohiyotshunoslar faqat nasroniy an'analari orqali haloskorlikning amalga oshirilishi ehtimolligini ilgari suruvchi doktrinani ratsional jihatdan asoslash mumkin emasligini ta'kidlaydilar. Nasroniy an'alariga sodiq qolgan holda ular Xrist va Muqaddas Troitsa(uchlik)ning ilohiyligi doktrinasini boshqatdan sharhlanishga muhtojligini ta'kidlashadi, shuningdek, ular muayyan yo'nalishda Qur'onni Yaratganning kalomi sifatida tan olinishi mumkin, deb hisoblashadi. Hozirgi kunda falsafiy ilohiyotshunoslik ta'limotida diniy plyuralizm masalasi asosiy bahs mavzusi bo'lmасаda, bu yo'nalishga bo'lgan e'tiborning kuchayotganligi kuzatilmoqda⁶⁶.

Mavzudan kelib chiqqan holda savol tug'iladi: keyingi yillarda islom tafakkurida g'arb falsafiy ilohiyotshunosligiga taalluqli biror bir munosabat ilgari surildimi? Ba'zan g'arb tadqiqotchilari hozirgi zamon islom tafakkurida falsafiy nuqtaiy nazardan biror bir ta'limot yoki qarash mavjudligiga shubha bildirishadi. Chunki, ular faqat islom tafakkurining falsafiy mushohadaga ega bo'lmagan, falsafaga dushman bo'lgan vakillarining asarlarini biladilar. Lekin biz shia mazhabi falsafiy va ilohiyotshunoslikka doir an'alarida nasroniy faylasuflar falsafiy ilohiyotshunoslikda ko'targan muammolarga taaluqli bo'lgan yetarlicha materiallarni topdik. Shia mazhabi falsafiy ilohiyotshunosligi bilan tanishishning eng yaxshi vositasi – bu Alloma Tabotaboiyning asarlari va qarashlarini o'rganish hisoblanadi. Mutafakkirning islom olamida Qur'onning bilimdoni va falsafiy dunyoqarash egasi sifatidagi obro'si, uning asarlarini dinshunoslik va falsafiy ilohiyotshunoslikni qiyosiy o'rganuvchi tadqiqotchilar tomonidan alohida diqqat va e'tibor bilan tadqiq qilishni talab etadi.

⁶⁶ Legenhausen. Islam and Religion. London, al-Hoda, 1999. –P. 24.

Ba'zi musulmon vakillarida savol tug'iladi: nima uchun musulmonlar g'arb falsafiy ilohiyotshunosligi doirasida shakllanadigan muammolarga murojaat qilishlari lozim? Bu muammoning ba'zi sabablari bor. Birinchidan, ushbu savollarga musulmonlar javobini shakllantirish orqali islom an'analarga nisbatan hurmat uyg'otish mumkin, chunki, keyingi vaqtlarda islom an'analarga munosabat, afsuski, siyosatga tayangan holda ifoda etilmoqda. Ikkinchidan, faqat o'rta asrlar islom tafakkuri bilangina tanish bo'lgan tadqiqotchilar islom falsafiy ilohiyotshunosligi an'analari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Uchinchidan, bunday intellektual harakatlar ko'rib chiqilayotgan murakkab masalalarni hal qilishga yordam beradi, bir qator masalalar va yo'nalishlar bo'yicha islom tafakkurining kelajakdagi taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi.

Yaqin vaqt ichida G'arbda falsafiy ilohiyotshunoslikka bo'lgan qiziqishning ortishi, dinga nisbatan jiddiy yondashish zaruriyatiga ehtiyoj borligini ko'rsatib berdi. Vaholanki, aksariyat olimlar dinni hozirgi zamon dunyoning ilmiy manzarasiga zid keladigan ong shakli sifatida baholagan edilar. Cherkovdan yuz o'giran aksariyat kishilar endi uning bag'riga qaytmoqdalar. Lekin dinga nisbatan norozilikni keltirib chiqargan muammolar hali ham o'z yechimini topgani yo'q. G'arbda nasroniylik ichidagi muammolar, o'z holicha, diniy muammolar hisoblangan. Ba'zi tadqiqotchilar nasroniylikdan yuz o'girishlariga sabab bo'lgan xatolardan islom dini himoyalangan bo'lishini ta'kidlaydilar. Masalan, nasroniylikning eng muhim ta'limotlaridan biri – Troitsa(Uchlik) aqidasi hisoblanadi. O'rta asrlardan buyon ilohiyotshunoslar bu ta'limotni e'tiqod sifatida qabul qilinishi zarur, deb hisoblaganlar. Ular e'tiqodni aql o'lchamlariga muvofiq kelmaydigan holatni qabul qilish yo'li, deb baholaganlar. Hozirgi zamon ilohiyotshunoslari esa, ushbu ta'limotni aqliy asoslanishga taalluqli bo'lmagan sir, degan postulatni ilgari surishdi. Hozirgi zamonning Piter van Invagen va Tomas V. Moris kabi diniy faylasuflari ushbu doktrinaning aqliy dalillanganligini falsafiy asoslashga urindilar. Bu holat Alloma Tabotaboiy qarashlarining asosli ekanligini ko'rsatmoqda. Mutafakkirning Qur'onga sharhi keltirilgan al-Mezon asarida bayon qilingan

falsafiy mushohadalarida uchlik ta'limotining asossiz ekanligini ochiq ko'rsatish, yakkaXudolik e'tiqodini qat'iy himoya qilish masalalari muhokama qilingan. Mutafakkirning yuqoridagi masalalarga oid fikrlarini oyatulloh Xusayniy Tehroniy to'plab, o'zining "Mehri Tobon" asarida bayon qilgan⁶⁷. Ushbu qarashlarda islom ilohiyotshunosligiga xos bo'lgan ratsionalizm bayon qilinib, islom ilohiyotshunosligi ratsionalizmi va zamonaviy nasroniylik ilohiyotshunosligiga xos bo'lgan irratsionalizm oqimi yo'nalishlari orasidagi qarama-qarshilik ko'rsatib berilgan. Nasroniylik ilohiyotshunosligidagi ushbu yo'nalish mo'jizani asoslanmagan, soxta faktlar bilan tavsiflagan. Tabotaboyni islom mistisizmi(irfon) masalalariga bag'ishlangan asarlari mutafakkirning asl mistisizmga moyilligini ko'rsatadi. Mutafakkir islom mistisizmini(irfon) soxta ziddiyatlarga qaramasdan ratsionallikka ega, deb yuqori baho beradi. Shunday qilib, Tabotaboyni asarlari nafaqat islom ilohiyotshunosligining namunasi, ayni vaqtda, zamonaviy va ratsional ilohiyotshunoslikning, shuningdek, ratsional mistisizmning namunasi hisoblanadi.

Faylasuf qarashlarida o'ziga xos, original elementlarni izlashga odatlangan g'arb falsafasi tadqiqotchisi Tabotaboiy asarlarining ahamiyatini baholay olmasligi mumkin. Alloma Tabotaboiy Mullo Sadro va uning transsendental falsafasiga asoslangan tafakkur maktabining himoyachisi hisoblanadi. Foma Akvinskiy katolik ilohiyotshunosligiga qanday ta'sir o'tkazgan bo'lsa, Sadro falsafasi ham zamonaviy shia ilohiyotshunosligiga shunday ko'lamda ta'sir o'tkazgan. Alloma Tabotaboyni falsafiy ilohiyotshunosligida ahamiyatga ega bo'lgan qarashlar va tushunchalarni Mullo Sadro va Nosiruddin Tusiy asarlarida uchratish mumkin. Bu holat Tabotaboiy ilohiyotshunosligining yuqorida qayd etilgan mutafakkirlar qarashlari va an'alariga muvofiq tarzda shakllanganligini bildiradi.

Hozirgi kun g'arb falsafiy ilohiyotshunosligi kabi Alloma Tabotaboiy ilohiyotshunosligida ham aniq ta'riflar va deduktiv dalillardan foydalaniladi,

⁶⁷ «Современные вопросы исламской мысли» [http:// www.islamfond@gmail.com](http://www.islamfond@gmail.com)

shuningdek, ikkala yondashuvlar orasida farq qiluvchi jihatlar va qirralar mavjud. Bu jihatlar ingliz-amerika falsafiy ilohiyotshunosligi tahliliy an'anasining shia an'anasida Ibn Sinoning mantiqiy qarashlari va ularning islom falsafasiga ta'sirini inkor qilishida namoyon bo'ladi. Lekin tahliliy falsafa va islom falsafasida isbotsiz qabul qilinishi mumkin bo'lgan intuitiv bilish qat'iy farqlanadi. Islom falsafasini tadqiq qiluvchi g'arb tadqiqotchisi, uning fikricha, noto'g'ri asoslangan isbot-dalillarni keskin rad qilishda ehtirosiga yo'l qo'ymaslikni va aksariyat hollarda zamonaviy g'arb gipotezalariga mos kelmaydigan fundamental ratsional intuitsiya haqidagi asoslangan materiallarni qidirib topishni o'rganishi zarur.

Zamonaviy nasroniylik ilohiyotshunosligi va islom ilohiyotshunosligi o'rtasidagi yaqqol farqlardan biri sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: nasroniylarning Xudoga e'tiqodi shaxsga murojaat sifatida olib boriladi, musulmonlarning Xudoga e'tiqodi oliy hilqat, zotga murojaat sifatida olib boriladi. Ushbu farqning aksariyat ilohiyotshunoslik masalalari uchun dolzarb ahamiyatga egaligiga qaramasdan, nasroniylar ham, musulmonlar ham unga e'tibor qaratishmagan. Nasroniylar doimo Xudoni shaxs ekanligini ta'kidlaydilar, musulmonlar esa buni inkor qilishadi. Nasroniylik an'anasida faoliyat yurituvchi dinshunos faylasuflar tomonidan teizmga ta'rif berilganda, Xudoga shaxsiyat sifatida e'tiqod qilishi kerakligini ta'kidlashadi. "Falsafa ensiklopediyasi"da quyidagi ta'rif keltiriladi: "Teizm yagona Xudoga(teos) bo'lgan e'tiqoddur va Xudo sajda qilishga loyiq bo'lgan shaxs bo'lib, olamdan ajralib turadi, lekin har doim unda faoliyat olib boradi"⁶⁸. Jon X.Xik ta'rifiga ko'ra: "Teizm – bu yagona Xudoga e'tiqod bo'lib, odatda Xudo shaxsiga sig'inish sifatida izohlanadi"⁶⁹. Richard Svinbernning ta'kidlashicha, teist – yagona Xudoga e'tiqod qiluvchi bo'lib, Xudo "tanaga ega bo'lmagan, abadiy, ozod, hamma ishga qodir, hamma ezgu ishlarni biluvchi shaxsiyat bo'lib, olamning asoschisi, insoniyat bo'ysunuvchi va sajda qiluvchi ob'ekt

⁶⁸ Owen H.P. Teism in the Encyclopedia of Philosophy, 1972, VIII, –P. 97.

⁶⁹ Hick John. Philosophy of Religion. N.J.: Prentice Hall, 1973, –P. 5.

hisoblanadi”⁷⁰. J.L. Mekki ham ateistik yondashuv bilan kurashgan holda, Svinbernning teizmga ta’rifini qo‘llab quvvatlaydi⁷¹. Hozirgi zamon nasroniylik falsafiy ilohiyotshunosligi vakillari orasida eng kuchli va taniqli tadqiqotchi Vilyam P. Alston hisoblanadi. Olimning asarlari o‘tkir tafakkur va aniq tahlillar asosida bayon qilingan. Alston fikricha, yakkaxudolik(teistik) dinlarining aqidalariga muvofiq Xudo bilim va maqsadlari dunyosida faoliyat yurituvchi eng oliy arbob hisoblanadi⁷².

Alston ham yuqorida qayd etilgan tadqiqotchilardek, Xudo va inson o‘rtasidagi o‘xshashlikka urg‘u berishga harakat qiladi. Bunga sabab sifatida quyidagi fikr keltiriladi, agar Xudo insonlarga o‘xshash bo‘lmagan mavjudot bo‘lsa, uning borligini tasdiqlovchi barcha dalillar asossizdir. Qaror qabul qilmoq, turli xil narsalarni bilmoq va ularning asosida faoliyat yuritmoq, harakat qilmoq faqat insonlarga xos harakatlardir. Agar biz Xudoning bilishini, qaror qabul qilishini va faoliyat yuritishini bilsak va anglasak, o‘z-o‘zidan ushbu insoniy harakatlar Xudoga ham xos bo‘ladi, demak, Xudoning insonmonandligi haqiqatga yaqin. Nasroniy ilohiyotshunoslari orasida Charlz Xarstxornning jarayon ilohiyotshunosligi ta’limotida yuqoridagi tendensiya yaqqol namoyon bo‘lgan. Xarstxorn nasroniylarning o‘rta asrlardagi Xudo haqidagi konsepsiyasini asoslanmagan ta’limot sifatida baholaydi. U Xudoga shaxs sifatida yondashishini taklif qildi, uning fikricha, Xudo o‘zgarish, o‘z bilimini kengaytirib borish, vaqt bo‘yicha mavjud bo‘lish xususiyatlariga ega. Xarstxornning shogirdi Alston bu da’volarni rad qildi. Alston Xudoga nisbatan shaxsiyat yondashuvini saqlagan holda, o‘rta asrlar ilohiyotshunosligi bilan an’anaviy bog‘liq bo‘lgan Xudoning transsendentalligini ilgari suruvchi ilohiyotshunoslik ta’limotini rivojlantirdi. Hozirgi zamon nasroniylik ilohiyotshunosligi Xudoning shaxsiyat tabiatiga egaligiga urg‘u berishning yana bir sababi sifatida, bunday qarash Muqaddas kitob(Injil)ga muvofiq kelishini

⁷⁰ Swinburne Richard. The Coherence of Teism, Oxford: Clarendon Press, 1977, –P. 1.

⁷¹ Mackie J. L. The Miracle of Teism, Oxford: Clarendon Press, 1982, –P. 21.

⁷² William P. Alston. The Perception of God, Philosophical Topics, Vol. 16, No. 2 (Fall 1988)

belgilaydi. Zamonaviy nasroniylik ilohiyotshunosligi vakillarining aksariyat qismi ilohiyotga nisbatan Yum va Kant asarlarida aks etgan falsafiy hurujlarga falsafadan to'liq voz kechgan holda javob qaytardilar. Ular o'rta asrlar nasroniylik ilohiyotshunosligi ilohiy vahiyalarda kelgan tushunchalarni ishlab chiqmasdan, yunon falsafasi tushunchalaridan foydalanganligi uchun noto'g'ri yo'ldan ketganligini ta'kidlaydilar. Bu qarashga qarshi chiqqan Robert Kammings Nevillning ta'kidlashicha, yahudiy tafakkuri payg'ambar Iso Masih davriga qadar ellinlashib bo'lgan, Afina va Quddus dunyoqarashlar tizimining o'zaro muvofiq kelmasligi haqiqatga to'g'ri kelmaydi, bu holat biroz bo'rttirilgan⁷³.

Shia ilohiyotshunosligi an'alarida ham muayyan davrlarda Xudoga nisbatan antropomorf yondashuv ilgari surilgan. Lekin bu yo'nalish Qulayniy(329 h.sh.y./941 mil.y. vafot etgan) va Shayx Sodiq(381 h.sh.y./991 mil.y.vafot etgan) kabi ulamolar tomonidan e'tiqodga zidligi uchun to'liq inkor qilingan. Qulayniy va Shayx Sodiq Xudoni tavsiflash uchun foydalanilgan insonga xos sifatlarni ramziy ma'noda tushunish lozimligini isbotlash uchun Muhammad (s.a.v.) va imomlarning yetarli miqdordagi hadislarini to'pladilar. Alloma Tabotaboyniing tafakkuri yuqorida qayd etilgan ulamolar asos solgan, uzoq tarixga ega falsafiy ilohiyotshunoslik an'alariga asoslanadi. Aql-idrok va din o'rtasidagi soxta ziddiyatni hal qilishning kaliti hisoblangan yuqoridagi an'analar tizimi o'ziga xos sharhga, talqinga ehtiyoj sezadi. Shia an'alarining yuqoridagi talqini o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, u imomlarning hadisleri(Axbor) bilan tasdiqlangan va ratsionallikka ega, hamda talqinda islom mistisizmi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ichki ruhiyat, ma'naviyatga e'tibor beriladi. Lekin shia an'alarining ezoterik sharhidagi ratsionallikni tushunishda aniqlik bilan yondashish kerak. Bu ratsionallik G'arb faylasuflari va empiriklari nazarda tutgan ratsionallik emas. Shia an'alarida Muqaddas kitob, Qur'oni Karimni ezoterik sharhlashda(tafsir) ratsionallik boshqacha tushuniladi, ya'ni Islomda ifoda etilgan aqidalar va tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy

⁷³ Robert Cummings Neville. A Theory Primer. Albany. SUNY Press, 1991, -P. 5-6.

munosabatlarga ongli ravishda asoslanib, ilohiyotshunoslik tizimini shakllantirish, ya'ni aqlga va mantiqiylikka tayanish tushuniladi.

Natijada, din va fan o'rtasidagi soxta ziddiyatlarga nisbatan ikki xil yondashuvning guvohi bo'lamiz. Neoortodoksal yoki liberal ko'rinishga ega bo'lgan zamonaviy nasroniylik ilohiyotshunosligi yondashuvi ilohiyotshunoslik muammolari va fan, falsafiy ta'limotlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik, aloqa bo'lishini inkor qiladi. Musulmon an'analari esa, o'z navbatida, ular orasida sintez bo'lishini ma'qullaydilar. Nasroniy ilohiyotshunoslari o'z ta'limotlarini, ularning Xudoning shaxsiyati haqidagi doktrinalari o'rta asr ilohiyotshunoslarining mavhum Xudosiga qaraganda, Injilda tasvirlangan Xudo siymosiga muvofiq kelishini ilgari surgan holda, ma'qullaydilar. Xudoni shaxslashtirish (personallashtirish) tendensiyasi nasroniylik ta'limotida yaqqol namoyon bo'lmasa ham, doim mavjud bo'lgan. Musulmon ilohiyotshunoslari o'z ta'limotlarining isbot-dalillarini Qur'on va hadislariga asoslanib ilgari surishdi. Noto'g'ri falsafiy ilohiyotshunoslikka asoslangan musulmon ilohiyotchilari faylasuflar va ilohiyotshunoslar tomonidan taklif qilingan sharhlarga e'tiroz bildirdilar, ular muqobil ilohiyotshunoslik doktrinasini taklif qilish o'rniga, ilohiyotshunoslikdan voz kechdilar.

Alloma Tabotaboiiy asarlarida falsafiy ilohiyotshunoslik ta'limotida Xudoga nisbatan shaxsiyat tavsiflari tom ma'noda keltirilmaydi. Mutafakkirning ta'kidlashicha, Shaxsni tavsiflovchi atamalar Xudoga nisbatan qo'llanilganda, qayta izohlanishi kerak, chunki, Yaratguvchi va uning bandalari o'rtasida fundamental ontologik farq mavjud. Misol uchun Tabotaboiiy keltirgan Xudo kalomining falsafiy tahlilini ko'rib chiqamiz. Mutafakkir fikriga ko'ra, Xudo bilimi, hozir bo'lish, namoyon bo'lish ilmi, ya'ni "ilmi al-huduri" hisoblanadi. Hozir bo'lish orqali bilish tushunib bo'lmaydigan, ko'rib bo'lmaydigan bilish bo'lib, bu bilimda bilish ob'ekti bevosita biluvchining oldida hozir bo'ladi, namoyon bo'ladi. Bilimning bu turi islom falsafasida muhim o'ringa ega bo'lib, Suhravardiydan boshlab, Mullo Sadrogacha bo'lgan mutafakkirlar bu muammo bilan shug'ullanganlar. Yuqorida keltirilgan misollar og'riq va ochlik kabi

ongga bog‘liq bo‘lgan holatlar, hamda bilimni, ya’ni xususiy ong bilimini rad qiladi. Ilm al-hudurda biluvchi, bilim va bilish ob’yekti bir butunlikni tashkil qiladi. Tabotaboiiy ashariylar va mo’taziliylarni ilm al-Husulning Xudoga xosligini ma’qullaganliklari uchun tanqid qiladi. Ilm al-Husul – ongda hosil bo‘ladigan bilimlar tizimi hisoblanadi. Xudo va insonga xos bo‘lgan bilim turlari o‘rtasida ontologik tafovut mavjud, bu tafovut Xudo va shaxs o‘rtasidagi ontologik farqqa asoslanadi⁷⁴. Alloma Xudo bilimini izohlash uchun islom ilohiyotshunosligidagi boshqa tafovutlarga murojaat qiladi, bu mukammal(batafsil) bilim(ilm at-tafsili) va umumiydashgan bilim(ilm al-ijmaliy) o‘rtasidagi tafovutdir. Sub’ekt ob’ektning barcha xususiyatlarini to‘liq bilsa, mukammal bilimga ega bo‘ladi, u ob’ektga tegishli barcha o‘ziga xos mulohazalarni o‘zlashtirgan bo‘ladi. Sub’ekt ob’ektning barcha xususiyatlari haqida to‘liq bilimga ega bo‘lmasdan, umumiy ma’lumotlarni bilsa, u umumiydashgan bilimga ega bo‘ladi, lekin zarur vaqtlarda ob’ektning umumiy jihatlari haqida ma’lumotni bera oladi. Yuqoridagi tafovut zamonaviy g‘arb falsafasida bahs mavzusi bo‘lgan alohida sodir bo‘luvchi va tobelikda mavjud bo‘luvchi e’tiqodiy holatlar o‘rtasidagi tafovutlarga muvofiq keladi. Alloma Tabotaboiiyning ta’kidlashicha, Xudo sodda, sof borliq bo‘lib, u mukammallikka ega ekan, uning yaratganlari(maxluqotlari) hech qanday tafovutsiz, oliy shaklda uning o‘zida hozir bo‘ladi, “Xudo maxluqotlari haqida umumiydashgan bilimga ega bo‘lsa ham, joiz bo‘lganda, ular haqida mukammal bilimga ega bo‘ladi”⁷⁵.

Zamonaviy g‘arb falsafiy ilohiyotshunosligi yillar davomida Xudoning vaqt haqiqatlariga munosabati, ya’ni vaqtni anglashi, bilishining qay tarzda ro‘y berishini tadqiq qilmoqda. Xudo, masalan, bugun shanba kun ekanligini qanday bilishi mumkin? Islom ilohiyotshunosligi bu savolga quyidagicha javob beradi: Xudoning hamma narsani bilishi insonning bilishidan tubdan farq qiladi. Xudoning ongidagi haqiqat haqidagi mulohazalarni insonga xos shaklda,

⁷⁴ “Shia dar eslom”, Allome (علامه طباطبائی، کتابخانه بزرگ اسلامی، سال ۵۴، ص ۱۴۴، ۱۴۷. Tabotaboiiy, ketobxone-e bo’zo’rge eslomiy, sol-e 54, sahife-e 144, 147.)

⁷⁵ Allamah Sayid Muhammad Husain Tabataba’i. Bidayat al-Hikma: The Elements of Muslim Metaphysics. Part 9, trans. Ali Quli Qarai, at-Tawhid, Vol. IX, No. 1-2(Muharram-Jamadi II 1414/ July-December 1994), –P. 171.

antropomorfik tushunish mumkin emas. Barcha tafovutlar va o'zgarishlarni cheklangan atamalarda tushunish lozim. Modomiki, Xudo o'z yaratganlariga bugun shanba ekanligini yetkazar ekan, biz bugun shanba kun ekanligini bilish Xudoga xosligini qayd etishimiz mumkin, lekin Xudo hech qachon bunday tarzda mulohaza yuritib, munosabatda bo'lmaydi.

Tabotaboyni fikricha, Xudo shunchalik buyukki, u barcha insonlarning tasavvurlarida mavjud g'oyalar va mohiyatlarga o'z tafakkuri orqali kirishga, yetishga qodir. Aks holda, u muayyan tarkibga o'tish va o'zgarish xususiyatlariga ega bo'lar edi, hatto uning kalomida potensial xatolar ham bo'lishi mumkin edi. U biz o'ylagandan ham qudratli va buyukdir⁷⁶. Boshqacha qilib aytganda, Xudoni madh etish ilohiy bilishni tasdiqlovchi muqaddas yozuvlar talqinida namoyon bo'ladi. Ularda ilohiy bilish va insoniy bilish o'rtasidagi o'xshashlikdan ko'ra, ular orasidagi tafovutga e'tibor beriladi.

Ilohiy sir va transsendentallik Xudoning nafaqat shaxsiyatga ega emasligi, balki substansiya ham bo'la olmasligini tasdiqlaydi. Substansiya mavjudlikdan iborat, bu holat esa cheklanganlik va chegaralanganlikni anglatadi. Xudo esa cheklanmagan, u miqdoriy xususiyatga ega emas, shuning uchun u substansiya bo'la olmaydi.

Modomiki, Alloma Tabotaboiy Xudo va insonning bilimi va nutqini metafizik jihatdan tafovutga egaligini qayd qilar ekan, Alstonning e'tiroziga quyidagicha javob beradi, yuqorida qayd etilgan tafovut Xudoning nutqi va bilimni anglab bo'lmashligini bildiradi. Alloma Tabotaboiy Olamni Xudoning kalomi ekanligini ilgari suruvchi yondashuv tarafdorlaridan o'zini uzoqroq tutishga harakat qiladi. Tabotaboiy bu qarashlarni inkor qiladi, chunki ular Xudoning o'z payg'ambarlari bilan muloqotga kirishuvini tasdiqlovchi har qanday tasdiqni oddiy kinoya sifatida talqin etilishiga sabab bo'ladilar. Mutafakkir Xudoning kalomini haqiqiy, real muloqot sifatida baholaydi. Xudoning vahiysi muayyan insonlarga yo'naltirilgan real mulohot bo'lib, vahiy

⁷⁶ ("al-mizan fi tafsir o'l-Qo'ron", j-5, sahife-e 61.) الميزان في تفسير القرآن، ج ٥، ص ٢١.

vositasida xabar yuboriladi. Xudoning o'z payg'ambariga(rasuliga) xabar yuborishi, uning bir shaxsdan boshqa bir shaxsga yuboriladigan fikrga ega ekanligini anglatmaydi, ya'ni bu harakatda Xudoda shaxs xususiyati namoyon bo'lmaydi. Xudoning inson bilan muloqotga kirishishi, uning insonda ichki bilimni yaratishi sifatida belgilanadi, bunda Xudoning yaratuvchanligiga ahamiyat berilmoqda.

“Insoniyat jamiyatiga baxtni kafolatlaydigan qonunlarni inson aqli, tafakkuri vositasida anglab yetish mumkin emas. Butun maxluqotlarga(yaratilganlarga) taalluqli bo'lgan umumiy rahbarlik doktrinasiga muvofiq, yuqorida qayd etilgan qonunlar haqidagi bilimlardan insoniyat xabardor bo'lishi uchun insonlarning ichki dunyosida o'zgacha bilim kuchi mavjud bo'lishi zarur. Bu bilim insonga real hayotiy majburiyatlarni tushunish, anglash imkoniyatini beradi va bu bilim har bir insonga tegishli bo'ladi. Bu ong va anglash kuchi, aql-idrok va hissiyotdan farqli ravishda, “payg'ambarga xos ong” yoki “Vahiy ongi” deb, ataladi”⁷⁷. Alloma Tabotaboyni ta'kidlashicha, biz “aloqa vositasi” (kommunikatsiya, xabar) atamasini insonlar o'rtasida fikr, g'oya almashinuvini ifodalash uchun istefoda etamiz, shuningdek, bu atamani vahiyini tavsiflash uchun ham ishlatish mumkin, ikkala holda ham mohiyat bitta – xabarni yetkazish hisoblanadi. Masalan, biz lampa atamasini kashf qilingan vaqtdagi “lampa”dan tubdan farq qilsada, elektr chirog'ini ifodalash uchun ishlatamiz. Shunday qilib, vahiy Xudo va inson o'rtasidagi aloqa vositasi sifati belgilanadi, lekin bu aloqaning ibtidosi shaxs yoki aql-idrok emas⁷⁸. Tabotaboiy vahiyini ilohiy muloqot sifatida baholaydi, lekin bunda Xudo shaxsiyatga ega emas. Tabotaboiy shu tarzda Xudoga inson xususiyatlari va metafizik cheklashni nisbat bermasdan, dinda mantiqiy, ratsional sharhlashni qo'llash mumkinligini isbotlab berdi.

⁷⁷ Allamah Sayid Muhammad Husain Tabataba'i. Shiite Islam, trans. Seyyed Hosseyn Nasr, Houston: FILINC, 1979, –P. 143.

⁷⁸ Allamah Sayid Muhammad Husain Tabataba'i. al-Mizan, trans. Sayyid Saeed Akhtar Rizvi, Tehran: WOFIS, 1982. Vol. 4, –P. 133-42.

Alloma Tabotaboiy islom ilohiyotshunosligida ratsionalizmni boshqa masalalarni hal qilishda ham qo'llash mumkinligini ko'rsatdi. Mutafakkir mo'jizaga munosabat bildirar ekan, u tabiiy qonunlarning buzilishi emasligini ta'kidlaydi. Tabotaboiy mo'jizaga nisbatan tabiiy izoh shart emas, deb hisoblaydi. Agar mo'jizalarni izohlaydigan yoki bashorat qiladigan nazariya mavjud bo'lganida ham, uning mo'jizaviyligi sira ham yo'qolmas edi. Hodisaning mo'jizalik jihati uning noodatiy ekanligi, payg'ambarlikning haqiqiy ekanligini isbotlovchi da'vatning diniy ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, Tabotaboiy mansub bo'lgan transsendent falsafa an'analarida Xudo sof borliq ekanligi ta'kidlanadi. Bunday qarashlar Foma Akvinskiy ta'limotida ham mavjud bo'lsada, ular transsendent falsafasi doirasida tomizm falsafasiga nisbatan to'liq rivojlantirilgan. Ilohiylik va real voqelikni bir butun, deb bilish vositasida transsendent falsafasi islom mistisizmi bilan aloqador bo'ladi. Bunda biz zamonaviy nasroniylik ilohiyotshunosligining Alloma Tabotaboiy rivojlantirayotgan ilohiyotshunosligiga nisbatan yana bir e'tirozlariga javob topamiz. Aksariyat nasroniy ilohiyotchilari va faylasuflari Xudoni shaxsiyat sifatida tushunish lozimligini ta'kidlashadi, aks holda Xudo shaxsiyatga ega emas, deb tan olishga to'g'ri keladi, bu holat uning mavjudligiga shubha uyg'otadi. Nasroniy ilohiyotshunosligining va g'arb dinshunosligining aksariyat qismi bu dixotomiyani ma'qullashadi. Lekin islom tafakkurida bu dixotomiyaga o'rin yo'q, u inkor qilinadi. Mistisizm falsafasida(tasavvuf) Xudoning shaxsiyatga egaligi va shaxsiyatga ega emasligi konsepsiyalari o'rtasidagi tafovut muhim ahamiyatga ega. Bu tafovutning ahamiyati R.K.Zenner tomonidan teizm va monizm mistik tajribasi o'rtasidagi asos dixotomiyasi taklif qilingandan so'ng oshib bordi⁷⁹. Xudoga shaxsiyat sifatida qarash yondashuvi tarafdorlari Xudo e'tiqod qilishga loyiq bo'lishi uchun , U kimdir bo'lishi kerakligini, e'tiqod qiluvchi unga sevgilisi sifatida murojaat qilishi zarurligini ta'kidlaydilar. Nasroniy ilohiyotchilari Xudoni sof

⁷⁹ Zaehner R. C. *Mysticism: Sacred and Profane*. New York: Oxford University Press, 1961. –P. 54-58.

borliq deb, bilish g'oyasi uni sovuq, turg'un holatdagi mavhumlikka aylantirib qo'yishini bildiradilar. Alloma Tabotaboiy Xudoning marhamatligi va mehribonligini uning qudrati sifatida tavsiflaydi. Xudoning marhamati uning bandalari ehtiyojiga qarab narsalarni yaratishi bilan belgilanadi. Xudo hamma narsani yaratar ekan, demak, u marhamatli. Personalist ilohiyotshunos ilohiy marhamatni bunday impersonal(shaxsga xos emas) tahlil qilish Xudoni iliqlik va rahm-shafqatdan mosuvo qiladi. Bunday tanqidga quyidagicha javob berish mumkin: personalistlar Xudoga bo'lgan shoirona va falsafiy yondashuvni aralashtirib yuborganlar. Aql-idrok impersonalistik ilohiyotshunoslikni afzalligini ilgari suradi, lekin Xudoga bo'lgan e'tiqodda personalistlarning shoirona murojaatini inkor qilmaydilar. Rumiyning "Masnaviy" asarida keltirilgan mashhur hikoyatni eslatib o'tish lozim. Hikoyatda cho'pon Xudoga antropomorfik shaklda sig'inadi, ya'ni Xudoning hamma xizmatini qilishga, jumladan, uning sochlarini tarab, bitlarini terishini aytadi. Buni eshitgan Muso payg'ambar cho'ponga ta'na qiladi, o'z navbatida Xudo Musoni cho'ponning samimiy ibodatini buzganlikda ayblaydi. Personalistik ilohiyotshunoslikning boshqa mavhum falsafiy ilohiyotshunoslik ta'limotlarini tanqid qilishini yuqoridagi holatga o'xshash, lekin boshqa yo'nalishdagi xato sifatida baholash mumkin. Agar cho'pon Musoning Xudo haqidagi qarashlarida kamchilik topganda nima bo'lar edi? Alloma Tabotaboiy ratsional va impersonal ilohiyotshunoslikni qat'iy himoya qilsada, Xudoga nisbatan munosabatida va e'tiqodida obrazlardan foydalanadi. Mutafakkirning ijod mahsullari, she'rlari bundan dalolat beradi. Alloma Tabotaboiy she'riyatidagi antropomorfizm obrazlari uning falsafiy ilohiyotshunosligidagi Xudoning mavhumligi konsepsiyasiga zid kelmaydi, chunki ikki holatning ham o'z o'ri bor. Bu ikkala mezon o'rtasidagi munosabatda ratsional izohlash va obrazli ifodalash mumkinligi qo'llab quvvatlanadi. Mistik(Tasavvufiy) she'riyat falsafiy ilohiyotshunoslikning ratsional sharhlash shaklini obrazli ifodalaydi. Diniy fursat, on monistik yoki shaxsga xos holat sifatida, uni obrazli ifodalashda

shaxsiyatga xosligini, uni ratsional sharhlashda shaxsiyatga xos emasligini izohlash, tushuntirish mumkin emas.

2. Tabotaboyni bilish nazariyasida g'arb moddiyunchiligining tanqidi

Falsafa tarixidan o'rin egallagan faylasuflarning aksari qismi dunyoqarashlarida gnoseologik muammo asosiy o'rinda turadi. Hatto, agnostik, yoki gnostik kabi oqimlarga bo'linishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Jumladan, Tabotaboii zamonaviy sharq faylasuflaridan farqli o'laroq, bu masalaga an'anaviy tartibga xilof ravishda e'tibor qaratgan. Haqiqatdan, ba'zi o'rinlarda bu boradagi fikrlarida diniy dunyoqarash ustunlik qilishiga guvoh bo'lamiz, lekin shu jihatni ham nazarga olishimiz kerakki, Alloma Tabotaboii diniy muhitda ulg'aygan, dindorlar oilasida tarbiya topgan va u ham diniy ruhoniylardan bo'lgan. Ta'lim-tarbiyani ham diniy madrasalarda olgan, biroq uning gnoseologik nazariyasida ilmiylik jihatlar yetkchilik qiladi va biz bunga e'tibor qaratishimiz darkor.

Islom falsafasida ma'rifatshunoslik yoki bilish haqida so'z borganda asosan, uni inson bilimlari, uning turlarining qiymatlari, ularning xato va haqiqatlari mezonining ta'rifi borasida bahs boruvchi ilm deb biladi.⁸⁰

Tabotaboyni bilish nazariyasida ilm ta'rifi, ilmning qismlari, uning vujudga kelish uslublari, borliq va olam aloqadorligi, anglashning namayon bo'lishi, voqea-hodisalarning yolgo'n, yoki rostligining mezon, xato va haqiqat singari munozaralar atrofida bahs olib boriladi. Bilishning ushbu turi Gnoseologlar(bilish nazariyotchilari) tilida (antik ma'rifatshunoslik, yoki ilk ma'rifatshunoslik deb atalgan) qadimiy yoki birinchi darajadagi(bosqichdagi) ma'rifatshunoslik degan nom bilan atalgan va ilk falsafadan, metafizika boblaridan joy egallab kelgan.

⁸⁰ آموزش فلسفه، ا.ج. استاد مصباح يزدي، سازمان تبلیغات اسلامی، سال ۶۸، ص ۱۳۵
Yazdiy, sozmone tableg'ote eslomiy, sol-e 1348(h,q.), sahife-e 135)

Alloma Tabotabo'iy o'zining bilish nazariyasida (ma'rifatshenosi yo shenoxshenosi iboralarini shunday deb oldik) inson bilimlarining vujudga kelishi haqida o'zining fikrlarini bildirib o'tgan bo'lib, u jumladan, ilm o'zi nima?, u qanday vujudga keladi?, inson bilimlarining mohiyati nimada-yu, ilmdagi haqiqat nimalardan iborat bo'lishi kerak? kabi muammolarni o'z oldiga qo'yib, ularga javob topishga harakat qiladi va bu borada o'zining nazariyalarini aytib o'tadi.

Tabotabo'iy bilishga shunday ta'rif beradi: "Gnosiologiya sub'yektning ob'yektni anglashda yagona tushinishni, yagona tasavvurlarni emas, balki falsafa, tibbiyot, handasa va boshqa predmetlar singari ilmlarning tasavvuriy tushunchalarini jamlagan ilm bo'lagidir. Shunday ma'rifatshunoslik mavjudki, turli ilm tarmoqlarining vujudga kelishidan boxabar bo'lgan, o'zga predmetlardagi asosga ega bo'lgan bilimlarga e'tiborini qaratgan, tug'ilish va rivojlanishimizning mukammalliklaridan doimiy xabardor etuvchi, ilm tarixidan boxabar etuvchi, ularning o'tmishi va bugungi kunini har doim qiyoslab boradi. Boshqa olimlar bir-birlari bilan jamoa fikri va joriy ilmni e'tiborga olmay, qadimgi ma'rifatshunoslik, psixologiya, mantiq va tarixdan foyda izlash bilan o'zining tadqiqot ko'lamini boyitib boradi. Bu bilish nazariyasi olimlar guruhining harakatiga, munosabatiga bog'liq va a'loqador".⁸¹

Albatta, allomaning bu fikrlariga munosabatimiz ijobiy. Tabotabo'iy fikricha, bugungi bilish nazariyasi muommolarining ba'zilar quyidagilardir, jumladan, ilm rivoji nima degani? Bashariyat bilimi kengayishda, mustahkamlanishda va takomillashuvdami, yoki yo'q? Bu takomillashuv qanday sabablarga bog'liq? Bilim takomilining me'yori nimada? Turli bilimlar qachon o'zaro a'loqada bo'ladi? Turli ilmiy nazariyalar nega vujudga keladi va nega inkor etiladi? Olimlar jamoasi ilmlar mohiyatidan qanday manfaatga ega? Bilimning shakli aql ummonida qanday namoyon bo'ladi? Falsafiy tushuntirishdan g'ayri falsafiy tushuntirishning afzalligi nimada? Ma'noli va

⁸¹ نظری به زندگی و آرای علامه طباطبائی "، مسعود امید ، سروش ، تهران ۱۳۸۲ ص ۳۳ ،
barxi oro-e Allome Tabotabo'iy", Mas'ud O'mid, so'rush, Tehron 1382, sahife-e 33.)

ma'nosiz tushunishning afzalligichi? Va biz bilimning biri boshqasiga turli ta'sirlari, ilmga tilning ta'siri, reduksionalizm, birinchi va ikkinchi ko'rinishlar masalasi, tushuntirishlarning asosi, xotira, ishonch va ilm, realizm, antirealizm, instrumentalizm singari bahslardir.

“Ilm” tushunchasiga Alloma Tabotaboii shunday ta'rif beradi: “Ilmning mavhumligiga qaramay, uni umuman mavhum substansiya deb bo'lmaydiki, shubhasiz, u shakl va qismlarga ega, lekin uning xususiyati va xarakteriga qarab, uni shunday ta'riflaydi: “Ilm boshqa bir abstrakt borliq borasidagi moddiylikdan alohida faoliyat hosilasidan iboratdir”⁸².

Ilmning vujudga kelish usullari(metodlari)ni Alloma Tabotaboii shunday izohlaydi: “Ilmning vujudga kelish usuli, uning moddiy, yoki g'ayrimoddiy bo'lishi haqidagi bahs borliqni anglash va bilish ontologiyasiga taalluqli bo'lgan bahslardan biridir.

Alloma insonda ilmning g'ayrimoddiy bo'lishini quyidagicha isbotlashga urinadi: “Avvalo, jahonda moddaning asosiy belgilari va o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qilib, o'sha kezda, inson ilmi va idroki bilan qiyoslab, uni moddaga xos xususiyatlardan mahrumdir deb bilgan va shu tariqa idrokning g'ayrimoddiy bo'lishiga hukm(xulosa) qilingan”. Umuman, Alloma nazarda tutgan idroklar borasida, idrok va ilmning g'ayrimoddiy bo'lishiga xulosa qilganligining o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

1. Moddiylikda kichik predmetda katta narsaning joylasha olmasligi, farqli ravishda idrokda unday emas;
2. Moddiylikda bo'linishlarning mavjudligi, idrokda uning bo'lmasligi;
3. Moddiylikda o'zgarish va yangilanishlar mavjud, idrokda unday emas;
4. Moddiylikda aynanlikning mavjud emasligi, idrokda emas;
5. Moddiylikda elementlarning mavjudligi, idrokda unday emas;
6. Moddiylikda quvvat va moddaning mavjudligi, idrokda emas;

⁸² نهية الحكمه ، علامه طباطبائي ، مؤسسه النشر الاسلامي ، سال ٤٢ ، ص ٦ (Nehoyat-ul hekma, Alloma Tabotaboii, muassase-e nashr-e eslomiy, sol 42, sahife-e 6)

7. Moddiylikda bog'lanishning yo'qligi va ajralishning mavjudligi, idrokda unday emas;

8. Moddiylikda zamonmandlikning mavjudligi, idrokda emas⁸³.

Alloma idrokning abstraktligini isbotlashdagi usuli an'anaviy islom falsafasining idrokning g'ayrimoddiy bo'lishini isbotlashdagi uslubi bilan bir xildir. Biroq, odatga xilof ravishda Alloma Tabotabo'iy idrokning abstraktligini isbotlashda boshqa bir metoddan foydalangan. U bu uslubini marksistlarga savol tarzida muhokama etadi⁸⁴. Jumladan shunday izohlaydi: "Marksistlar idealizmni inkor etadilar, tashqi olamning voqeligi va bizning idrokimizning hosil bo'lishini tashqi olamdan, deb ishonadilar. Boshqa tarafdin skiptitsizm, ilm va idrokning nisbiyligini inkor etadilar. Biroq, inson idroki va ilm jarayonini tushuntirishda uning moddiy bo'lishini qabul qilishi bilan o'zi bilmagan holda skiptitsizm, nisbiylik va idealizm girdobiga botib ketadilar. Boshqacha qilib aytganda, marksistlar insonda ilm va idrokning paydo bo'lishini tashqi predmet, harakat, miya va asabiy reaksiyaning o'zaro ta'siri yig'indisidan hosil bo'ladi, deb biladilar. Va ishonadilarki, idrok asabiy reaksiya, harakat yoki, ashyoning ta'siridan hech biri emas, balki, har ikkisinining birlashmasi, aralashmasi va yig'indisinining mahsulidir. Darvoqe, marksistlar idrokni ifodalashdagi formulasi quyidagi tartibda: tashqi predmet ta'siri + harakat + miya va asabiy reaksiya = idrok, yoki ilm. Va boshqacha aytganda, tezis + antitezis = sintez. Darvoqe, ular ishonadilarki, fikr modda va miyaning bir bo'lagidan tug'ilgan va har ikkisidan boshqa bo'lakdir". Bizning fikrimizcha ilm abstrakt narsa.

Ta'qiy Oroniy marksistlarning idrokni qabul qilishdagi nuqtai-nazari sharhiga quyidagi misolni keltiradi: "shunday tarzda, ovqat oshqozonga kirishi bilan meda elementlari bilan aralashib tezda hazm bo'ladi va hazm bo'lgan taom oshqozon moddalari bilan ovqat tarkibining mahsulidir, idrok ham inson fiziologiyasi(harakati) va asab sistemasi bilan tashqi ta'sirlar aralashmasining

⁸³ نهية الحكمة، عالمه طباطبائي، مؤسسه النشر الاسلامي، سال ٤٢، ص ٢٣٧-٢٣٩ (Nehoyat-o'l hikma, Allome

Tabotabo'iy, muassase-e nashr-e eslomiy, sol-e 42, sahife-e 237-239)

⁸⁴ اصول فلسفه و روش رئالیسم، عالمه طباطبائي، دفتر انتشارات اسلامی، سال؟، ص ٦١ (O'sul-e falsafe va ravesh-e realism, Allome Tabotabo'iy, daftar-e enteshorot-e eslomiy, sol-e ?, sahife-e 61.)

mahsulidir”. Alloma ushbu nuqtai-nazar tanqidida quyidagi fikrlarni keltiradi, “insonning anglashida ushbu gipotezaning zarurligi shundaki, biz uchun hammasi ilmdan hosil bo’lgan, batamom yangi narsa bo’ladigan tashqi predmet ham emas va tashqi voqe narsa bilan mos tushuvchi, aynan bir xil va hamohang hech bir narsa bo’lmaydi. Mana shu yerda marksistlar o’zlari qabul qilgan uslubga qarshi qadam bosganlariga da’vo qilsa bo’ladiki, chunki,

-birinchidan, ushbu qarashda tashqi olam bilan bizning ma’lumotlarimiz a’loqasi butunlay uzulib qoladi va shuni bilamizki, zinhor tashqi olam bilan a’loqasi bo’lmaydi va tashqi predmetni ko’rsatmaydi(anglatmaydi). Boshqacha aytganda, bizning aqlimizda mavjud bo’lgan hech bir fikr tashqi voqelikda mavjud emas va bu so’z aynan idealistlarning so’zidir;

-ikkinchidan, bu so’zlar skiptitsizmdan dalolatdir, chunki har bir shaxs o’ziga xos miya va asab sistemasiga egadir, shunday ekan, har bir kishi voqelikdan o’ziga xos tushuncha oladi, bu yerda shaxslarning qaysi birining idroki voqelikni to’g’ri aks ettiradi, qaysi biri noto’g’ri aks ettiradi bilib bo’lmaydi(ma’lum emas) va bu aynan skiptitsizmdir;

-uchinchidan, bu asosda, ilm xulosasi nisbiy bo’ladi, chunki ilm va idrok ma’lum zamonga, makonga, miya va asab sistemasiga taalluqli, xos bo’lib, boshqa shaklga, boshqa a’zoga va boshqa qiyofaga tegishli bo’ladi. Va shuningdek, turli shart-sharoitlar ostida, ushbu shartlar bilan o’xshash(mutunosib) va farqli(nomutunosib) tomonlarni hosil qiladi.

Demak, aytish kerakki, marksistlar o’zlarining asosiy uslublarini realizm singari nisbiylik va shubhani(skiptitsizmni) inkor etib, idrokning moddiy bo’lishi haqidagi nazariyasidan voz kecha olmaydilar”⁸⁵. Shu tarzda alloma marksistlarning nazariyasini tanqid qiladi va o’zining qarashlarini isbotlab berishga harakat qiladi, alloma fikrlarini misollar bilan aniqlashtirishga urinadi va ilova tarzida bir umumiy qiyosni ham keltiradiki, shu asosda, butunlay idrokning moddiy bo’lishini qabul qila olmaslik lozimligiga olib keladi, ya’ni,

⁸⁵ اصول فلسفه و روش رئالیسم، علامه طباطبائی، با یورقی استاد مطهری، دفتر انتشارات اسلامی، سال؟ ص ۷۰ تا ۷۹. (O’sul-e falsafe va ravesh-e realism, Allome Tabotaboii, bo povaraqi o’shod Mo’taharriy, daftar-e enteshorot-e eslomiyy, sol-e ?, sahife-e 70 to 79.)

“Agar idrok moddiy bo’lsa, unga kerak narsa idealizm, skiptitsizm va nisbiylik bo’ladi, lekin idealizm, skiptitsizm va nisbiylik qabul qilinmaydigan va puchdir. Demak, idrok moddiy narsa emas, balki, g’ayrimoddiydir”⁸⁶.

Alloma Tabotaboiy bilish nazariyasida qarashlarini aytib o’tar ekan, ilm haqida fikr yuritib, uning ma’lum qismlarga bo’linishini ta’kidlaydi. U ilmning anglash va xotira kabi turlariga ta’rif beradi. Jumladan u shunday deydi: “Biz shunday ilm turini bilamizki, unda voqelik bilan to’qnashganimizda biz qo’lga kiritadigan narsamiz ma’lumlik(moddiy narsa) yoki voqelikning o’zi emas, balki tafakkurdir. Boshqacha qilib aytganda, biz boshqa mavjudotlardan farqli o’laroq, o’z bilim doiramizga egamiz va tashqi unsurlar, tashqi ta’sirlar tartibga solingan o’z tashqi borlig’i bilan emas, balki o’z mohiyati bilan bizning ongimizda namoyon bo’ladi, bu ogohlik turi ilm qismlarining bir qismini tashkil etadi va biz uni “anglash ilmi”, deb ataymiz. Anglash ilmi olim oldidagi aniq mohiyatning mavjudligidan iborat, yoki shunday ilmki, unda voqeliklarni turli sur’atlarda keltirib chiqaramiz(ya’ni, tasavvur qilamiz). Yana boshqa ilm turi mavjud bo’lib, unda aniq voqelik olim oldida hosil bo’ladi. Xuddi har birimizning o’z tabiatimizga nisbatan “men” so’zi bilan ta’rif qilganimizdagi ogohlik kabidir. Bizning ilmimiz o’z tabiatiga ko’ra shundaydirki, bizning xarakterimiz o’zining tashqi mavjudligi bilan bizning oldimizda va biz uchun namoyondir. Shunga asoslanib “xotira ilm”i olim oldida aniq voqelik va borliqning mavjud bo’lishidir(ko’z o’ngida namoyon bo’lishidir), deb aytish mumkin”⁸⁷ deya “anglash” va “xotira”ga ta’rif beradi.

“Borliq”ning obtektiv mavjudligi va ilmning “mavhum”ligini ta’kidlagan Tabotaboiy shunday deydi: “Inson ilmning borligini, mavjudligini va ogohligini vijdonan o’zi anglaydi, ya’ni shunday anglaydiki, falon narsani bilamiz va shu narsaga oid bilim unda mavjuddir. Xuddi ochlik, qo’rqinch, tashnalik va shodlikni o’zimizda his qilganimiz kabidir. Bundan tashqari, ilmning

⁸⁶ اصول فلسفه و روش رئالیسم، علامه طباطبائی، ص ۱۴۱، ۱۴۳، پورقی. (O’sul-e falsafe va ravesh-e realism, Allome sahife-e 141, 143 povaraqi)

⁸⁷ بدایة الحکمة، علامه طباطبائی، مؤسسه النشر الاسلامی، سال ۶۴، ص ۱۱ (bedoyat-ul hikma, Alloma Tabotaboiy, muassase-e nashr-e eslomiy, sol-e 64, sahife-e 11.)

mavhumligi, oshkoralik, bilish va bilim shubhasiz va ochiq-oydin mavhumdir. Ilmning mavhumligi va oshkoraligi shodlik, qo'rquvning mavhumligi kabi shubhasiz mavjuddir va har bir inson u haqida aniq tasavvurga egadir»⁸⁸.

Aql, qalb va shariatni tushunish va bilishga erishish omili deb hisoblagan Alloma Tabotaboij har bir insonda tushunish va bilishning ikki manbasi bo'lib, ularning biri qalb va ikkinchisi aqlidir deydi. Inson o'z aqli bilan yaxshiyomonni, foyda-zararni, to'g'ri-noto'g'rini ajratsa, qalbi bilan o'zi va borliq o'rtasidagi aloqa, hamda o'zi va yaratguvchi o'rtasidagi o'zaro bog'lanish uchun yo'l topadi. Albatta insonda mavjud bo'lgan ushbu ikki muhim omilning har biri alohida-alohida vazifaga ega bo'lsa-da, bir-birisiz tushunish va bilish omili bo'la olmaydi. Agar ulardan biri bo'lmasa, inson uchun dalil-isbotlar olamining eshigi berk qoladi, deb hisoblaydi.

Allomaning fikricha, qalb va aql omillari, hamda bularga ko'maklashuvchi shariat omili birgalikda bo'lgandagina tushunish va bilishga erishish mumkin. Allomaning ushbu uch omil to'g'risidagi qarashlari quyidagilardan iborat:

“Qalbiy mushohada. Qalbiy mushohada (yoki qalb kuzatishlari orqali fikr-mulohaza yuritish) insonning borligi yaratuvchiga bog'liq ekanligiga iymon keltirishga sabab bo'ladi. Har qanday aqliy yoki falsafiy tafakkur qalbiy mushohadasiz insonni ma'lum bir narsaga to'la amin qila olmaydi. Ya'ni, aqliy tafakkur orqali chiqarilgan har qanday xulosaning to'g'riligi qalbdan his etilmog'i va tan olinmog'i lozim.

Aqliy tafakkur. Aqliy tafakkur ichki hissiyotlarni tartibga va ma'lum bir balansga solib turadigan narsa bo'lib, xom hayollar va asossiz hissiyotlarning oldini olishga xizmat qiladi, hamda qalbiy mushohadani turli yo'lga soladi. Chunki aqliy tafakkur bo'lmasa, qalbiy mushohada to'g'ri yo'ldan chiqib ketadi, bu esa mavhum narsalarga ishonishga olib keladi. Bunda o'tkinchi bir narsa qalbni o'ziga jalb etib qo'yishi mumkin. Alloma aqliy tafakkurga shunday deb ta'rif beradi.

⁸⁸ نهج الحكمة، علامه طباطبائی، مؤسسه النشر الاسلامی، سال ۴۲، ص ۲۳۱ (Nehoyat-o'l hikma, Allome Tabotaboij, muassase-e nashr-e eslomiy, sol-e 42, sahife-e 231)

Shariat. Shariat yuqoridagi har ikki omilni mustahkamlovchi omil bo'lib, ulardan qay biri kuchsizlanadigan bo'lsa, o'shanga ko'mak beradi. Zero aql, qalb va shariatning har biri yagona haqiqat to'g'risida guvohlik beruvchi omillar bo'lib, yagona ma'noning uchta alohida-alohida tarjimoni hisoblanadilar.

Ushbu uch omil zanjir kabi bir-biri bilan bog'liq bo'lib, bir-birini himoya qiladi va bir-birining barqarorligiga xizmat qiladi⁸⁹.

Albatta, bu yerda Tabotaboyni shariat omilini qo'shishini tushunish mumkin, negaki u ruhoni inson bo'lgan. Ammo biz bu joyda, aynan shariat omili bobida alloma fikriga qo'shila olmaymiz, chunki bizningcha, ilmiy haqiqatlar qalbiy va aqliy mushohadani inkor eta olmaydi. Shuning bilan birga shariy mushohadaga ehtiyoj ham sezmaydi, agar sezadigan bo'lsa, sub'yektivizm yuqori o'ringa chiqib qolishi tabiiy.

Alloma Tabotaboyni bilish jarayonining tarkibiy qismi bo'lgan tasavvur borasida ham o'z nuqtai-nazarini bildirib o'tadi. Tasavvurlarni alloma ikki yirik qismga ajratadi va ularni ham ma'lum qismlarga ajratib o'rganadi. Jumladan, Tabotaboyni shunday ta'riflaydi: "Inson ongida mavjud bo'lgan tasavvurlar ikki qismdan iborat bo'lib, ular a) umumiy b) juz'iy qismlarga bo'linadi.

Umumiy tasavvur shunday tasavvurki, aql va farazning mutanosibligini inkor etmay, unga yo'l beradi. Xuddi ilmning inson mohiyatida bo'lganligi kabi.

Juz'iy tasavvurlar faraz va aqlni nomutanosib bilib, uni inkor etib, unga yo'l bermaydi. Juz'iy tasavvurning o'zi ikki qismga bo'linadi: 1) hissiy juz'iy va 2) xayoliy juz'iy⁹⁰. Tabotaboyni juz'iy tasavvurlarni shunday qismlarga ajratar ekan, umumiy tasavvurlarni ham qismlarga ajratadi: "Umumiy tasavvur tushunchasi ikki qismdan iborat:

1. Haqiqiy, yoki maxfiy(mohaviy) tasavvurlar

2. E'tiborlilik fikri(ma'lum tahlillardan o'tgan fikr), yoki aniq(oshkora) tasavvurlar.

⁸⁹ Alloma Tabotaboyni hayoti, faoliyati, ta'limoti. (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida). –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, –2006. –B. 88.

⁹⁰ نظری به زندگی و آرای علامه طباطبائی "، مسعود امید ، سروش ، تهران ۱۳۸۲ ، ص ۳۹
barxi oro-e Allome Tabotaboyni", Mas'ud O'mid, so'rush, Tehron 1382, sahife-e 39.)

holatda inson zehni kabi mavjuddir. Fikr qabul qilinayotgandagi voqelik yuqoridagi uch qismdan iborat bo'ladi"⁹².

Alloma Tabotaboiiy inson bilimlari va ularning hosil bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari yuzasida ham fikr yuritadi, bu borada shunday deydi: "bilish ilmida mujmal(chalkash) ilmlarni qo'lga kiritilsa, u ilm emas, balki mujmal ilm o'z kashfiyot metodlari bilan qo'lga kiritilsa u ilmdir. Agar u bilim xossasisiz bo'lsa u bilim bo'lmay qoladi".

Shuningdek: "Ta'rif shuki, ilm voqe'likka asoslanuvchi va tashqarini ko'rsatuvchi (ob'yekt haqida ma'lumot beruvchi) hodisadir. Shuning uchun ham tashqi ko'rinishga va asosga ega bo'lmagan ilmiy faraz noto'g'ri faraz hisoblanadi. Shuningdek, kashf etuvchi, ya'ni tashqarini ko'rsatuvchi ilm farazi o'zidan tashqarida bir kashfiyotga ega bo'lmasa noto'g'ri faraz hisoblanadi. Bizning ilmimiz bir oyna kabi. Unda har bir tasvir mulohaza qilinadi. O'zidan tashqaridagi ruhiyatini ko'rsatadi va o'zidan tashqaridagi olamga yo'naltirilgan bo'ladi va undan tashqaridagi mavjud voqe'liklarni ochib beradi (albatta ularning tavsiflari yoki mavjudliklari hududi va mohiyatini ham)"⁹³. Bu yerda alloma inson bilimlarini tashqi olamdan qabul qilib olishini ham alohida ta'kidlab o'tadi. Inson ilmining ruhiyat bilan aloqadorligini, bu ruhiyatning esa, tashqi olamdan tasirlanishini aytadi.

Qarashlarida alloma g'arb faylasuflarining qarashlarini ham tahlil etadi va jumladan, shunday deydi: "Aytib o'tish kerak bo'lgan jihatlar shuki, falsafiy asarlar va g'arb mutafakkirlarining asarlarida ham shunday nuqtayi nazarlarni uchratish mumkin. Misol uchun Gusserl shunday hisoblaydi, "bilish doimo biror narsani anglaganlikdir". Bilish faqatgina biror narsani tushungandagina ilm bo'la oladi. Idrok doimo biror narsani anglashdir. Idrok shunday ko'rinadiki, o'zini o'zidan tashqariga(voqelikka), ma'lumot va ob'yekt tomon yo'naltiradi. Idrok ko'p tarkibga ega. Biz idrokda biror narsaning mohiyatini idrok etamiz.

⁹² نهية الحكمة، علامه طباطبائي، مؤسسه النشر الاسلامي، سال ٤٢، ص ٢٥١، ٢٥٢ (Nehoyat-o'l hikma, Allome Tabotaboiiy, muassase-e nashr-e eslomiy, sol-e 42, sahife-e 251,252.)

⁹³ نهية الحكمة، علامه طباطبائي، مؤسسه النشر الاسلامي، سال ٤٢، ص ٢٥٦، ٢٥٧، ٢٥٩ (Nehoyat-o'l hikma, Allome Tabotaboiiy, muassase-e nashr-e eslomiy, sol-e 42, sahife-e 251,252.)

Bu idrok yetarli emas. Biz o'sha dunyo ma'nosini topamiz va uni haqiqiy idrok eta olamiz. Jan Pol Sartr ham shunday deydi, "idrok olam sari to'xtovsiz ochilib boradi"⁹⁴.

Alloma Tabotaboij haqiqatning tarifi to'g'risida fikr yuritar ekan, u haqiqat haqiqat bo'lishi uchun real voqelik bilan mos tushishi va bunda ob'yekt va sub'yekt mutanosibligi bo'lishi shartligini ta'kidlaydi, jumladan shunday deydi: "Haqiqat - sub'yekt psixikasi va voqelik bilan moslik jihatidan idroklarning tavsifidir. Haqiqat falsafiy atamalarda to'g'ri va rostdir va unga zehn hodisasi deyiladiki, voqea bilan mos keladi. Ammo xato, yolg'on va noqislik bo'lsa, unga zehn hodisasi deb bo'lmaydi. Chunki, u voqelik bilan mos kelmaydi"⁹⁵.

Alloma haqiqat va xato me'yori va mezonini tahlil etadi va uni moddaning ma'nisi va mantig'idan topadi va shunday yozadi: "Haqiqatning xatodan ajratib turadigan mezonini va me'yori mantiqdir (sur'at va modda mantig'i)"⁹⁶. Alloma Tabotaboij haqiqat haqida boshqa nuqtai-nazarlarni ham tahlil etadi, o'z tadqiqotlari natijasi o'laroq, u haqiqat va xato yig'indisi borasidagi mavzuga to'xtaladi va bu ikki qarama-qarshi taraflarning bir butun yig'indi hosil qila olishini inkor etib, shunday yozadi: "Bir nuqtayi nazardan bir fikr va bir jihat ham haqiqat va to'g'ri va ham xato va noqis bo'lishi kerak emas. Lekin bir ilmiy nazariyada ba'zi qismlar xato va ba'zilar to'g'ri bo'lishi mumkin va bu falsafiy xato va haqiqat yig'indisiga hech qanday aloqasi yo'q". Haqiqat-vaqtinchalik emas, balki bir umrlikdir. Alloma haqiqat borasidagi qarashlarida haqiqatning ongimizdagi o'zgarish yoki o'zgarmasligi haqida shunday tariflarni keltiradi: "Zehn qismlari va tushunchalarining tashqi olam va voqe'liklarga mos kelishi abadiydir va ma'lum bir zamonda muayyan bir lahzaga ixtisoslashtirilmagan. Ongimizdagi mavjud haqiqat qancha vaqt o'tsa ham, haqiqatligicha qoladi va u

⁹⁴ ۲۴ ، ۲۳ ، ۲۱ ص ، انتشارات سمت ، سال ، ۱۳۳۳ (padidorshenosi chist, ondere dortik, tarjo'me-e do'kto'r Mahmo'd Navoli, enteshorot-e samt, sol-e1373, sahife-e 21,23,24)

⁹⁵ ۱۰۳ ص ، سال ؟ ، دفتر انتشارات اسلامی ، علامه طباطبائی ، اصول فلسفه و روش رئالیسم ، O'sul-e falsafe va ravesh-e realism, Allome Tabotaboij, daftar-e enteshorot-e eslomiyy, sol-e ?, sahife-e 103.)

⁹⁶ ۱۰۷ ص ، سال ؟ ، دفتر انتشارات اسلامی ، علامه طباطبائی ، اصول فلسفه و روش رئالیسم ، O'sul-e falsafe va ravesh-e realism, Allome Tabotaboij, daftar-e enteshorot-e eslomiyy, sol-e ?, sahife-e 107.)

doimiydir”⁹⁷. Lekin, biz Tabotaboyning bu fikrini qo’llab-quvvatlamaymiz. Chunki, haqiqat nisbiy va o’zgaruvchan xususiyatlarga ham ega va u sub’yektiv ahamiyat kasb etishi ham mumkin.

Shuning bilan birga u mutloq haqiqatni etirof etib, uning zamon va makonda cheksiz ekanligini, unga individ hech qanday ta’sir eta olmasligini uqtirib o’tadi: “Bashariyat yetkazgan haqiqatlarning bari nisbiy emas, balki misollarning bir rishtasi borki, zehn ularning haqiqiyligiga to’liq ishonib, ularga fatvo bera oladi. Shunday mutlaq haqiqatlar ham borki, shaxsga, makon va zamonga aloqasi yo’q”⁹⁸.

Xato masalasida Tabotaboiy nuqtai-nazarini idrok bilan bog’lab tushintiradi va xatoga faqat idrok bosqichlarining birida yo’l qo’yilishi mumkinligi va shu bosqichlar tahlili orqali uni bartaraf etish mumkinligini ta’kidlab, shunday yozadi: “Bu o’rinda shunday savol qo’yiladi: xato idrokning qaysi pog’onasiga mansubdir? Bu savolga javob berish uchun birinchi o’rinda idrok pog’onalari oydinlashsin va keyin ma’lum bo’ladiki xato qaysi pog’onada ro’y beradi. Idrok pog’onalari quyidagilardan iborat: a)hissiy a’zoning tabiiy amal bosqichi (5 ta hissiy qabul qilish a’zolarining tashqi olam bilan munosabatga kirishuvi va aks ta’siri nazarda tutilmoqda), b)hissiy idrokning vujudga kelishi, c)tashqariga tadbiiq qilishdan avval hissiy idrokning psixikadagi hukmi, d)tashqari bilan huquq va nisbatning tadbiiq’i (tashqi olam bilan psixika o’rtasidagi mutanosiblik yoki nomutanosiblik)”⁹⁹.

Bunda insonga xos bo’lgan ong darajasi ham asosiy o’rinni egallaydi.

Borliqni anglash va bilish nazariyalarining bog’liqliklari borasida Allomaning nazariyasi faqatgina borliqni anglashdan tashkil topgan emas, balki u o’z bilish nazariyasining mavzularida borliqni anglashning natijalari, tahlil va bahslaridan foydalanadi. Misol tariqasida u shunday qarashlarni keltirib o’tadi:

⁹⁷ اصول فلسفه و روش رئالیسم، علامه طباطبائی، ص ۱۰۳ پورفی. (o’sul-e falsafe va ravesh-e realism, Allome Tabotaboii, sahife-e 103 povaraqi)

⁹⁸ اصول فلسفه و روش رئالیسم، علامه طباطبائی، ص ۱۱۱، ۱۱۲ (o’sul-e falsafe va ravesh-e realism, Allome Tabotaboii, sahife-e 111, 112)

⁹⁹ اصول فلسفه و روش رئالیسم، علامه طباطبائی، ص ۱۶۲-۱۴۷ (o’sul-e falsafe va ravesh-e realism, Allome Tabotaboii, sahife-e 147-162)

“a) Tashqi mavjud ashyolar ikki mavqe’dan(qismdan) iborat va ularning voqe’liklari tahlilda ikki jihatga egadir:

1-mavqe’ ularning tashqi shakli, shamoili;

2-mavqe’ ularning mohiyatlaridir”.

Alloma bilish nazariyasida narsalarning shakli va mohiyatini alohida e’tirof etadi va bunda ularni qabul qilishda inson idroki muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaydi. Bu jarayonlar inson bilish ilmini shakllantirib borishini aytib, shunday deydi: “Bu holatda inson ma’rifati(bilishi) bo’lib kelgan narsani u o’z idroki bilan topsa, shu narsa tashqi ashyo mohiyati bo’ladi. Shu tartibda shunday ma’rifat turi hosil bo’ladiki, uni bilish yoki anglash ilmi, deb atash lozim. Ya’ni, shunday ilmki, unda tashqi voqe’likning shakli emas, balki mohiyati hozir bo’ladi”. Bu o’rinda shuni ta’kidlash kerakki, borliqni anglash tahlili insonda bilish ma’rifatini keltirib chiqaradi.

b) Alloma nazarida aqliy, hayoliy va hissiy idrokning tadqiqi modda ilmi, hayol va aqlga qarashlidir. Agar modda ilmi, misol va aql tadqiq etilmasa aqliy, hissiy va hayoliy idroklarda ham o’zgarish bo’lmaydi.

c) Allomaning fikrlaridan shu narsa kelib chiqadiki, insondagi g’ayrimoddiy unsurlarning, ya’ni ruhiyat, yoki ruh va uning tana a’zolari bilan bog’liqligi, ya’na ilm va idrokning g’ayrimoddiy bo’lishi nisbiylik, skiptitsizm va idealizm kabi bilish nazariyasining mushkulliklarininig hal etilishiga sabab bo’lmoqda. Inson g’ayrimoddiy borliq shakllarini qabul qilmaslik va buning sabablari bizni bilish nazariyasining mushkulliklari va qiyinchiliklari domiga tortadi¹⁰⁰.

Borliqni anglashda idealizmning inkorida Alloma shunday fikrni bildiradi, ma’rifatshunoslik(gnoseologiya) bahsida ilk qadam voqe’lik, borliqni qabul qilish usuli, hamda o’z voqe’ligi, o’zidan tashqari mavjudlik va o’zligini qabul qilishdir. Biz mavjudmiz va bizning atrofimizdagi voqe’lik mavjuddir, ish-

¹⁰⁰ نهج الحكمة، عالمه طباطبائی، مؤسسه النشر الاسلامی، سال ۴۲، ص ۳۱۴-۳۳۹ (Nehoyat-o’l hikma, Allome Tabotaboiy, muassase-e nashr-e eslomiy, sol-e 42, sahife-e 239-314)

yumushlarni o'zimizcha o'z atrofimizda, o'zimizning xohishimizga yarasha bajaramiz¹⁰¹.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Muhammad Husayn Tabotaboiiy o'zining bilish nazariyasini talqin etishda asosiy metod qilib materializmni tanqid qilish, ular oldiga turli muammoli savollar qo'yish va o'z navbatida ularga o'zining nuqtai-nazari bo'yicha yechim topish uslubini tanlagan. U ko'proq bilish nazariyasida o'rganilayotgan predmet yoki voqelikning mohiyatini alohida e'tirof etadi va ularning tub mazmunini anglab yetishda inson idroki muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi va idrokning materiya emasligini, modda holatida mavjud emasligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, u narsalar mohiyatini anglab yetishda xato, ya'ni yanglish fikrlarning vujudga kelishi va uning haqiqatga ta'sir etishi, haqiqatning esa, zamon va makonda cheksiz bo'lishi, mutloq haqiqatning mavjudligi borasida ham muhim bo'lgan nazariyalarini berib o'tadi.

III bob bo'yicha xulosa

-Tabotaboiiy falsafaga oid mavzular yuzasidan o'z qarashlarini bayon etishda dalillar doirasidan chiqib ketmaslikka harakat qilgan. Bu borada yuqorida ta'kidlaganimizdek, paralogistik, nasihatimiz, safsatadan iborat bo'lgan, tortishuv va bahslarga asoslangan nazariyalarni sillogizmdan farqlay olgan.

-Muhammad Husayn Tabotaboiiy Sharq falsafasida o'ziga xos yangi yo'nalish ocha bildi. Bilimlarni egallashda mantiq va falsafaning rolini yuqori qo'yishi va har qanday jarayonni ratsional yo'l bilan tadqiq etishi uning dunyoqarashida ilmiy mushohadaning roli yuqori ekanligidan dalolatdir.

-Bu o'sha davr Eron hayoti uchun kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, Tabotaboiiy jamiyatdagi bazi kamchiliklar ustidan ham o'z fikrlarini bayon

¹⁰¹ بدایة الحکمة، عالمہ طباطبائی، مؤسسہ النشر الاسلامی، سال ۶۴، ص ۶ (Bedoyat-o'l hikma, alloma Tabotaboiiy, muassasa-e al-nashr-e eslomiy, sol-e 1364, sahife-e 6),

اصول فلسفہ ریالیسم، عالمہ طباطبائی، به کوشش سید مهدی خسروشاهی، مرکز بررسیهای اسلامی، سال؟ ص ۱۱ (O'sul-e falsafe va ravesh-e realism, Allome Tabotaboiiy, be kusheshe Said Hodiyy Xo'sravshohiy, markaze bo'rarsiho-e eslomiy, sol-e ?, sahife-e 11)

qilgan. Asarlarida jamiyatdagi falsafaga oid bir qancha masalalar haqida to'xtalib, materialistlar tomonidan bildirilgan shubhalarga javob tarzida bayon qilingan.

-Ilohiyotshunoslik borasidagi qarashlarida u nasroniy ilohiyotshunoslar Xudoni shaxs sifatida talqin etishi(perspektiv)ni tanqid etadi va Xudoni shaxsga xos xususiyatlardan xoli ekanligini takidlaydi. Bu borada uning qilgan ulkan xizmati shuki, o'sha paytda, ayniqsa g'arb dunyosida diniy qadriyatlarning qadrsizlanayotganini ko'ra bilib, uning sababi nimada ekanligini isbotlab berdi.

-Tabotaboiy ratsional va impersonal ilohiyotshunoslikni qat'iy himoya qiladi, xudo bilan insonning ong olami boshqa-boshqa ekanligini ta'kidlaydi. Bu bilan u xudoni oliy xilqat deb qarab, diniy dunyoqarashni tanqid va shubhalardan foriq qilishga harakat qiladi. Natijada xristian ilohiyotidagi kabi tushunmovchiliklarga qaysidir ma'noda chek qo'yadi.

-Tabotaboiy mansub bo'lgan transsendent falsafa an'analarida Xudo sof borliq ekanligi ta'kidlanadi. Bunday qarashlar Foma Akvinskiy ta'limotida ham mavjud bo'lsada, ular transsendent falsafasi doirasida tomizm falsafasiga nisbatan to'liq rivojlantirilgan. Ilohiylik va real voqelikni bir butun, deb bilish vositasida transsendent falsafasi islom mistisizmi bilan aloqador bo'ladi.

XULOSA

Biz magistrlik dissertatsiyamizda zamonaviy sharq faylasuflaridan biri bo'lgan Muhammad Husayn Tabotaboyni ijtimoiy-falsafiy qarashlarida g'arb falsafasiga munosabatini tadqiq etish jarayonida quyidagi umumiy xulosalarga keldik:

-Avvalo Tabotaboyni ulg'aytirgan ijtimoiy vaziyat, ya'ni XX asrning II yarmigacha bo'lgan davrda jamiyat hayoti ancha murakkab bo'lgan. Bu davrda Eron hududida g'arb madaniyati G'arbda tahsil olgan yoshlar, ziyolilar va mamlakatdagi yuqori qatlam hayotida ommalashib, tub aholining asrlar davomida shakllangan ma'naviy qadriyatlariga putur yetayotgan davr edi. Jamiyatda hokimiyatga nisbatan ishonch ancha susaygan, savodsizlik, iqtisodiy qoloqlik avj olgan edi. Din peshvolari, muqaddas qadamjolarga sig'inish urf tusiga kirgan edi. Mana shunday sharoitda Tabotaboyni jamiyat hayotida sodir bo'layotgan kamchiliklarni, oliy hokimiyatdagi sustkashliklarni, mutaassiblik va g'arb madaniyatiga ortib borayotgan qiziqishlarning salbiy oqibatlarini ko'ra oldi. Va bunday sharoitda Sharqning an'anaviy diniy, hamda ijtimoiy-falsafiy qarashlariga tayangan holda, o'zining falsafiy qarashlarini bayon etibgina qolmay, balki jamiyat hayotiga amaliy tadbiriq etdi. Biz bularni mutafakkir qalamiga mansub asarlardan ham ilg'ab olishimiz mumkin. Qum shahridagi yirik madrasada mudarrislik qilib yurgan paytida uning yoshlarni materializm falsafasi g'oyalaridan asrash maqsadida tuzgan to'garagi va uning natijasi o'laroq "Usul-e falsafe va ravesh-e realizm" rukni ostida nashr ettirilgan falsafiy asaridagi g'oyalarni fikrimizga dalil qilib aytamiz. Globallashuv jadallashgan bugungi jamiyatimizda ham yot g'oyalar, g'arbda keng tarqalgan salbiy odatlarning ta'siriga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish dolzarb muammolardan sanalgan ayni paytda, Tabotaboyni yuqoridagi fikrlari bilan tanishish muhim ahamiyat kasb etadi va muammolarga yechimiga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

-Fikrimizcha, Allomani ma'naviy merosidan o'rin olgan asarlaridagi falsafiy g'oyalar jamiyat uchun ahamiyati juda ham katta. Garchi uning ayrim

asarlari diniy-falsafiy masalalarga bag'ishlangan bo'lsa ham, ularda sof falsafiy masalalar muammosiga oid bahs-munozaralar asosiy o'rinni egallagan. Biz tadqiqotimiz davomida, Tabotaboiiy asarlarining qisqacha mazmun-mohiyatini ochib berishga harakat qildik. Va mutafakkirning ilmiy merosini umumiy 3 jabhaga bo'lish mumkin degan xulosaga keldik, ya'ni, a) Sof falsafiy mavzularga bag'ishlangan asarlari, b) Diniy-falsafiy va tarixiy ruhdagi asarlari, c) Tilshunoslik sohasiga mansub bo'lgan asarlar majmuasi.

-Tabotaboiiy jamiyatda ayollarning mavqei muhim ekanligini ta'kidlab, bola tarbiyasi masalasida ayol jamiyatda yuz berayotgan hodisalardan to'g'ridan-to'g'ri xabardor bo'lishi kerakligini va uning erkaklar bilan jamiyatda bir xil huquqlarga ega ekanligini ta'kidlashi, u yashagan bid'atkorona ruhoniylar mavqei yuqori bo'lgan jamiyatni hisobga olsak, insonparvarlikda olg'a katta qadam tashlagan deb o'ylaymiz. Shuningdek, bugungi kunda bizning jamiyatimizda ham bola tarbiyasiga yuksak darajada e'tibor qaratilmoqda. Bunda Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganidek, onaning, ya'ni ayolning mavqei yuqori o'rinni egallaydi albatta.

-Shuningdek, falsafaga oid mavzular yuzasidan o'z qarashlarini bayon etishda dalillar doirasidan chiqib ketmaslikka harakat qilgan. Bu borada yuqorida ta'kidlaganimizdek, paralogistik, nasihatimiz, safsatadan iborat bo'lgan, tortishuv va bahslarga asoslangan nazariyalarni sillogizmdan farqlay olgan. Bu hozirgi davr ilmiy ijodi uchun ham muhim va dolzarb mavzulardan biridir.

-“Al-Mezon” tafsir asarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, unda “Qur'on”iy bayonlardan tashqari rivoyatlar, ijtimoiy, tarixiy, falsafiy va ilmiy masalalarga oid mavzularda ham so'z yuritilgan. Va ushbu qismlar alohida-alohida tarzda, bir-biri bilan aralashtirilib yuborilmagan holda keltirilgan. Shu asosda jahonning bugungi xalqaro masalalari, jahondagi mavjud (hozirgi davrda mavjud bo'lgan) qarashlar, maktablar va g'oyalar to'g'risida ham yetarli darajada so'z yuritilib, ular islom qonunlari bilan solishtirilgan va ularning yutuq va kamchiliklari ochib berilgan. Shuning bilan birga, Sharq va

G'arbdagi turli qarashlar va g'oyalarga asoslanadigan turli xil maktab va oqimlar tomonidan, xususan, ateizm maktablari tomonidan dinga nisbatan tanqidlarga to'liq, asosli va munosib javob berilgan. Asarning eng qimmatli jihati ham shunda.

-Biz Allomaning ilohiyotshunoslik haqidagi qarashlarida u nasroniy ilohiyotshunoslar Xudoni shaxs sifatida talqin etishini, ya'ni antropomorfizm va personalizmni tanqid etganini va Xudoni shaxsga xos xususiyatlardan xoli ekanligini takidlashini ko'ramiz. Tabotaboiiy ratsional va impersonal ilohiyotshunoslikni qat'iy himoya qilgan, xudo bilan insonning ong olami boshqa-boshqa ekanligini ta'kidlagan. Ahamiyatli jihati shundaki, bu davrda, ayniqsa, g'arb dunyosida diniy qadriyatlarning qadrsizlanayotganini, uning sababi nimada ekanligini isbotlab berdi.

-Tabotaboiiy mansub bo'lgan transsendent falsafa an'analarida Xudo sof borliq ekanligi ta'kidlanadi. Bunday qarashlar Foma Akvinskiy ta'limotida ham mavjud bo'lsada, ular transsendent falsafasi doirasida tomizm ta'limotiga nisbatan to'liq rivojlantirilgan. Ilohiylik va real voqelikni bir butun, deb bilish vositasida transsendent falsafasi islom mistisizmi bilan aloqador bo'ladi. Biz buni mutafakkir ta'limotida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

-Tabotaboiiyning muhim ishlaridan biri shundaki, shia mazhabi ruhoniylarining mavqei juda kuchli bo'lgan, falsafani dinga qarshi ta'limot deb hisoblagan bir davrda, falsafa va mantiq ilmini o'z davrining eng yirik diniy ta'lim maskani hisoblangan Qum oliy madrasasiga olib kira oldi. Bu talabalarning dunyoviy dunyoqarashini shakllantirishda va g'oyalarini amaliy tadbiq etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

-Tabotaboiiy falsafiy dunyoqarashi sharq faylasuflari an'analariga nisbatan nisbiy xarakterga ega bo'lib, u o'zining ijtimoiy va falsafiy qarashlarini asosan g'arb falsafasidagi ayrim oqimlarning ta'limotlari bilan qiyosiy tahlil etish tarzida bayon qilgan. Biz magistrlik dissertatsiyamizda tadqiq etgan bilish nazariyasida materialistik falsafaning moddiyuncha qarashlariga tanqidiy

yondashib, bu muammolarga yechim topishga harakat qilganligini fikrimiz dalili sifatida keltirishimiz mumkin.

Shunday qilib, Tabotaboiy g'arb va sharq falsafasidagi o'zaro mantiqqa zid g'oyaviy ziddiyatlarni ochib tashladi va bu ikki qutb falsafasi o'rtasida tafavvut bo'lishi mumkin emas deb ta'kidlaydi. Albatta, uning bu fikri katta ahamiyatga ega va uning falsafasi jamiyat hayoti uchun o'z qimmatini yo'qotmay qolaveradi.

XIX asr oxiri, XX asr o'rtalarida sharq dunyosi sivilizatsiyasi G'arb dunyosi sivilizatsiyasi bilan murosasiz kurashni barcha sohalarda, jumladan, ilm-fan, falsafa, g'oyaviy-mafkuraviy sohalarda ham olib bordi. Natijada, G'arbning butun sharq, jumladan musulmon dunyosi madaniyati, ijtimoiy hayoti, mafkuraviy olamiga ta'sir etganini, shuningdek, mamlakatimiz o'tmishida ham ko'rishimiz mumkin. Biz buning ijobiy jihatini jadidlar, ma'rifatparvarlar faoliyatida, salbiy jabhalarini esa ateizmning zo'rma-zo'raki kuchaytirilishi, shaxsga "sig'inish", yakkapartiyaviylik g'oyalarining mutloq "hukmronligi", milliy madaniyatimizning, qadriyatlarimizning qadrsizlanishida ko'rishimiz mumkin. Tabotaboiy g'arb falsafasiga munosabatida Sharq va G'arb madaniyatlari suhbatlashuvini, bir-biridan "tajriba" o'rganishini dolzarb va muhim vazifa qilib qo'yadi. XX asr va bugungi XXI asrni turli madaniyatlar uchrashuvi, xilma-xil sivilizatsiyalarning muloqot asri sifatida ifodalash mumkinki, unda turli falsafiy g'oyalar to'qnashuvi uning tarkibiy qismlaridan biridir. Shu nuqtai-nazardan oladigan bo'lsak, bizning magistrlik ishimizdagi fikrlar bugun uchun ham o'z ahamiyati bilan dolzarbligini yo'qotmagan deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Kanstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2008. – 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi 464-I-son, 1997-yil 29-avgustdagi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi 463-I-son, 1997-yil 29-avgustdagi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida”gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi N 429-XII son 1991-yil 20-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi Qonuni(o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari,

Vazirlar Mahkamasining qarorlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi 2012-yil 24-iyuldagi PF-4456-son farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida”gi 2007-yil 10-sentabrdagi N 190-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 2001-yil 16-avgustdagi N 343-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 2012-yil 18-dekabrda ro'yxatdan o'tgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligining “Magistratura to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi N 2405-son buyrug'i.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari

9. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. –Toshkent: O'qituvchi, 2012.
10. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2011.
11. Karimov I.A. Inson xotirasi - boqiy, qadr-qimmati – ulug'. “Xalq so'zi”, 2012-yil 10-may.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. "Xalq so'zi", 2010. 22 sentyabr.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida qilgan "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2010. 12 noyabr.
14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
15. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –Toshkent: O'zbekiston, 2000.
16. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1998.
17. Karimov I.A. “O'zbekiston buyuk kelajak sari” -T.: O'zbekiston, 1998
18. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston. 1997.

IV. Asosiy adabiyotlar

O'zbek tilida

19. Alloma Tabotaboiiy hayoti, faoliyati, ta'limoti (Aliqulov H. umumiy tahriri ostida). –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. –128 b.

20. Po'latova D., Ro'zmatova G. Falsafa tarixi(G'arb falsafasi). –Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2013. -425 b.
21. Po'latova D., Qodirov M., Ahmedova M., Sulaymonov J. Yangi va eng yangi davr Sharq falsafasi. –Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2013. -332 b.
22. Po'latova D., Qodirov M., Ahmedova M., Abduhalimov A. Falsafa tarixi(Sharq falsafasi). –Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2013. -532 b.
23. Ruzmatova G. XIX asr o'rtasida XX asr boshi g'arb falsafasi. Ma'ruzalar matni. –Toshkent: Universitet, 2001.
24. Skirbekk G., Gile N. Falsafa tarixi. –Toshkent: “Sharq” 2002. -712 b.
25. Yo'ldoshev S. Usmonov M. Karimov R. Qadimgi va o'rta asr g'arbiy Yevropa falsafasi. –Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003. –208 b.
26. Qodirov M. Markaziy osiyo, yaqin va o'rta sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar). –Toshkent: ToshDShI nashriyoti, 2009. –191 b.

Rus tilida

27. Новейший философский словарь. –Минск, 1998.
28. Западная философия. Итоги тысячелетия. –Екатирибург, 1997.

Ingliz tilida

29. Allamah Sayyid Muhammad Husayn Tabataba'i. Al-Mizan, trans. Sayyid Saeed Akhtar Rizvi, Tehran: WOFIS, 1982. Vol. 4.
30. Allamah Sayyid Muhammad Husayn Tabataba'i. Bidayat al-Hikma: The Elements of Muslim Metaphysics. Part 9, trans. 'Ali Quli Qara'i, Al-Tawhid, Vol. XI, No. 1–2 (Muharram-Jamadi II 1414/July-December 1994).
31. Allamah Sayyid Muhammad Husayn Tabataba'i. Shi'ite Islam, trans. Seyyed Hossein Nasr, Houston: FILINC, 1979.
32. John Hick. Philosophy of Religion. 2nd ed. Englewood Cliffs, N.J.: Prentice Hall, 1973.

33. Legenhausen M. Islam and Religion. London, Al-Hoda, 1999
34. Mackie J.L. The Miracle of Theism, Oxford: Clarendon Press, 1982.
35. Owen H.P. Teism in the Encyclopedia of Philosophy, 1972
36. Richard Swinburne. The Coherence of Theism, Oxford: Clarendon Press, 1977.
37. Robert Cummings Neville. A Theory Primer. Albany. Suny Press, 1991.
38. William P. Alston. Divine Nature and Human Language. Ithaca: Cornell, University Press, 1989.
39. William P. Alston. Perceiving God: The Epistemology of Religious Experience. Ithaca: Cornell University Press, 1991.
40. William P. Alston. The Perception of God, Philosophical Topics, Vol. 16, No. 2 (Fall 1988).
41. Zaehner R.C. Mysticism: Sacred and Profane. New York: Oxford University Press, 1961.

Fors tilida

42. "نظری به زندگی و آرای علامه طباطبائی"، مسعود امید ، سروش ، تهران ۱۳۸۲. (Alloma Tabotaboiiy hayoti va faoliyatiga bir nazar Mas'ud O'mid, So'rush, Tehron, sol-e 1382 (h.q.).
43. بداية الحکمه ، علامه طباطبائی ، مؤسسه النشر الاسلامی ، سال ۱۳۶۴ (Boshlang'ich falsafa, Alloma Tabotaboiiy, muassasae nashre eslomiy, sol-e 1364 h.q. boshlang'ich falsafa)
44. نهاية الحکمه ، علامه طباطبائی ، وؤسسه النشر الاسلامی ، سال ۱۳۴۲ (Mukammal falsafa, Alloma Tabotaboiiy, muassasae nashre eslomiy, sol-e 1342 h.q.)
45. اصول فلسفه و روش رئالیسم ، علامه طباطبائی ، با پاورقی اسناد مطهری ، دفتر انتشارات اسلامی ، سال؟ (Falsafa uslublari va realizm usuli, Alloma Tabotaboiiy, Mo'taharriy sharhi bilan, daftar-e enteshorot-e eslomiy, sol-e ?)

46. اصول فلسفه ریالیسم، علامه طباطبایی، به کوشش سید هادی خسروشاهی، مرکز. (Realizm falsafasi uslubi, Alloma Tabotaboiy, be kushesh-e Sayyid Hodiyo Xos'rafshohiy, markaz-e bo'rarsiho-e eslomiy, sol-e ?)
47. مجموعه رسائل، علامه طباطبایی، به کوشش سید هادی خسروشاهی، دفتر نشر. (Risolalar majmuasi, Alloma Tabotaboiy, be kushesh-e Sayyid Hodiyo Xos'rafshohiy, daftar-e nashr-e farhang-e eslomiy, sol-e 1370 h.q.)
48. شیعه در اسلام، علامه طباطبایی، کتابخانه بزرگ اسلامی، سال ۱۳۵۴. (Islomda shia, Alloma Tabotaboiy, ko'to'xone-e bo'zo'rg-e eslomiy, sol-e 1354 h.q.)
49. مهر تابان، یادنامه علامه طباطبایی، تألیف حسینی طهرانی، باقرالعلوم. (Mehr-e tobon, yodnome-e Alloma Tabotaboiy, ta'lif-e Ho'sayniy Tehroniy, boqer o'l-o'lum)
50. یادبود یادواره علامه طباطبایی در کازروان، نشر نوید، سال ۱۳۶۹. (Kozervonda Alloma Tabotaboiyi yod etib, nashr-e no'vid, sol-e 1369 h.q.)
51. قبض و بسط نیوریک شریعت، دکتر عبدالکریم سروش، مؤسسه فرهنگی صراط، سال ۱۳۷۴. (Shariat qonuniyatlari va ahkomlari, do'kto'r Abdulkarim So'ro'sh, mo'assasa-e farhangi so'rot, sol-e 1374 h.q.)

V. Qo'shimcha adabiyotlar

52. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'navit-axloqiy fikr rivoji (asarlar va maqolalar to'plami). –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009. – 148 b.
53. Falsafa(Ahmedova M. umumiy tahriri ostida). –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. –495 b.
54. Nazarov Q. G'arb falsafasi. –Toshkent: Sharq, 2004. – 382 b.
55. Yo'ldoshov S, Karimov R, Ro'zmetova G. Yangi va eng yangi davr g'arbiy Yevropa falsafasi(XVII-XX asrlar). –Toshkent: "Sharq", 2002. – 335 b.
56. Виндельбанд В. История философии. – Киев, 1997.
57. در آمدی تاریخی به فلسفه علم، جان لازی، ترجمه علی پایا، مرکز نشر دانشگاهی. (Falsafa ilmining vujudga kelish tarixi, Jon Loziy, tarjo'me-e Ali Poyo, markaz-e nashr-e doneshgohiy, sol-e 1362)

58. فلسفه علم ، مهدی دهباشی ، پیمان ، سال ۱۳۶۲ (Falsafa ilmi, Mahdiy Dehboshiy, peymon, sol-e 1362 h.q.)
59. تحقیقی در فلسفه علم ، محمد تقی جعفری ، دانشگاه صنعتی شریف ، سال ۱۳۷۲ (Falsafa ilmining tadqiqi, Mohammad Taqiy Jafariy, doneshgoh-e san'ati-e sharif, sol-e 1372 h.q.)
60. ترجمه و شرح نهایی الحکمه ، علی شیروانی هرنندی ، دفتر تبلیغات اسلامی ، سال ۱۳۷۲ (Mukammal falsafaning sharhi, Ali Shervoniy Ho'randiy, daftar-e tableg'ot-e eslomiy, sol-e 1372 h.q.)
61. آموزش فلسفه ، ۱ج، استاد مصباح یزدی ، سازمان تبلیغات اسلامی ، سال ۱۳۶۸ (Falasafani o'qitish, Aj, o'stod Mo'sboh Yazdiy, sozmon-e tablig'ot-e eslomiy, sol-e 1368 h.q.)
62. پدیدارشناسی چیست ، آندره دارتیک ، ترجمه دکتر محمود نوالی ، انتشارات سمت ، سال ۱۳۷۳ (Diydorshunoslik nima, Ondare Dortik, tarjo'me-e do'kro'r Mo'hammad Navoliy, enteshorot-e sammet, sol-e 1373 h.q.)

VI. Internet saytlari

63. <http://www.fulosofu.ru/stati> (Philosophy of Allame Tabatabai)
64. <http://www.msn.com> (XX asrda Eron tarixi)
65. <http://www.eduportal.uz/abooks> (XX asrda Eron)
66. <http://www.philospedia.com> (life and ideas of Tabatabai.)
67. <http://www//iranianstudies.org/Journey/v5n1>(Philosophy of Iran)
68. <http://www.slovari.yandex.ru/dict/phil> dict (Ideas of the Allame Tabatabai)
69. http://www//Muhammad Husayn Tabatabai #cite_re f-1(Muhammad Husayn Tabatabai)
70. <http://www.Islamicdigest.net/> v7core /2007/09/29/ (Philosophy of islam in 20-c)
71. <http://www.jafariyanews.com/june2k2/7tabatabai.html> (books of tabatabai)

72. [http://www.google.com/ imgres/photos+of+allame+tabatabai](http://www.google.com/imgres/photos+of+allame+tabatabai) (Photos of Allame Tabatabai and his books)
73. [http:// www.islamfond@gmail.com](http://www.islamfond@gmail.com) (“Современные вопросы исламской мысли”)
74. <http://english.turkcebilgi.com/list> (list of works allameh tabatabai)
75. <http://english.turkcebilgi.com/biography-of> (biography-of-allameh tabatabai)
76. [http:// www.molych.ru/filosofija/](http://www.molych.ru/filosofija/) (znaniya-i-filosofiya-v-knige-almizana. html)
77. <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi qonunlari)
78. <http://www.eduportal.uz> (qonunlar/ axborotlar).